

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası

G.Y.Samandarova

O‘ZBEK TILI

60230102-Filologiya va tillarni o‘qitish (rus tili) ta’lim yo‘nalishi
talabalariga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv
qo‘llanma

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2023

UO‘K 811.512.133(075.8)

81.2 O‘zb

S 28

Samandarova G.Y.

O‘zbek tili [Matn] : o‘quv qo‘llanma / G.Y. Samandarova. - Buxoro :

"Sadriddin Salim Buxoriy" Durдона nashriyoti, 2023. - 192 б.

KBK 81.2O‘zb

Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek tili-davlat tiliga e’tibor kuchaydi va ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O‘zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Davlat tili haqida”gi Qonunlari hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da respublikadagi oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tilini ikkinchi til (davlat tili) sifatida o‘qitishni yanada takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

O‘zbek tilida to‘g‘ri, ifodali so‘zlash va yozish, ona tilimizning sofliги va boyligi to‘g‘risida tinmay g‘amxo‘rlik qilish, uning iste’mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi. Xususan, har bir yosh, o‘quvchi va talaba ona tilidagi so‘z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishga doimo harakat qilishi foydalidir.

Ushbu o‘quv qo‘llanma ta’lim rus tillarda olib boriladigan oliy ta’lim muassasalari talabalariga mo‘ljallangan. Unda amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish uchun zarur bo‘lgan materiallar, mashq, topshiriqlar va testlar o‘z aksini topgan.

Taqrizchilar:

B.M.Jo‘rayeva

D.A.Abdullayeva

**O‘quv qo‘llanma Buxoro davlat universitetining 2022-yil
26-yanvardagi 30-sonli burug‘i bilan nashr etishga tavsiya etilgan.
Qayd etish raqam 30-12.**

ISBN 978-9943- 9265-8-5

MAVZU: O‘ZBEKISTON - YAGONA VATAN

*“Vatanparvar insongina Vatan ravnaqi, xalq farovonligi,
yurt tinchligiga xizmat qilishga o‘zining hayotini bag‘ishlaydi,
o‘zining ma’naviy kamoloti uchun yuksak mas’uliyatni his etishga,
o‘z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan
uyg‘unlashtirib yashashga da’vat etadi”*
SHAVKAT MIRZIYOYEV

Reja:

1. Vatan – kaftingdagi bir hovuch tuproq.
2. O‘zbekiston – vatanim manim!
3. Vatan – yagonadir, Vatan – bittadir!

Vatan–inson inson tug‘ilgan muqaddas zamin, uning qalbida abadiy qoladi va hech qachon unutilmaydi. Vatan tushunchasi va unga bo‘lgan muhabbat ona suti, ona bag‘ri, ona mehr-muhabbati, ona allasi bilan yuragiga joy oladi.

Vatan deganda ota-bobolarimiz, avlod-ajdodlarimiz o‘tgan, kindik qoni to‘kilgan ona Yerni tushunamiz. Avlod-ajdodlarini bilgan va qadrlagan inson uchun ular yashagan makon jonajon –Vatandır.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda qudratli va shavkatli saltanat bunyod etadi. U hayotning barcha noz-ne‘matlaridan, lazzatlaridan istagancha bahramand bo‘lish imkoniga ega edi, biroq Bobur bekam-u ko‘st hayot bilan o‘zini baxtli inson deb hisoblaganmi? Yo‘q, albatta. Unga hamisha bir narsa yetishmagan, uni hamisha bir tuyg‘u qiynagan, qalbini o‘rtagan. Bu – **Vatan sog‘inchi va tuyg‘usi** edi.

Tole’ yo‘g‘i jonimga balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, hind sori yuzlandim
Yo rab netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Buyuk vatandoshimiz, vatanparvar inson Abdurauf Fitrat o‘z yurtining qayg‘usi, taqdiri haqida quyidagi so‘zlarni bitgan: “Ey ulug‘ Turon... sen mening Vatanimsan... Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq – mening o‘limim, sening uchun o‘lmoq – mening tirikligimdur. Panohim, sajdagohim, umudim! Yotlaring seni shu kunga soldilar... Zolimlar seni kimsasizmi ko‘rdilar! Yo‘q, sen kimsasiz emassan. Mana, men chin ko‘nglim bilan sening yo‘lingda

o‘lurg‘a rozi... Men sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman. Ey, turklikning muqaddas o‘chog‘i! O‘lim – sening o‘limingni istaganlarga, nafrat – sani ko‘mgani kelganlarga!”

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, bundan 800 yil muqaddam Jaloliddindek pahlavon o‘g‘ilni dunyoga keltirgan Oychechak ona farzandlari qoniga ko‘krak suti bilan birga yurtining nafasini, mehr-muhabbatini, ozodlikka bo‘lgan buyuk sog‘inchini ham singdira oldi. U o‘z allalari bilan o‘g‘il-qizini Vatanga fidokorlik, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyaladi. Jaloliddinning fojiviy tugallangan umri tarix sahifalarida jasoratning mislsiz timsoli sifatida muhrlanib qoldi.

Ha, har bir inson qalbida tug‘ilgan joyiga nisbatan muhabbat bo‘lishi darkor. Bir faylasufdan so‘radilar: “Yashash qiyin bo‘lgan bu cho‘l-u biyobonga qanday sabr qilasizlar?” U javob berdi: “Agar insonning tug‘ilgan joyiga muhabbati bo‘lmaganida edi, farovon shaharlarga odamlar sig‘mas edi”.

Jonajon Vatanimizning shonli tarixi sahifalarini varaqlasak, ajdodlarimizning nechog‘lik vatanparvarliklariga guvoh bo‘lamiz. Ulug‘ tariqat peshvosi Najmiddin Kubro yurtimiz tarixida buyuk vatanparvarlik namunasini ko‘rsatdi. Vatan muhabbati ila bo‘lgan istaklaridan boshqa istaklarga quloq solmadi.

Kimda kim elining holidan xabardor bo‘lsa, mamlakatining holidan ham xabardor bo‘ladi. Bu hikmatlarning qachon paydo bo‘lganligi va qaysi tarixiy davrga mansubligidan qat‘iy nazar, ularning Vatan taqdirini o‘ylaydigan shaxslarga qaratilganligi aniqdir. Kezi kelganda “Vatan uchun o‘lmoq ham sharaf”, “Vatani borning – baxti bor” va “Vataning tinch – sen tinch” singari maqollar ham Vatanni sevish, uni e‘zozlashga qaratilganligini aytib o‘tish joiz.

Vatan – yagonadir, Vatan – bittadir, degan g‘oyani shu mo‘tabar zaminimizda yashayotgan har qaysi inson, unib-o‘sib kelayotgan avlodlarning ongi va tafakkuriga singdirish, ularning hayotiy ehtiyojiga aylantirishni eng ustuvor maqsadlari deb bilmoqlari kerak. Zotan, jannatmonand ulug‘ ona Vatanimizni sevmoq, ravnaqi uchun fidokorlik qilmoq, uning tinchligi himoyasida bo‘lish va asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir!

Vatan bittadir, shuning uchun ham u muqaddas. Yagona bo‘lgan narsalarning barchasi e’zozda–Vatan, Ona, Zamin, Osmon, Quyosh... Bittadan oshdimi, muqaddaslik qolmaydi. Ha, Vatan ona kabi yagonadir!

Bepoyon Vatanimizning ba’zi go’shalarida «vatan» so‘zi uy, xona ma’nosini ham bildiradi. Aytishadi: “O‘g‘lim uchun bir vatan qurdiray...” Yoxud kishi omadsizlikdan uyidan mahrum bo‘lsa «bevatan bo‘lib qolibdi», deyishadi afsus bilan. Vatan – bu yashab turgan uyimiz!

Ey Vatan, jon-u dilimda jo o‘zing,
Men uchun olam aro tanho o‘zing.

Lug‘at ishi

Kaft	–	ладонь
Hovuch	–	пригоршня, горсть
Muqaddas	–	священный
Makon	–	жилище, обителище
Vatanparvar	–	патриот
Bepoyon	–	необъятный, безграничный
Fidokor	–	преданный, самоотверженный

1-mashq.

Matndagi x va h harflari ishtirok etgan so‘zlarni 2 ta ustunga ko‘chirib yozing.

Namuna:

Xizmat	Hovuch
Xalq	Hech

2-mashq.

Maqollarni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

Namuna: Begona tuproq – devona tuproq. Чужая земля – не родная земля.

1. Ayrilmagin elingdan, Quvvat ketar belingdan.
2. El egasiz bo‘lmas, To‘n yoqasiz.
3. Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni.
4. Vatangado bo‘lguncha, Kafangado bo‘l.
5. Vatani borning baxti bor, Mehnati borning taxti.
6. Vatanning tinch – sen tinch.
7. Yurtim dedim, yuzga kirdim.
8. Podsho zolim bo‘lsa – yurt to‘zar, Podsho odil bo‘lsa – yurt o‘zar.

3-mashq.

Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Узбекистан — государство с великим будущим. Источником уверенности в великом будущем является его богатая многовековая история. Вы знаете, что первые самостоятельные государственные образования на территории республики появились еще в начале первого тысячелетия до новой эры. В многочисленных исторических и литературных памятниках народов Азии и Европы встречаются неоднократные упоминания о могущественных и процветающих государствах того времени — Хорезме, Согдиане, Маргиане и других.

Наши предки внесли весомый вклад в развитие человеческой цивилизации. Уже в течение многих столетий стоят рядом имена Абу Али ибн Сины и Гиппократ. Фараби и Аристотеля, аль-Хорезми и Архимеда, Беруни и Галилея. Произведения Алишера Навои, как и творения Данте, Шекспира, Пушкина, оказали огромное влияние на развитие мировой литературы.

У всего мира вызывает восхищение мастерство творцов памятников зодчества Самарканда, Бухары, Хивы, а также уникальных ирригационных сооружений, созданных тысячелетия тому назад и ставших основой культуры орошаемого земледелия в мире.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Vatan deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun Vatanni kaftdagi bir hovuch tuproqqa o‘xshatamiz?
3. Vatanimiz tinchligi va ravnaqi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan insonlardan kimlarni bilasiz?
4. O‘zbekistonda qanday oliy o‘quv yurtlari mavjud?
5. Vatan mavzusida she‘r yozgan shoirlardan kimlarni bilasiz?

Test

1. O‘zbekiston madhiyasining muallifi va bastakori kim?

- A. A.Oripov, Y.Rajabiy
- B. A.Oripov, M.Yusuf
- C. A.Oripov, M.Burhonov
- D. M.Yusuf, M.Burhonov

2. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” asarining muallifi kim?

- A. Sh.M.Mirziyoyev
- B. I.A.Karimov

C.A.Oripov

D.M.Yusuf

3. “Kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” asarining muallifi kim?

A. Sh.M.Mirziyoyev

B.I.A.Karimov

C.A.Oripov

D.M.Yusuf

4. O‘zbekiston qachon mustaqillikka erishgan?

A. 1990-yil

B.1989-yil

C.1991-yil

D.1992-yil

5.O‘zbekiston bayrog‘i qabul qilingan yil?

A. 1990-yil

B.1989-yil

C.1991-yil

D.1992-yil

6.O‘zbekiston gerbi qabul qilingan yil?

A. 1990-yil

B.1989-yil

C.1991-yil

D.1992-yil

7.O‘zbekiston madhiyasi qabul qilingan yil?

A. 1990-yil

B.1989-yil

C.1991-yil

D.1992-yil

8. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov qachon vafot etgan?

A. 2015-yil

B.2016-yil

C.2014-yil

D.2017-yil

9. Ushbu misralar kimga tegishli?

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,

El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish,

Oltin *qafas* ichra gar qizil gul bitsa,

- Bulbulg‘a tikandek oshiyon bo‘lmas emish.
A. Z.M.Bobur
B. Alisher Navoiy
C. A.Oripov
D.Sheroziy

1-topshiriq.

She’rni o‘qing va yodlang.

MENI OLIB KETING

Abdulla Oripov

Tinch edi hamma yoq, tinch edi har yon,
Titradi go‘yoki yer bilan osmon.
Boshimga xastalik tushdi nogahon,
Meni olib keting o‘z diyoringa.

Issiq jon, deydilar, jon bo‘lsa bo‘lar,
Payt kelsa chechak ham sarg‘ayar, so‘lar.
Kim bilgay paymonang qay yerda to‘lar,
Meni olib keting o‘z diyoringa.

Ginam bor bu yurtning na havosidan,
Mehribon doktorning na davosidan.
Qaytarmang xastani muddaosidan,
Meni olib keting o‘z diyoringa.

Sha’ninga g‘ayurlar bir so‘z demasin,
Har kim o‘zi tortar umr kemasin.
Hech kimni mushtoqlik dardi yemasin,
Meni olib keting o‘z diyoringa.

Talpingan diyoring, u – O‘zbekiston!
Sehrini aytishga bormi hech imkon!
Yo‘q, o‘zga yurtlarda berolmasman jon,
Meni olib keting o‘z diyoringa.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” - T.: Ma’naviyat, 2008. - 176.
2. I.A.Karimov “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. 2009-Toshkent.

3.Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-104 b.

4.Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-488 b.

5.Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. Toshkent. 1962.

MAVZU: O‘ZBEK TILIDA TOVUSHLAR TALAFFUZI

Reja:

1. Orfoepiya – to‘g‘ri talaffuz.
2. Adabiy talaffuz qoidalari.

Orfoepiya (grekcha orthos – «to‘g‘ri», epos – «nutq») to‘g‘ri talaffuz qilish me‘yorlari majmuasidan iborat. Talaffuz me‘yorlari og‘zaki nutqqa xosdir. Adabiy til qonuniyati asosida to‘g‘ri yozish qanchalik muhim bo‘lsa, to‘g‘ri talaffuz qilish ham shunchalik zarurdir. Talaffuzni belgilashda esa tovushlarning to‘g‘ri aytilishi ahamiyatlidir. Agarda tovushlar cho‘zib talaffuz qilinsa, so‘zning ma‘nosi buziladi, ta’siri yo‘qoladi. Adabiy talaffuz qoidalarini belgilashda tovushlar urg‘u, intonatsiya kabi vositalarga asoslanadi.

Orfoepik me‘yorlar aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi – jonli tildagi turlicha talaffuz ko‘rinishlaridan adabiy til an‘analariga, taraqqiyot an‘analariga mos keladiganlari tanlanadi. Masalan, o‘zbek shevalarida bir so‘z turlicha talaffuz qilinadi: aka-oka, ota-ada, anor-onar kabi.

Lug‘at ishi

Talaffuz	–	произношение
Tovush	–	звук
Me‘yor	–	норма
Nutq	–	речь
Adabiy	–	литературный
Taraqqiyot	–	развитие, прогресс
Sheva	–	говор

1-mashq.

b jarangli undoshning soʻz oxirida jarangsiz **p** tarzda talaffuziga oid misollarni yozing va oʻqing.

Namuna: janob-janop, girdob-girdop...

2-mashq.

Soʻzlarning nutqda parallel ishlatilishiga misollar yozing.

Namuna: Buncha-muncha, tanbur-tambur...

3-mashq.

I tovushi qoʻshib talaffuz etiladigan soʻzlarni davom ettiring: aql-aqil.

4-mashq.

Rus tili orqali oʻzlashgan qaysi soʻzlarning oxiriga a qoʻshiladi? Namunaga asosan davom ettiring.

Namuna: Tank – tanka...

5-mashq.

Portlovchi - b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng undoshlari ishtirokida misollar yozing.

6-mashq.

Sirgʻaluvchi - v, f, z, s, y, r, l, sh, gʻ, x, h undoshlar ishtirokida misollar yozing.

7-mashq.

Alifbo ichidan jarangli undoshlarni 1-ustunga, jarangsiz undoshlarni 2-ustunga ajratib yozing.

Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, Oʻoʻ, Gʻgʻ, Sh sh, Ch ch, Ng.

Jarangli

B

Jarangsiz

P

8-mashq.

Qoʻsh undoshlar ishtirok etgan soʻzlar bilan gaplar tuzing va ularni rus tiliga tarjima qiling: malla, shovvoz, tizza, doʻppi, gramm, metall, kilovatt.

Namuna: Uch yuz ming soʻmga bir gramm oltin sotib olsa boʻladi.

За триста сум можно купить один грамм золота.

9-mashq.

1-qatordagi – goʻsht, doʻst, barg kabi qator undoshlar;

2-qatordagi –paxta, nimcha, o‘simlik kabi yonma-yon kelgan undoshlar ishtirok etgan so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring. Nima uchun ular qator va yonma-yon kelgan undoshlar ekanligini tushuntiring.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tovush deb nimaga aytiladi?
2. T va d tovushlari qaysi belgilari bilan o‘zaro zidlanadi?
3. Nutq tovushlarining yozuvdagi shartli belgisi?
4. Harflarning muayyan tartibda joylashtirilgan yig‘indisi?
5. Qaysi tovushlar ikki harfdan iborat?
6. Alifboda nechta harf bor?
7. Unli tovushlar deb nimaga aytiladi?
8. Undosh tovushlar deb nimaga aytiladi?
9. Qaysi unlilarni talaffuz qilganda lab oldinga cho‘chchayadi?
10. Sonorlar nechta?
11. Qo‘sh undoshli so‘zlar deb nimaga aytiladi?

Test

1. Tovush bilan bog‘liq hodisalar tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?

- A. Morfologiya
- B. Leksikologiya
- C. Fonetika
- D. Sintaksis

2. Tovushlarning akustik tomoni qaysi fan bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi?

- A. Biologiya
- B. Matematika
- C. Geografiya
- D. Fizika

3. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” gi Qonun qachon qabul qilingan?

- A. 1993-yil 2-sentabrda
- B. 1995-yil 2-sentabrda
- C. 1994-yil 2-sentabrda
- D. 1992-yil 2-sentabrda

4. Hozirgi alifboda nechta harf bor?

- A. 30 ta
- B. 29 ta

C. 31 ta

D. 28 ta

5. Hozirgi alifboda nechta undosh harf bor?

A. 21 ta

B. 20 ta

C. 23 ta

D. 22 ta

6. Hozirgi alifboda nechta unli harf bor?

A. 8 ta

B. 6 ta

C. 9 ta

D. 10 ta

7. Qaysi unilarni talaffuz qilganda lab o'z holicha qoladi?

A. u, o', o

B. i, e, a

C. a, o', o

D. o' I, u

8. Lab tovushlari nechta?

A. 6 ta

B. 5 ta

C. 4 ta

D. 3 ta

9. X(x) harfi o'zbek tilida qaysi unli bilan yonma-yon kelmaydi?

A. A

B. O

C. E

D. I

10. So'z boshida uchramaydigan tovush?

A. Sh

B. G'

C. Ch

D. Ng

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G', Rustamov H. Ona tili.10-sinf uchun darslik. Toshkent, 2003.

2. Abdurahmonov G', Rustamov H. Ona tili.11-sinf uchun

darslik. Toshkent, 2004.

3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. T.:2009.

4.Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. Toshkent. 1962.

5.Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 1-bosqich talabalari uchun darslik. T.: 2010.

6. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 2-bosqich talabalari uchun darslik. T.: 2010.

7. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.: 2009.

8.Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992.

9. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent. 1980.

10. O'zbek tili grammatikasi. A.G'ulomov tahriri ostida. Toshkent. 1975, 1976.

MAVZU: O'ZBEK TILI – DAVLAT TILI

Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir.

ISLOM KARIMOV

Reja:

1.O'zbek tili – davlat tili.

2.“Til to'g'risida” gi Qonun mohiyati va ahamiyati.

3. O'zbek tilim – ona tilim.

O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili. Vatanimizdagi 36 million xalq o'zbek tilini ona tilim deydi. Bundan tashqari, o'zbek tili Saudiya Arabistonida, Turkiyada, AQShda, Afg'oniston va Qoshg'arda hamda bir qancha boshqa davlatlarda yashovchi o'zbeklarning ham ona tilidir.

1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Pirovard natijada, bugungi kunda jahondagi ko‘plab mamlakatlar xalqlari davlatimiz ramzlari – O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i, gerbi, davlat madhiyasi qatorida o‘zbek tiliga ham hurmat bilan qarab, nafis va boy til sifatida yuksak baho berib kelmoqdalar.

Ma’rifatparvar va zabardast adibimiz Abdulla Avloniy: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”- degan aniq va teran fikrlarni bayon etganda naqadar haq edi.

Mustaqillik arafasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida juda qizg‘in, ba’zida keskin, murosasiz bahs-tortishuvlar bo‘lgani Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ifodalangan.

“O‘shanda ayrim siyosiy guruhlar O‘zbekiston sharoitiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan, bir-biriga butunlay zid va qarama-qarshi fikrlarni olg‘a surgan, shuning hisobidan o‘ziga obro‘ topish, odamlarni ortidan ergashtirishga uringan edi. Nega deganda, til bilan bog‘liq muammolar orqali milliy tuyg‘ularni ro‘kach qilib, ulardan g‘arazli maqsadlarda foydalanish mumkin, - deb yozadi I.Karimov. – Ana shunday qaltis va murakkab vaziyatda ehtirosga berilganimizda, hushyorlikni yo‘qotganimizda uchqundan o‘t chiqib ketishi hech gap emasdi”.

“O‘zbek tilim – ona tilim – dunyoda eng go‘zal, jarangdor va boy tilim”, “Dil idroki – til javhari, uni izhor etmak, til ila jarangdor so‘zdir”, deb ta’riflasak, ona tilimizga va til madaniyatimizga to‘g‘ri baho bergan bo‘lamiz. Rossiyalik tilshunos olim, professor A. M. Kozlyanina “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangiday jarangdor”, - deb tan olganligi va yuksak baho berganligi bejiz emas, albatta.

Lug‘at ishi

Tafakkur	–	мышление
Fazilat	–	достоинство
Millat	–	нация
Mustaqillik	–	независимость
Ma’rifatparvar	–	просветитель

Pirovard	–	конец, исход
Tilshunos	–	языковед

1-mashq.

Maqollardagi so‘zlarni tartib bilan qo‘ying.

1. So‘zni ayt aytar, so‘zdan aytmas qayt.
2. Uy anjom –ziynati, So‘z – ziynati inson.
3. Ariqni bezar, Odamni – so‘z suv.
4. Zahri achchiq til –ilon, Chuchuk jon tilga –qurbon.
5. Noning bo‘lmasa ham bug‘doy, so‘zing bug‘doy bo‘lsin.
6. Qisqasi gapning– yaxshi, yaxshi hissasi– qisqasidan.

2-mashq.

Quyidagi maqollarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Лучше поздно, чем никогда. 2. Волков бояться - в лес не ходить. 3. Сперва подумай, а потом говори. 4. Курить - здоровью вредить. 5. Рыбак рыбака видит издалека. 6. Поспешишь - людей насмешишь. 7. Кто вчера солгал, тому и завтра не поверят. 8. Берегись козла спереди, лошади сзади, а лихого человека со всех сторон. 9. Любишь кататься - люби и саночки возить. 10. Не трудиться - хлеба не добиться. 11. Век живи, век учишься. 12. Кончил дело - гуляй смело. 13. Не откладывай на завтра то, что можно сделать сегодня. 14. Семь раз отмерь, один раз отрежь.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘zbeklar yana qaysi davlatlarda yashaydilar?
2. Turkiy tilda ijod qilgan buyuk ijodkorlardan kimlarni bilasiz?
3. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?
4. “Davlat tili haqida “gi Qonun nechta moddadan iborat?
5. “Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilindi?
6. O‘zbek tili qanday tillar oilasiga kiradi?
7. Eski o‘zbek adabiy tilining asoschisi kim?
8. Xalqimiz qanday yozuvlardan foydalangan?
9. Qadimiy turkiy yozuv yodgorligi qanday nomlanadi?
10. O‘zbek kirill alifbosiga qachon va nima sababdan o‘tilgan?
11. O‘zbek tili qaysi tillardan ko‘p so‘z o‘zlashtirgan?

12. O‘zbek (turkiy) tilidan boshqa tillarga qanday so‘zlar o‘zlashtirilgan?

Test

1. **“Ona tilim-jon-u dilim” deb nomlangan she’rning muallifi kim?**
 - A. Abdulla Oripov
 - B. Muhammad Yusuf
 - C. Erkin Vohidov
 - D. G‘afur G‘ulom
2. **Adabiy til nechta shakldan iborat?**
 - A.2
 - B.4
 - C.3
 - D. 5
3. **“Biz kim o‘zbeklar” asarining muallifi kim?**
 - A.T.Malik
 - B.A.Ibrohimov
 - C.O‘.Hoshimov
 - D. P.Qodirov
4. **A.Navoiy qancha so‘z ishlatgan?**
 - A.26035 ta
 - B.21193 ta
 - C.20000 ta
 - D. 17600 ta
5. **“Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilinganidan keyin qancha vaqt o‘tgach O‘zbekiston mustaqillikka erishdi?**
 - A.2 yil o‘tgandan keyin
 - B. 1 yil o‘tgandan keyin
 - C. 8 oydan keyin
 - D. 6 oydan keyin
6. **“Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahriri qachon qabul qilingan?**
 - A. 1995-yil 21-dekabrda
 - B. 1991-yil 21-oktabrda
 - C. 1993-yil 24-avgustda
 - D. 1992-yil 17-sentabrda
7. **“Davlat tili haqida”gi Qonunning qaysi moddalarida boshqa**

millat vakillari tillarining amal qilinishi himoya qilinadi, deb belgilab qo‘yilgan?

- A. 2-,4-,6-,10-,14-moddalarida
- B. 1-,2-,3-,6-moddalarida
- C. 4-,5-,10-moddalarida
- D. 8-,9-,10-,6-moddalarida

8. “Budun” so‘zining ma’nosi:

- A. Xalq
- B. Bilim
- C. Yov, dushman
- D. Ko‘p

9. Nechanchi yillargacha xalqimiz lotin yozuvidan foydalangan?

- A. 1931-yildan 1939-yilgacha
- B. 1938-yildan 1940-yilgacha
- C. 1930-yildan 1940-yilgacha
- D. 1941-yildan 1956-yilgacha

1-topshiriq.

She’rlarni o‘qing, ma’nosini daftaringizga yozing va ularni yodlang.

A.Oripov

Ming yillarkim bulbul kalomi
O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha
Ammo sho‘rlik to‘tining holi
O‘zgalarga taqlid hamisha.
Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman.

ONA TILIM – JON-U DILIM

E.Vohidov

Bobolardan meros qolgan,
Butun olam e’zoz qilgan.
Bu dunyoda yagonamsan,
Ona tilim– jon-u dilim.

Sen ancha vaqt orzu bo‘lding,
Rus so‘zidan juda to‘yding.
Oxir o‘zni tiklab olding,
Ona tilim– jon-u dilim.

Hozir juda go‘zaldirsan,
Hamma tildan o‘zing zo‘rsan.
Zulmatdagi nurimdirsan,
Ona tilim– jon-u dilim.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» – T.: Ma’naviyat, 2008. - 176.
2. N. Husanov., R.Xo‘jaqulova,, N. Dilmurodova. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – T.: TMI, 2017. - 336 b.
3. U. Lafasov. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – T.: ToshDSHI, 2009. - 532 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zR Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1997, 9-son, 225-modda; 2013. – 41-son, 543-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni (yangi tahrirda) / O‘zR Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1989. - 26-28-son, 453- modda; 1991. - 11-son, 273-modda.
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2014. - 46 b.

MAVZU: O‘ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI

Reja:

1. Orfografiya – adabiy tilning yozma shakli.
2. O‘zbek (lotin) yozuvining imlo qoidalari.

Jamiyatning har bir a’zosidan to‘g‘ri so‘zlay olish va savodli yoza bilish talab etiladi. O‘quv muassasalari oldida turgan asosiy vazifa ham shu talab asosidan kelib chiqadi. Adabiy tilning ikki shakli bo‘lib, ulardan biri yozma nutqdir. Bu nutq orfografiya

qonun-qoidalarga asoslanadi. Demak, orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos boʻlib, u tildagi oʻzak-negiz va qoʻshimchalarni yagona tarzda toʻgʻri yozish haqidagi qoidalar yigʻindisidir. Kirill grafikasi asosidagi imlo qoidalari 1956-yilda tasdiqlangan. Bu imlo qoidalari quyidagi boʻlimlarni oʻz ichiga olgan: 1. Ayrim harflar imlosi; 2. Oʻzak-negiz va qoʻshimchalar imlosi; 3. Qoʻshma soʻz va soʻz birikmalari imlosi. 4. Boʻgʻin koʻchirilishi; 5. Bosh harflarning yozilishi.

1995-yil 24-avgustda lotin grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvining imlosiga doir qoidalari tasdiqlandi. Bu imlo qoidalari quyidagi boʻlimlardan tuzilgan:

1. Ayrim harflar imlosi: unlihar imlosi, undoshlar imlosi.
2. Asos va qoʻshimchalar imlosi.
3. Qoʻshib yozish.
4. Ajratib yozish.
5. Chiziqcha bilan yozish.
6. Bosh harflar bilan yozish.
7. Koʻchirish qoidalari.

Ikki xil grafikaga asoslangan imlo qoidalari ayrim oʻrinlari bilan farqlanadi. Orfografiya – soʻz, oʻzak va qoʻshimchalarning toʻgʻri yozilishi, qoʻshma soʻzlarning tarkibiy qismlarini qoʻshib yoki ajratib yozishni soʻz boʻgʻinlarini toʻgʻri koʻchirishni oʻrgatadi.

Avvalo, biz savodli boʻlishimiz uchun imlo qoidalarini bilishimiz zarur. Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyingi, ayniqsa, Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan soʻnggi yillarda tilimiz lugʻati oʻzbek tilining imkoniyatlari asosida rivojlanishga keng yoʻl ochildi. Natijada yangi-yangi soʻzlar paydo boʻldi, oʻzbek tilida avvallari isteʼmolda boʻlgan, lekin asosiy ravishda isteʼmoldan chiqarilgan koʻpgina soʻzlar qayta isteʼmolga kiritildi. Boshqa tillardan zaruriyatsiz olingan ayrim soʻzlar oʻzbek tilida mavjud boʻlgan, yangi yasalgan soʻzlar bilan almashtirildi. Oʻzbek tili imlosi maʼlum bir qoidalarga asoslanadi. Soʻzlar qanday talaffuz etilishidan qatʼiy nazar adabiy tilning imlo qoidalari asosida yoziladi.

Lugʻat ishi

Imlo	–	орфография, правописание
Negiz	–	основа
Qoʻshimcha	–	аффикс
Unli	–	гласный

Undosh	–	согласный
Bo‘g‘in	–	слог
Iste‘mol	–	употребление
Talaffuz	–	произношение
Tovush	–	звук

1-mashq.

Q va K undoshlari bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchasini qo‘shib so‘zlarni to‘g‘ri yozing: qishloq, quloq, tayoq, oyoq, bo‘yoq, mayoq, chiroq, buloq, charchoq, qaymoq, qo‘shiq; tilak, yurak, kerak, ko‘ylak, istak, malak, chorak, kaltak, chalpak, falak.

Namuna: tayoq – tayog‘i ; yurak – yuragim.

2-mashq.

So‘zlarni daftarga ko‘chiring. O‘zak-negiz va qo‘shimchalarni belgilang: parvoyim, parvoying, obro‘yim, obro‘ying, obro‘yimiz, avzoyi, mavzusi, vodiysi.

3-mashq.

Quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularning yozilishini eslab qoling: material, tabiat, shariat, biologiya, million, stadion, radio, ukrain, said, maishat, doim, shoir, oila, teatr, okean, laureat, aerostat, poema.

3-mashq.

Nuqtalar o‘rniga b, p, b, v harflarini to‘g‘ri qo‘yib, so‘zlarni daftarga ko‘chiring.

Kito..., yuzla..., keli..., javo..., hiso..., qi..la, to..la,

4-mashq.

So‘zlarni rus tiliga tarjima qiling va ularning yozilishini eslab qoling.

Manfaat, aorta, matbuot, inshoot, sanoat, muammo, mutolaa.

5-mashq.

Chiziqcha (-) noto‘g‘ri qo‘yilgan so‘zlarni bir ustunga, to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni 2-ustunga ko‘chirib oling.

7 - sinf, 5 - «A» sinfi, 3 -, 7 -, 8 - sinf o‘quvchilari, I-bob, 60 -yillar, 1991-yilning 1-sentabri, XX- asr, X- sinf, 1-qism, II-bo‘lim.

6-mashq.

So‘zlarni qoidaga mos tartibda joylashtirib daftarga ko‘chiring.

Hulkar, Qavs, Mirrix, Andijon, Yangiyo‘l (shaharlar),

Namangan, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig‘atoy (mahallalar), Pomir, Qoratog‘ (tog‘lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Bosh vazirning o‘rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, “Tong”, “Saodat”, “Navro‘z”, “Botanika”, “Tanovor”, “Jasorat”, Dilbar O‘rinova, Muhabbat Majidova, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Navoiy, Furqat, Oybek, Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro‘z bayrami, O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi, “O‘zbekiston Qahramoni” (unvon), “Oltin Yulduz” (medal), “Sog‘lom avlod uchun” (orden), “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” (faxriy unvon).

1. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san‘at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar:

2. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari:

3. Joy nomlari:

4. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli ot:

5. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti:

6. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining xalqaro tashkilotlarning nomidagi so‘zlar:

7. Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi so‘zlar:

8. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi so‘zlar:

9. Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi so‘zlar:

Savol va topshiriqlar:

1. Yozuv nima?

2. O‘zbek xalqi ajdodlari qaysi yozuvlardan foydalangan?

3. Orfografiya nima? Orfografiyaning asosiy imlo qoidalarini ayting.

4. Imlo qoidalari qanday tamoyillar asosida ishlab chiqiladi?

5. Harf va belgining farqini ayting. O‘zbek alifbosida nechta harf va nechta belgi bor?

6. Alifbo nima? Uning ahamiyatini ayting. O‘zbek yozuvining o‘ziga xos xususiyatlarini ayting.

7. Fonetik tamoyil asosida ishlab chiqilgan asosiy imlo qoidalarini va ularni imlo qoidalarining qaysi turiga kirishini ayting.

8. Morfologik tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.

9. Shakliy an'anaviy (tarixiy, an'anaviy) tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
10. Grafik tamoyil nimani belgilab beradi?
11. Bosh harflar qanday hollarda qo'llanadi?
12. Qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar imlosini tushuntiring.

Test

1. Undosh bilan tugagan barcha fe'llarga qaysi qo'shimcha qo'shiladi?

- A. -uv
- B. -iv
- C. -uq
- D. -iq

2. To'g'ri yozilgan so'zni belgilang.

- A. Amakivachcha
- B. Itbachcha
- C. Xolavatcha
- D. Itvatcha

3. To'g'ri yozilgan gapni belgilang.

- A. Ishdan kelmapdi
- B. Isdan kelmabti
- C. Ishdan kelmabdi
- D. Ishdan kelmapti

4. To'g'ri yozilgan so'zlarni toping.

- A. Biologiya, radiyo
- B. Shoir, sayora
- C. Poyema, doim
- D. Oila, okean

5. To'g'ri javobni belgilang.

- A. Vitse-prezident
- B. Vitse prezident
- C. Vitsepezident

6. Chiziqcha (-) bilan to'g'ri yozilgan so'zlarni belgilang.

- A. Sen-chi, yaxshi-yu
- B. Men-gina, qo'shiq-qina
- C. V-asr, rang-barang
- D. 60-yil, I-bob

7. Xato yozilgan qisqartma soʻzni toping.

- A.BMT
- B.ToshDU
- C.BUXDU
- D.BuxDU

1-topshiriq.

Quyida berilgan topishmoqlarning javobini toping: Oy, jiyda, oy va yulduz, egar, quyosh-oy-yulduz, yer, soya, xoʻroz.

Bir parcha patir, Olamga tatir. Bitta otasi, bitta onasi, Necha mingta bolasi.	Onasi bitta, Bolasi mingta. Bir qop un, ichida ustun.
Zar gilam, zar-zar gilam,	Oʻtga tushsa yonmas,
Koʻtaray desam, ogʻir gilam.	Suvga tushsa oqmas.
Boshi taroq, Dumi oʻroq.	Otdan baland, Itdan past.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Poʻlatova X. Oʻzbek tili (oliy taʼlim muassasalari rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: Oʻqituvchi, 2012. – 288 b.
2. Normatova Sh., Abdurahmonova M. Oʻzbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
3. Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G. Oʻzbek tili (oliy oʻquv yurtlarining iqtisodiy taʼlim yoʻnalishlari talabalariga uchun oʻquv qoʻllanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.
4. Husanov N., Xoʻjaqulova R., Dilmurodova N. Oʻzbek tili (oʻquv qoʻllanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

Qoʻshimcha adabiyotlar:

5. Mirziyoyev Sh. M. “Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2016. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.–448 b.

MAVZU: MILLIY QADRIYATLAR – MILLAT IFTIXORI

Reja:

1. Milliy-ma'naviy qadriyatlar.
2. Milliy urf-odat va marosimlar.



“Qadriyat tushunchasi – juda keng tushuncha. Uning bir qismi ma’naviy qadriyatlardir. Milliy-ma’naviy qadriyatlar “milliylik”, “ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o‘z ichiga oladi. “Milliy-ma’naviy qadriyatlar” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “Muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo‘lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma’naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, me’yorlar milliy-ma’naviy qadriyatlardir. Har bir xalqning o‘zi uchun e’zozli, qimmatli bo‘lgan ma’naviy boyliklari bo‘ladi. Bular asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelgan, hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyati va qadrini yo‘qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, qirg‘iz xalqi “Manas” dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalari, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o‘zbeklar Samarqand-u Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Millat va

elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlar ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi. Milliy-ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusi aks etadi. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi. Milliy-ma'naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya – jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va istiqloq g'oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi. O'zbekiston istiqloqlining asoschisi Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab taraqqiyotning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini belgilovchi milliy-ma'naviy qadriyatlar masalasiga juda katta e'tibor qaratildi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishning ilmiy-nazariy, fundamental konsepsiyasi ishlab chiqildi. Milliy o'zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish, o'z xalqining tarixi, madaniy merosini o'rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan bo'ladi. Milliy-ma'naviy qadriyatlar ko'p asrlik tarixga ega. O'zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yoki urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo'lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Misol uchun, «Avesto»ni olaylik. Bundan 2700 yil muqaddam o'n

ikki ming mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan bu asar paydo bo'lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o'tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to'planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, xattotlik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o'z qimmatini yo'qotmadi. Davrlar o'tishi bilan milliy-ma'naviy qadriyatlar ham o'zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bunga kundalik hayotimizdan, turmush tarzi, kiyinish, ovqatlanish, to'y-hashamlarni o'tkazish va boshqalardan ko'plab misollar keltirish mumkin. Insoniyatning oxirgi yarim ming yillik umri davomida jahon bozori paydo bo'ldi, iqtisodiyot va madaniyatlarning o'zaro ta'siri kuchaydi. XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo'ladigan ta'sir beqiyos darajada zo'raydi. Bu ta'sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi.



Milliy-ma'naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy

qadriyatlar munosib o‘rin egallaydi va milliy o‘zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Lug‘at ishi

Iftixor	–	гордость
Durdona	–	жемчужина
Marosim	–	церемония
Tafakkur	–	мышление
Rasm-rusumlar	–	обычай
Illat	–	недуг, болезнь
Yodgorliklar	–	памятники
An‘ana	–	традиция

1-mashq.

Quyidagi so‘zlardan foydalanib, mikromatn tuzing.

Millat, qadriyat, ma‘naviyat, iftixor, boylik, tarqqiyot, udumlar, yodgorliklar, marosimlar, ajdodlar.

2-mashq.

Matndan olingan ushbu parchani rus tiliga tarjima qiling.

O‘zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yoki urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo‘lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko‘rsatadi. Misol uchun, “Avesto”ni olaylik. Bundan 2700 yil muqaddam o‘n ikki ming mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan bu asar paydo bo‘lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o‘tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to‘planganligi, shubhasiz.

3-mashq.

Matnni daftarga ko‘chiring va nuqtalar o‘rniga mos harflarni qo‘ying.

Bu asar ..ksak madaniy hayot, falsafa va fan, xa..otlik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o‘z qi..atini yo‘qotmadi. Davrlar o‘tishi bilan mi..iy-ma‘naviy qadriyatlar ham o‘zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ru..iga va tara..iyot talablariga mos kelmay qolgan me‘yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasa..ur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bunga kundalik hayotimizdan, turmush tarzi, kiyinish, ovqatlanish, to‘y-..ashamlarni o‘tkazish va boshqalardan ko‘plab misollar keltirish mumk..n.

Savol va topshiriqlar:

1. Milliy qadriyatlar qanday tushuncha?
2. Milliy-ma'naviy meros qanday meros?
3. "Qadriyat" tushunchasi qanday tushuncha?
4. Milliy bayramlarni bilasizmi?
5. Qanday milliy marosimlarimiz mavjud?
6. Mustaqillikkacha bo'lgan bayramlar?

Test

1. "Manas" dostoni qaysi millat faxri?

- A. O'zbek
- B. Qozoq
- C. Qirg'iz
- D. Tojik

2. "Luvr" saroyi qaysi davlatda joylashgan?

- A. Fransiyada
- B. Italiyada
- C. Germaniyada
- D. Misrda

3. Kun va tun tenglashgan sana?

- A. 8-mart
- B. 28-fevral
- C. 21-mart
- D. 31-dekabr

4. Qurbon hayiti munosabati bilan O'zbekistondan ilk bor necha kishi va qaysi yilda Makka va Madinaga haj safariga borishgan?

- A. 1991-yilda 550 kishi
- B. 1990-yilda 500 kishi
- C. 1992-yilda 600 kishi
- D. 1993-yilda 1000 kishi

1-topshiriq.

Quyidagi hadislarni tahlil qiling va eslab qoling.

1. Nonni e'zozlang.
2. Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil.
3. Barcha balo tildandir.
4. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar.
5. Shunda o'rtalaringda mehr-u muhabbat uyg'onur.
6. Ayollarga erkaklar o'z tug'ishgan opa-singillari kabi munosabatda bo'lishlari kerak.
7. Uyiga mehmon qo'nmaydiganlar yomon odamlardir.
8. Chaqirilgan joygagina boring.

9.Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir. 10.Aroqdan saqlaninglar, chunki u barcha yomonliklarning kalitidir. 11.Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do'zaxga mahkumdur.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

- 1.Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.
- 2.Normatova Sh., Abdurahmonova M. O'zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
- 3.Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.
- 4.Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Mirziyoyev Sh. M. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”.– Toshkent: O'zbekiston, 2017.–448 b.

MAVZU: O'ZBEK TILIDA SO'Z YASALISHI

Reja:

1. So'z yasalishi usullari.
2. Affiksoidlar.

Tilda mavjud bo'lgan so'z yoki so'zlar, so'z shakllar negizida ma'lum usullar bilan yangi ma'nodagi so'zlarni hosil qilish so'z yasalishi deyiladi. O'zbek tilida so'z yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, fonetik, semantik, abbreviatsiya kabi usullari bo'lib, shulardan affiksatsiya va kompozitsiya usullari asosiy va yetakchi usullar hisoblanadi.

So'zga so'z yasovchi affiks qo'shish bilan yangi so'z hosil qilish **affiksatsiya usuli** deyiladi.

So'z yasovchi affikslar o'zbek tilida, asosan, suffiks tarzida

qo‘llanib, so‘z o‘zagidan so‘ng qo‘shilib keladi. Ba‘zan bunday affikslar o‘zak oldiga prefiks tarzida qo‘shilib, yangi ma‘nodagi so‘z yasashi mumkin.

Birdan ortiq mustaqil ma‘noli so‘z yoki so‘z shakllarining qo‘shiluvi, birikuvi orqali yangi so‘z yasash **kompozitsiya usuli** bilan so‘z yasash deyiladi. Bu usul bilan qo‘shma, ayrim juft so‘zlar hosil qilinadi.

Fonetik usulga ko‘ra, so‘zda fonetik o‘zgarish yuz berib, yangi so‘z hosil qilinadi. Chunonchi, so‘z urg‘usining o‘rmini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so‘z turkumiga doir so‘zlar hosil bo‘lishi mumkin: yo‘zma – fe‘l, yozma’ – sifat, su‘zma – fe‘l, suzma’ – ot, fi‘zik – ot, fizi‘k – sifat, akade‘mik – ot, akademi‘k – sifat va b.

Semantik usulga binoan, so‘z ma‘nosida o‘zgarish ro‘y berib, ma‘nosi boshqa-boshqa, shaklan o‘xshash yangi so‘z hosil bo‘ladi: kun – sutkaning yorug‘ qismi, kun – quyosh, planeta; ko‘k – osmon, ko‘k – havorangga o‘xshash rang, bir – son, birga, birdan, birda – ravish.

Fonetik va semantik usul hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan nafaol tarixiy so‘z yasash usullari deb qaraladi.

Abbreviatsiya usuliga ko‘ra, bir butun holda qo‘llanadigan to‘g‘ri ma‘noli turg‘un birikmalarning qismlari har xil yo‘l bilan qisqartirilib so‘z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo‘lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi: BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH – Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, ATS – Avtomatik telefon stansiyasi, filfak – filologiya fakulteti, akademitsey – akademik litsey, peduniversitet – pedagogika universiteti va b.

Lug‘at ishi

Negiz	–	основа
Usul	–	метод
Qo‘shma	–	объединенный, соединение
Juft	–	пара
Qisqartma	–	сокращенный

1-mashq.

So‘z o‘zagidan oldin kelgan so‘zlarni alohida va keyin kelgan so‘zlarni alohida daftaringizga ko‘chiring.

Paxtakor, sinfdosh, quvonch, do'stlik, ochiq, tirishqoq, serjilo, ilmiy, o'yla, kengay, shodlan, tinch, tasodifan, oqilona, ko'pincha, serhosil, serunum, badavlat, ba'mani, beminnat, beg'araz, noo'rin, nohaq, badfe'l, badbashara.

2-mashq.

Xona, noma, obod kabi so'z-affikslar (affiksoidlar) ishtirokida so'zlar hosil qiling va gap tuzing.

Namuna: ishxona...

3-mashq.

Kompozitsiya usulidagi so'zlar bilan gaplar tuzing va ularni rus tiliga tarjima qiling: guldasta, gultojixo'roz, asalari, tomorqa, xushfe'l, rahmdil, olijanob, hozirjavob, havo rang, e'lon qilmoq, rad etmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, yonma-yon, ketma-ket.

Namuna: Gultojixo'roz eng antiqa gul – Петушинные гребешки (целозия) – самый редкий цветок.

4-mashq.

Ushbu so'zlar bilan gaplar tuzing: yo'zma – fe'l, yozma' – sifat, su'zma – fe'l, suzma' – ot, fi'zik – ot, fizi'k – sifat, akade'mik – ot, akademi'k – sifat.

5-mashq.

Ushbu so'zlar bilan gaplar tuzing: kun – sutkaning yorug' qismi, kun - quyosh, planeta; ko'k – osmon, ko'k - havorangga o'xshash rang, bir – son, birga, birdan, birda – ravish.

6-mashq.

Quyidagi hadislarni o'qing va tahlil qiling. Affiksatsiya usuldagi so'zlarni aniqlang.

1. Ishni puxta va chiroyli bajaruvchi odamni Tangri do'st tutadi.
2. Uch kundan ortiq arazlashib yurish islomda yo'q.
3. O'lib ketganlarni yomonlab haqorat qilmanglar, chunki ular qilmishlariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan joyga ketganlar.
4. Uylaringizdagi yonib turgan o'tni o'chirmasdan uyquga ketmanglar!
5. O'q otish mashqida jonli narsani nishon qilib qo'ymanglar!
6. Kimki birovga yomonlik qilsa, shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi.
7. Rahm qilmaganga rahm qilinmaydi, kechirmaganni kechirilmaydi va birovning uzrini qabul qilmaganning tavbasi ham qabul qilinmaydi.
8. Biror kasb-u hunar orqasidan rizq-u nasibaga ega bo'lib yashayotgan odam, shu kasbni beuzr o'zgartirmasin!
9. Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, unga qanday yaxshi! Tangri

uning umrini uzaytiradi. 10. Kimki birovning yozayotgan yoki kelgan xatini beruxsat o'qishga intilsa, go'yoki u do'zaxga intilgan bo'ladi.

7-mashq.

So'zlarni tartib bilan qo'yib, gaplar tuzing. So'z yasalishi jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlarni aniqling.

1. Talabalar, jo'nab ketishdi, bugun, yordam berishga, paxtakorlarga. 2. Singlisiga, Asror, sotib oldi, bir quti qalam, bir rasm daftar. 3. Bo'lmadi, o'tgan yil, qishda, sovuq, qattiq. 4. Cho'mildik, yozda, suv omborida, Kattaqo'rg'on. 5. Olindi, bu yil, paxtadan, mo'l hosil. 6. Ikkita, gilam, biz, sotib oldik, chiroyli. 7. Singlisi, Javohirning, Madina, qiz, aqlli va kamtarin. 8. O'tadi, oqib, O'zbekistondan, daryo, ikkita, katta. 9. Ertalab, turasiz, har kuni, siz, soat nechada, uyqudan? 10. Universitetni, bitirgani, akam, yo'q, hali.

Test

1. Tub so'zlarni belgilang.

- A. Inson, xalq, gulzor
- B. Suv, non, havo
- C. Yaxshi, ziyrak, sezgir
- D. Xursand, besh, zavqli

2. Yasama so'zlarni belgilang.

- A. Tinchlik, bog'bon, sohibjamol
- B. Yaxshi, inson, suv
- C. Non, bilakuzuk, besh
- D. Xalq, sofdil, o'n

3. Affiksatsiya usuli orqali hosil bo'lgan so'zlarni belgilang.

- A. Guldasta, sinfdosh
- B. Paxtakor, do'stlik, serjilo
- C. Noo'rin, quvonch
- D. Tirishqoq, tomorqa

4. Affiksoidlilar orqali hosil bo'lgan so'zlarni belgilang.

- A. Ishxona, gultojoxo'roz
- B. Rahmdil, tabriknoma
- C. Mehmonxona, taklifnoma, Yangiobod
- D. Xalqobod, Oqtepa

5. Abbreviatsiya usuli qaysi tildan kirib kelgan?

- A. Ingliz
- B. Rus

C.Arab

D.Fors

6. **-man, -san, -dir** ismlarning qaysi shakllariga kiradi?

A. Soʻz yasovchilar

B. Sintaktik shakllar

C. Lugʻaviy shakllar

D. Munosabat shakllari

7. **Oʻzbek tilida nechta kelishik mavjud?**

A. 5ta

B. 6ta

C. 7ta

D. 4ta

8. **Nuqtalar oʻrniga qaysi munosabat shaklini yasovchi qoʻshimchalarni qoʻyish mumkin? Yolgʻon aytgan kishi.... xatar... bor ishi...**

A. –ning, -i, -ning

B. –ning, -ga, -da

C. –ng, -i, -si

D. B va C.

Savol va topshiriqlar:

1. Oʻzbek tilida soʻzlar qanday usullar bilan yasaladi?

2. Abbreviatsiya usuli qanday usul?

3. Fonetik usul qanday usul?

1-topshiriq.

Berilgan soʻzlarning morfemik tuzilishini va yasaliş tuzilishini yozing.

Sanoqsiz, chidamlilik, oʻynoqi, qiyinchilik, toʻplam, suyoqchilik, chiroyliroq, gulchi, sinfdosh, toʻshak, mardlarcha, uyalgannamo, traktorchi, ekinzorlarga, dalalardan, tinchliksevar, ekinzor, kompyuterchi, gallachilik, serquyosh.

2-topshiriq .

Berilgan soʻzlardan kompozitsiya va sintaktik usuliga kiradigan soʻzlarni aniqlang.

Chin doʻst, suvli, ekskvatorchi, toshbaqa, yigirma bir, soʻzlar, bodomqovoq, doʻstlik, ishlab chiqarish, otboqar, kitobchi, har kim, mana bu, ajdodlarimiz, qabul qil, oʻymakor, yigʻla, u yerda, bugʻdoyrang, karnaygul, telefonchi, gapir, xizmat qil, tasdiq qil, shu tobda.

3-topshiriq.

Matnni oʻqing va rus tiliga tarjima qiling.

Hashar – sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri

bo‘lib, qadimdan o‘zbek xalqi hayotida muhim o‘rin tutib kelgan. Hashar—bu ko‘pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda birgalashib harakat qilishidir. Qadim zamonlarda ota-bobolar qishloqlarda xo‘jalik ishlarini ko‘p hollarda hashar yo‘li bilan bitirib olishgan. Ko‘milgan toklarni ochish, kesish, tarash, xashak-somon to‘plash, bog‘ hosilini yig‘ib-terib olish, kanallar boshlab kelish, ariqni qish arafasida kovlab tozalash kabi og‘ir ishlarning hammasi hashar yo‘li bilan bajarilgan.

4-topshiriq.

She‘rni o‘qing. So‘z yasalishi tizimi va so‘z yasalish usullarini aniqlang.

ADABIYOT O‘LMAYDI

Adabiyot o‘lmaydi,
Adabiyot boqiydir.
“O‘tgan kuning”, o‘tmagan
Ming asrga tatiydir.

Adabiyot yashaydi,
Oydan so‘rab Cho‘lponin.
Ketib qaytib kelmagan,
Tog‘dan izlab Usmonin.

Navoiyning “Xamsa”si,
Turk-u, kurdning tilida.
“Boburnoma” o‘qilar,
Afg‘on, hindning tilida.

Erkin Vohid “Nido”si,
Ko‘klarga borib yetdi.
O‘tkir Hoshim so‘zlari,
Ming bir dilni zabt etdi.

Abdulla Orif so‘zi,
Madhiyaga aylandi.
Muhammad Yusuf she‘ri,
Yuraklarga joylandi.

Adabiyot o‘lmaydi,
“Sariq devini minib”.
Adabiyotga ketgan,
Zulfiyasi zeb berib.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. “Adolat, vatan va xalq manfaati har narsadan ulug‘”. – T.: O‘zbekiston, 1998. -B. 59.
2. A.Aliyev., Q.Sodiqov. O‘zbek adabiy tili tarixidan. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.-118.
3. A.Hojiyev. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi –Toshkent, 2007. 167 bet.
4. A.Hojiyev. O‘zbek tilining morfem lug‘ati. –Toshkent, 1992, 225 bet.
5. A.Hojiyev. O‘zbek tilida so‘zning morfologik tarkibi masalasi. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. №1. 1988. –B.29-33.
6. A.Berdialiyev. O‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shma affikslar. Filol. fanlari nomzod. diss. avtoref. –Toshkent, 1970. –B.12.
7. B.To‘ychiboyev. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. Toshkent, 1996, 176 bet.
8. Azizov O. va b. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. - Toshkent.: O‘qituvchi, 2007.
9. Shodmonov E., Rafiyev A. O‘zbek tili. Darslik. -Toshkent.: O‘zbekiston. 1995.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

10. Nazarov K., Sayfullayev R., Ubaydullayeva M. O‘zbek tili (Ixtisoslik grammatikasi). – Toshkent. O‘qituvchi, 1993.
11. Muhitdinova X.S., Salimova Z., Po‘latova X. O‘zbek tili, Toshkent.: O‘qituvchi. 2006.
12. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. – Ташкент: Укитувчи, 1966.
13. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhleri uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.
14. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.

15. Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.

16. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

MAVZU: TARIX VA ZAMONAMIZ

O'zlikni anglash - tarixdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir.

ISLOM KARIMOV

Reja:

1. Tarix – o'tmish oynasi.
2. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.
3. O'tmishni o'rganish – burch.

Tarixiy xotira–g'urur va iftixor hissining zaminlaridan biri. Millat va elatlar asta-sekin, tarixan tashkil topadilar. Bu jarayon, vaziyatga qarab, bir necha o'n yildan boshlab bir necha asrgacha cho'zilishi mumkin. Ana shunday uzoq davr ularga o'zlarini anglash, tilini, madaniyatini, ma'naviyat, ma'rifat, an'analar, urf-odatlar va rasm-rusumlarni butun bir o'zaro bog'langan tizim holiga keltirish uchun kerak. Demak, xalqning shakllanishi, ayni vaqtda xalq tomonidan o'z o'tmishini, tarixini, ajdodlarining mehnati, qahramonligi, ma'naviyat va madaniyatining barcha yo'nalishlari, tarmoqlari, xilma-xilligini hamda o'ziga xosligini o'rganish, ularga ishlov berib, shu jarayonda takomillanishdir. Tarixiy xotira xalqning o'z o'tmishini bilishi, bu o'tmishni tahlil qilish, undagi bo'lib o'tgan voqealar va hodisalarning asl mohiyati va tarixdagi o'rini asoslab berishni talab qiladi. Xalqning tarixiy xotirasi qanchalik boy, mazmunli va uzviy bog'langan bo'lsa, bu xalq shunchalik uyushgan, tadbirkor, harakatchan, hamjihat bo'ladi.

Tarixiy xotiramiz hozirgi vaziyatda katta amaliy ahamiyatga egadir. U davlatimizning, xalqimizning manfaatlariga xizmat qilishi lozim. Insoniyat uzoq asrlar davomida erishgan sivilizatsiya, moddiy va ma'naviy madaniyatning bugungi darajasi jahon xalqlari qobiliyati, zehni, tadbirkorligi, matonati, tinimsiz mehnatining mahsulidir. Tarix

odamzodning hayot uchun kurashini, bu jarayonda uning takomillashuvini, yuksalishini, kamolotga intilishini aks ettiruvchi xotira daftaridir. Demak, jahon tarixining tarkibiy qismi bo'lgan Vatanimiz o'tmishi ajdodlarimiz turmush tarzi, ma'naviy-ruhiy kechinmalari, sodir bo'lgan voqea-hodisalar haqidagi fandır. Tarix ajdodlarning keyingi avlodlarga qoldirgan noyob merosi, xalqimizning intellektual mulkidir.

Xalqimizning uch ming yillik boy tarixi keyingi yuz-yuz ellik yil davomida bir taraflama yoritildi, uning talaygina yorqin sahifalari e'tiborga olinmadi yoki qasddan soxtalashtirildi. Xalqimiz turli tazyiqlar ostida o'z urf-odati, madaniyati, an'alarini unuta boshladi, ayrim kishilarda, hatto, manqurtlik belgilari paydo bo'ldi. Bu xavfli jarayon sho'rolarning totalitar tizimi davrida kuchaydi. Mahalliy aholi bunday mensimaslikdan o'ksidi, ziyolilarimiz ko'ngli o'ta g'ash bo'ldi, iztirob chekdi. Bu sharoitda o'lkamiz rahbarlari Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov xalqimiz ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolishga intildilar. Lekin ular ham 1937-1938-yilgi siyosiy qatag'on qurbonlari bo'ladilar.

Istiqlol tufayli Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov sa'yi-harakatlari bilan O'zbekiston tarixini o'rganishga e'tibor keskin o'zgardi. Prezident tarixchi olimlarga murojaat qilib, haqqoniy tariximizni tiklashga, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishga chaqirdi. O'quv yurtlarida Vatanimiz tarixi keng va chuqur o'rganilishiga imkoniyat tug'ildi, yoshlarimizda haqiqiy tarixiy ongni shakllantirish uchun zarur sharoit yaratildi. Yurtga hurmat uning o'tmishini o'rganish va bilishga bog'liqligi yana bir bor isbot etildi. O'tmishni o'rganish, uni idrok etish, tarix saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqara bilish har bir ma'rifatli inson burchidir. Moziyni tahlil eta bilish kishiga bugunni baholash, anglash, kelajakka ziyraklik bilan nazar tashlash imkonini beradi. Tarixiy tafakkur bugun ongli faoliyat ko'rsatishning muhim omillaridan biridir. Shuning uchun ham haqiqiy insonga tarixiy xotira zarur. Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan ma'nodor ibora mazmunini mahorat bilan yoritib bergan edilar. Jahonning bir qancha nufuzli davlatlarida fuqarolik huquqini olmoqchi bo'lgan har bir kishi davlat tili, mamlakat konstitutsiyasi va tarixini o'zlashtirish bo'yicha davlat imtihoni topshirishi shart ekan. Zero, o'z tarixini bilgan kishigina mamlakat fuqarosi, deb hisoblanadi. Bunday udum ko'pgina mamlakatlarda tan olinib, u xalqaro huquq

amaliyoti bo‘lib bormoqda. Bu holat ham tarixning tarbiyaviy kuchi va murabbiylik mohiyatidan dalolatdir.

Fanlar Akademiyasining Arxeologiya, Tarix hamda Sharqshunoslik institutlarining olimlari, o‘quv yurtlaridagi fidoiy o‘qituvchilar tariximizni ilmiy asosda yaratish borasida talaygina ishlarni amalga oshirdilar. Avvalo, mavjud manbalarni qayta va teran o‘rganish yo‘lga qo‘yildi, yangi manbalar izlandi, topildi.

Islom Karimov aytganlaridek, “Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo‘lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz, xalqimiz Xorazm zaminida “Avesto” paydo bo‘lgan zamonlardan buyon o‘z hayoti, o‘z madaniyati, o‘z tarixi bilan yashab keladi”.

Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori kengash ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni yangi pog‘onaga ko‘tarish hamda bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir. Qarorda Jamoatchilik kengashi oldiga O‘zbekistonning eng yangi tarixini tizimli, haqqoniy va xolis tarzda o‘rganishni tashkil etish, yangi avlod ilmiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish hamda mamlakatimizning dunyodagi o‘rni va rolini ko‘rsatishga qaratilgan qator vazifalar qo‘yilgan. Mazkur hujjatda ko‘rsatilgan vazifalarni bir-birini to‘ldiruvchi ikki yo‘l orqali ro‘yobga chiqarish lozim. Birinchi yo‘l – yangi avlod ilmiy va o‘quv adabiyotlarini yaratish. Ikkinchi yo‘l – mavjud bilimlarni yoshlarga targ‘ib etish va o‘qitish. O‘zbekistonning eng yangi tarixi haqida so‘z yuritilganda, biz uchun, avvalo, mamlakatimizning 1991-yildan keyin bosib o‘tgan tarixiy yo‘li mohiyati va mazmunini anglab yetish muhimdir. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim.

Lug‘at ishi

Xotira	–	память
G‘urur	–	задор
Iftixor	–	гордость
Davr	–	эпоха,эра
O‘tmish	–	прошлое
Insoniyat	–	человечество

Ajdodlar	–	предки
Avlodlar	–	поколения
Tazyiq	–	давление
Sho‘ro	–	совет

1-mashq.

Matnni oqing va rus tiliga tarjima qiling.

O‘zbekistonning keyingi rahbarlari va ayrim ziyolilar “Otang yaxshi, onang yaxshi” qabilasida ish olib borishga majbur bo‘ladilar va shu alfozda respublika manfaatlarini imkon boricha yoqlaydilar. Lekin II jahon urushi tugagach sho‘rolarning qatag‘onlik siyosati qayta kuchaydi. Xususan, Shukrullo (uning “Kafansiz ko‘milganlar” asarini eslaylik), Saida Zunnunova kabi adiblar taqdiri ham ko‘rsatib turibdi. Yoki Abdulla Qahhorning “Men partiyaning yugurdagi emasman, men xalq xizmatkoriman” iborasi, Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qissasi jasorat timsoli edi.

2-mashq.

Matnni daftarga ko‘chiring va nuqtalar o‘rniga mos keladigan harflarni qo‘ying.

Ko‘p insonlar tajribasidan m...lumki, o‘z tarixini bilish o‘zga xalqlar o‘tmishiga, ularning turm...sh tarziga, madaniyatiga, urf-u odati, qarashlariga hurmat bilan yond...shish imkoniyatini beradi. O‘tmishni o‘rganishda tarixiy ta...lilni ilmiy ji...atdan xolisona va halol amalga oshirish asosiy vazifadir, deb ta...kidlaydilar Islom Karimov. Mamlakatimizda uzoq asrlar davomida pin...on bo‘lgan tariximizni sinchiklab o‘rganish, xoli...ona tiklash keng yo‘lga qo‘yildi.

Arxe...loglarning yangi topilmalari ham tari...imizni o‘rganishda muhim o‘rin tutmoqda. Tadqiqo...chilarning bu boradagi harakatlari qadimiy tariximizni to‘laroq yoritishga yordam bermoqda.

Test

1. “Zafarnoma” tarixiy asarining muallifi kim?

- A. Alisher Navoiy
- B. Sharafiddin Ali Yazdiy
- C. Mirxond
- D. Hofiz Tanish Buxoriy

2. “Ravzat us-safo” nomli tariximiz haqidagi asarning muallifi

kim?

- A.Mirxond
- B.Muhammad Yusuf Munshiy
- C.Zahiriddin Muhammad Bobur
- D. Amir Temur

3. **“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo saodat, yo halokat masalasidir” Ushbu so‘zlar kimga tegishli?**

- A.Abdulla Qodiriy
- B. Abdurauf Fitrat
- C.Abdulla Avloniy
- D. Abdulla Oripov

4. **“Bizning qudratimizni ko‘rmoqchi bo‘lsang, biz qurdirgan binolarga boq” so‘zlari kimga tegishli?**

- A.Amir Temur
- B. Islom Karimov
- C.Shavkat Mirziyoyev
- D.Alisher Navoiy

5. **“Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarining muallifi?**

- A.Amir Temur
- B. Islom Karimov
- C.Shavkat Mirziyoyev
- D.Alisher Navoiy

Savol va topshiriqlar:

- 1.Tarix nima?
2. Mustaqillikkacha tariximiz qanday o‘rganilgan?
3. Tarix haqida I.A.Karimovning qanday asari mavjud?
4. Ma’naviy qadriyatlarimizni saqlab qolishga katta hissa qo‘shgan yurtdoshlarimizdan kimlarni bilasiz?
5. O‘zbekiston tarixi qachondan keng o‘rganila boshlandi?
6. Tariximizni kimlar ilmiy jihatdan o‘rgangan?
7. Qaysi qarorda O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish masalalari belgilangan?

1-topshiriq.

“Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” mavzusida insho yozing.

2-topshiriq.

Biror tarixiy hikoyani ifodali o‘qing, tarixiy so‘zlarning

ma'nosini izohlang. Ko'rgan tarixiy joyingiz, muzeyingiz haqida gapirib bering. Hozirgi kunda tarixiy obidalarga qanday e'tibor berilyapti? Shu haqda maqola yozing.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T.:Sharq, 1998-yil.
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" 2008-yil.
3. I.A.Karimov. "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak" 1999-yil.
4. I.A.Karimov. "Barkamol avlod orzusi" 2000-yil.
5. I.A.Karimov. "El xizmatida" 2008-yil.
6. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.
7. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O'zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
8. Русча-ўзбекча луғат (2 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013.

MAVZU: TILNING LEKSIK QATLAMLARI

Reja:

1. Leksika haqida ma'lumot.
2. Leksik qatlamlarning shakllanishi va rivojlanishi.
3. So'zlaning tarixiy-funksional xususiyatiga ko'ra turlari.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. O'z qatlam.
2. O'zlashgan qatlam.

O'z qatlam. O'z qatlamga umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar kiradi.

1. Umumturkiy so'zlar. Ko'pchilik turkum xalqlar tilida qo'llanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar umumturkiy so'zlar deyiladi. Bu so'zlar turkiy qabilalarning goh qo'shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub so'zlardir.

Umumturkiy so'zlar hozirgi o'zbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi. Umumturkiy so'zlar turli

sohalarga oid bo'lib, ularga narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat, his-tuyg'u bildiradigan so'zlar kiradi: kishi, oyoq, qo'l, bosh, ko'z, qosh, qizil, ko'k, yashil, oq, bir, ikki, uch, to'rt, o'n, kel, tur, yot, o'tir, ol, ur, yaxshi, yomon, sen, u, biz, siz, ular, asta, sekin, tez kabi.

2. O'zbekcha so'zlar. O'zbek tili sharoitida o'zbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan so'zlar o'zbekcha so'zlar deyiladi. O'zbekcha so'zlar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari asosida, o'z qonuniyatlari asosida yaratiladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Asli o'zbekcha so'zlarga shu tildagi so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil qilingan so'zlar: ter+im+chi, bir+lash+ma, qo'l+lan+ma, o't+kaz+gich, tur+g'un, bola+larcha.

2. Boshqa tildan o'zlashgan so'zlarga o'zbek tilidagi yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan yasalgan so'zlar: a) tojikcha so'zlardan yasalgan so'zlar: mard+lik, jang+chi, do'st+lik, pul+siz; b) arabcha so'zlardan yasalgan so'zlar: rahbar+lik, qimmat+li, shifo+la+moq, nifoq+chi, nomus+li; v) ruscha-internatsional so'zlardan yasalgan so'zlar: sport+chi, razvedka+chi, beton+la+moq, ekskavator+chi.

3. Boshqa tillardan kirgan yasovchi qo'shimchalar yordamida o'z va o'zlashma so'zlardan hosil qilingan so'zlar: til+shunos, mehnat+kash, chizma+kash, kitob+xon, ilm+iy, vagon+soz va boshqalar.

O'zlashgan qatlam. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibiga tarixiy sabablarga ko'ra boshqa tillardan ko'plab so'zlar kirib kelgan. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'zlashgan so'zlar (olinma so'zlar) deb yuritiladi. O'zlashgan so'zlar uyg'ur, tojik, arab, rus, nemis, frantsuz, ispan, ingliz va boshqa tillarga oid.

O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni quyidagi qatlamlarga bo'lish mumkin:

1. Tojikcha so'zlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, mirob, dasta, bemor, g'isht, dasht, xonadon, shogird, haridor, mard, kam, chala, balki, agar, ham kabi.

2. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arabcha so'zlar o'zbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan bog'liq. Kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, kasb, qassob, san'at, asbob, bino, imorat, ovqat, g'alla, fil, parranda, hasharot, inson, odam, oila, amma, xolla, dimog', idora kabi.

3. Ruscha-internatsional so'zlar. XIX asrning 2-yarmidan

Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston chor Rossiyasining mustamlaka mamlakatiga aylandi. Rus tilining o'zbek tiliga ta'siri shu davrdan boshlandi. Rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan ko'plab so'zlar o'zlashdi.

Rus tilidan so'zlar ikki yo'l bilan o'zlashdi:

1. Rus ishchilari, ustalari, rus askarlari, chinovniklarining mahalliy aholi bilan turli xildagi aloqalari bilan og'zaki nutq orqali: chilon (chlen), adbakat (advokat), apisor (ofitser), iskalat (sklad), axran (oxrana), choynay (choynak) kabi.

2. Matbuot orqali: ayrapilan (aeroplan), pabrik (fabrika), po'shta (pochta), zovut (zavod), uez (uezd), kridit (kredit), banka (bank), veksel (veksel) kabi.

Rus tili orqali kirgan so'zlarning ba'zilari dunyodagi ko'pgina xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli o'zgartirilmay ishlatiladigan xalqaro so'zlardir. Ular odatda, internatsional (baynalminal) so'zlar deb yuritiladi. O'zbek tiliga o'zlashgan internatsional so'zlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansub:

1. Rus tiliga: sudya, samolyot, stol, stul, tok, ruchka kabi.

2. Lotin tiliga: reviziya, nota, metall, refleks, rezina, general, kapital, kanal, plan, direktor, radio kabi.

3. Grek tiliga: grammatika, pedagog, talant, tezis, kafedra, poeziya, poema, metr, neft, taktika, parallel kabi.

4. Nemis tiliga: raketa, kran, shaxta, rolik, politsiya kabi.

5. Ingliz tiliga: chempion, futbol, dollar kabi.

6. Fransuz tiliga: roman, palto, serjant, ministr, bank kabi.

So'zlar tarixiy-funksional xususiyatiga ko'ra faol va nofaol so'zlarga ajraladi. Faol so'zlar adabiy tilning zamonaviy me'yoriga xos so'zlari bo'lib, ular kundalik aloqada eng ko'p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Nofaol so'zlar qatlami esa quyidagi uch turga bo'linadi: 1) tarixiy so'zlar (istorizmlar), 2) eskirgan so'zlar (arxaizmlar), 3) yangi so'zlar (neologizmlar).

1. Tarixiy so'zlar (istorizmlar). O'tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi tilimizda o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlardir. Masalan: *miri, paqir, (pul birliklari) qozi, qushbegi, yasovul, xalifa (mansab nomlari), omoch, yorg'ichoq, charx* kabilar.

2. Eskirgan so'zlarm (arxaizmlar). Hozirgi kunda mavjud bo'lgan narsa va hodisalarning eskirib qolgan nomlaridir. Eskirgan so'zlarning hozirgi tilda sinonimi mavjud bo'ladi.

Masalan: *budun, ulus, raiyat – xalq; handasa - geometriya; muarrix – tarixchi; dudoq – lab; lang - cho‘loq, oqsoq.*

3. Yangi so‘zlar (neologizmlar). Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va o‘zgarishlar natijasida vujudga kelgan narsa-hodisalarning yangi nomlaridir. Masalan, O‘zbekiston mustaqil bo‘lgandan so‘ng tilimizda paydo bo‘lgan *faxriy - veteran, noib - deputat, tuman - rayon, tayyora - samolyot* kabi so‘zlar yangi so‘zlardir. Yangi so‘zlarning nafaol so‘zlar qatoridan o‘rin egallashi sababi shundaki, ular paydo bo‘lgandan keng iste’moldagi so‘zlar singari barchaning nutqida birdek ishlatilavermaydi. Biroq vaqtlar o‘tishi bilan yangi so‘zlar ham keng iste’moldagi so‘zlar qatoridan o‘rin egallashi mumkin.

Lug‘at ishi

Qatlam	–	слой
Qabila	–	племя
Soha	–	область, сфера
O‘zlashgan	–	заимствован
Mustamlaka	–	колония
Matbuot	–	печать (пресса)

1-mashq.

Quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularni qaysi qatlamga tegishli ekanligini toping. *Budun, ulus, raiyat – xalq; handasa - geometriya; muarrix –tarixchi; dudoq – lab; lang - cho‘loq, oqsoq.*

2-mashq.

Quyidagi so‘zlar ishtirokida rus va o‘zbek tilida gaplar tuzing va ularni qaysi qatlamga tegishli ekanligini toping. *Faxriy - veteran, noib - deputat, tuman - rayon, tayyora – samolyot*

3-mashq.

Ushbu so‘zlarning ma’nosini tushuntiring va ular ishtirokida gaplar tuzing. *Miri, paqir, (pul birliklari) qozi, qushbegi, yasovul, xalifa (mansab nomlari), omoch, yorg‘ichoq, charx kabilar.*

Test

1. Zamonaviy qatlamga oid so‘zlarni belgilang.

- A. Onlayn, Smartfon
- B. Yer, osmon, oy, quyosh

C. Mingboshi, xona

D. Hakam, viloyat

2. Yangi qatlamga tegishli soʻzlarni belgilang.

A. Onlayn, Smartfon

B. Yer, osmon, oy, quyosh

C. Mingboshi, xona

D. Hakam, viloyat

3. Eskirgan qatlamga oid soʻzlarni belgilang.

A. Onlayn, Smartfon

B. Yer, osmon, oy, quyosh

C. Mingboshi, Qozi

D. Hakam, viloyat

4. Kitob, maktab, maorif, oila, kasb, imorat soʻzlari oʻzbek tiliga qaysi tildan kirib kelgan?

A. Tojik

B. Arab

C. Rus

D. Lotin

5. Mard, shogird, bemor, bahor, mirob, chala soʻzlari qaysi tildan kirib kelgan?

A. Tojik

B. Arab

C. Rus

D. Lotin

6. Stol, stul, tok, ruchka, sudya soʻzlari qaysi tildan kirib kelgan?

A. Tojik

B. Arab

C. Rus

D. Lotin

7. Oʻzbek tilidan rus tiliga oʻzlashgan soʻzlarni belgilang.

A. Oʻrik, anjir, somsa

B. Kanal, radio

C. Futbol, bank

D. Kafedra, poema

Savol va topshiriqlar:

1. Oʻzbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan qanday aloqalarda boʻlib kelgan?

2. Leksik qatlam nima?
3. O‘z va o‘zlashma qatlam haqida gapiring.
4. Zamonaviy qatlamlanga qaysi so‘zlar kiradi?
5. Eskirgan qatlam necha qismdan iborat?
6. Yangi qatlamdagi so‘zlar haqida ma’lumot bering.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. M.Мирзаев., С.Усмонов., И.Расулов. Ўзбек тили. Т., “Ўқитувчи” 1978.
2. Ш. Шоабдурахмонов., М.Аскарлова., А.Ҳожиёв., И.Расулов., Х.Дониёров. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., “Ўқитувчи” 1980.
3. М.Ирскулов. Тилшуносликка кириш. Т., “Ўқитувчи” 1992.
4. А.Баскаков., А. Содиқов., А.Абдуазизов. Умумий тилшунослик. Т., “Ўқитувчи” 1981.
5. Х.Неъматов, О.Бозоров Тил ва нутқ. Т., “Ўқитувчи” 1993.
6. У.Турсунов., Ж.Мухторов., Ш.Рахматуллаев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Т., “Ўқитувчи” 1979.
7. N. Turniyozov., A.Rahimov. O‘zbek tili (ma’ruzalar matni).
8. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhleri uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.
9. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
10. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.
11. Iskandarova G. O‘zbek tili grammatikasi.–Toshkent, 2009.–67 b.
12. Рафиев А., Махмудов Н., Юлдашев И. Культура речи и делопроизводство на узбекском языке. – Ташкент, 2011. – 143 б.
13. Русча-ўзбекча луғат (2 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013.

MAVZU: ULUG‘ AJDODLARIMIZ



Reja:

1. Buyuk ajdodlarimiz.
2. Yuksak iftixor tuyg‘usi.

Buyuk ajdodlarimiz



Abu Ali ibn Sino



Ahmad al-Farg‘oniy



Oʻnlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi boʻlib ilm-fan sohasiga joriy etgan Muhammad Muso Xorazmiy, qomusiy olimlar Ahmad Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan Mahmud Zamahshariy, oʻzida mingdan ziyod yulduzlar harakatini jamlagan astronomik jadval yaratgan Mirzo Ulugʻbek singari ulugʻ mutafakkirlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Bunday yuksak iftixor tuygʻusi bizni hech kimdan kam boʻlmagan xalq sifatida faxr bilan yashashga, ajdodlarga munosib avlod boʻlishga daʼvat etadi. Xorazmiy, Abu Jaʼfar (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783, Xiva – 850, Bagʻdod) – matematik, astronom, geograf, fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardan. Dastlabki maʼlumotni Xiva shahrida olgan va yetuk olim boʻlib shakllangan. Bunda arab istilosidan soʻng muayyan darajada saqlanib qolgan qadimgi Xorazm fani anʼanalari asosiy rol oʻynagan. Xalifa Horun ar-Rashidning oʻgʻli va uning Xurosondagi voliysi al-Maʼmun huzuriga – Marvga taklif etilgan. 819-yilda Bagʻdodni egallagan al-Maʼmun markaziy osiyolik olimlardan Ahmad al-Fargʻoniy, Habash al-Hosib Marvaziy, Abul Abbas Javhariy va boshqalarni oʻzi bilan olib ketib, oʻziga xos ilmiy jamoa tashkil etgan. Bu jamoa fan tarixidagi dastlabki rosmiyaning akademiyasi deb qaraladigan ilmiy muassasa “Bayt ul-Hikmat” (“Donishmandlik uyi”) ning asosini tashkil etgan. Bu akademiyada Xorazmiy yetakchi olim va ilmiy rahbar boʻlgan. U shu davrdan boshlab Bagʻdodda al-Maʼmun (813-833), soʻng al-Moʻtasim (833-842), al-Vosiq (842-847) xalifaligi davrlarida yashab ijod etgan. Amir Temurning yoshligi haqida maʼlumotlar kam uchrasada, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, oʻz davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, meʼmorlik va tarix ilmlarini oʻrgangan.

Alisher Navoiy (1441-1501)

«Undan avval va undan keyin hech kim turkiy tilda sheʼrni undan koʻproq va undan yuksakroq yozolgan emas. U forsiy sheʼrni ham koʻp yozgan». (Muhammad Haydar Mirzo “Tarixi Rashidiy” dan).

Alisher Navoiy (taxallusi; asl ismi Nizomiddin Mir Alisher) – buyuk oʻzbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi. Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli oʻgʻli bilan

ko'kaldosh (emikdosh) bo'lib, keyinchalik Umar Shayx va Shohruhning xizmatida bo'lgan. Otasi G'iyosiddin Bahodir esa Abulqosim Boburning yaqinlaridan; mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi (ismi noma'lum) Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi. Alisher Navoiyning bolaligi Shohruh hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U temuriyzodalar, xususan, bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447-yil 12-martda mamlakat podshohi Shohruh vafot etgach, taxtga da'vogarlar orasida o'zaro kurash boshlanadi. Urush-janjallar ko'p kishilarni Xurosondan turli tomonga ko'chib ketishga majbur etdi. Alisher Navoiylar oilasi o'z tinchligini ko'zlab, Iroqqa ko'chishdi (1449). Taf shahrida Alisher mashhur "Zafarnoma" tarixiy asar muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv bolada yorqin taassurot qoldiradi. G'iyosiddin Bahodir oilasi Hirotga, qariyb ikki yil muddat o'tgach, qaytadi. Abulqosim Bobur G'iyosiddin Bahodirni Sabzavor shahriga hokim qilib tayinladi. Alisher Navoiy Hirotga qolib o'qishni davom ettirdi. Alisher Navoiy she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Tog'alari Mirsaid – Kobuliy, Muhammad Ali – G'aribiy yetuk shoir edilar. Alisher Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar. Alisher Navoiy 10-12 yoshidan she'r yoza boshlagan.

Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan. She'rlarini turkiy (Navoiy taxallusi bilan) va forsiy (Foniy taxallusi bilan) tillarida yozgan.

Lug'at ishi

Mutafakkir	–	мыслитель
Muassasa	–	учреждение
Yetakchi	–	ведущий
Taxallus	–	псевдоним
Hukmron	–	правлящий
Mukammal	–	завершённый
Taassurot	–	впечатление
Iste'dod	–	способность

1-mashq.

Quyidagi matnni daftarga ko‘chiring va g‘azalni yod oling.

Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Alisher Navoiyning iste’dodidan mamnun bo‘lgan mavlono Lutfiy, uning “Orazin yopg‘och, ko‘zumdan sochilur har lahza yosh, Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh” matla’li g‘azalini tinglab: “Agar muyassar bo‘lsa edi, o‘zinning o‘n-o‘n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g‘azalga almashtirardim...” degan.

2-mashq.

Matnni rus tiliga tarjima qiling.

O‘nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo‘lib ilm-fan sohasiga joriy etgan Muhammad Muso Xorazmiy, qomusiy olimlar Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan Mahmud Zamahshariy, o‘zida mingdan ziyod yulduzlar harakatini jamlagan astronomik jadval yaratgan Mirzo Ulug‘bek singari ulug‘ mutafakkirlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Test

1. O‘nlik sanoq sistemasini birinchi bo‘lib joriy etgan olim?

- A. Muhammad Muso Xorazmiy
- B. Ahmad Farg‘oniy
- C. Abu Rayhon Beruniy
- D. Abul Abbas Javhariy

2. Arab tili grammatikasini ishlab chiqqan olim?

- A. Ahmad Farg‘oniy
- B. Mahmud Zamahshariy
- C. Mirzo Ulug‘bek
- D. Muhammad Muso Xorazmiy

3. Mirzo Ulug‘bek nechta yulduzlar harakatini jamlab, astronomik jadval yaratgan?

- A. 700 dan ziyod
- B. 800 dan ziyod
- C. 1000 dan ziyod
- D. 2000 dan ziyod

4. Yetuk olim Muhammad Muso Xorazmiy dastlabki ma’lumotni qayerda olgan?

- A. Bog‘dodda

B.Buxoroda

C.Xivada

D.Marvda

5. Alisher Navoiyning onasining ismi?

A.Xadichabegim

B.Ismi noma'lum

C.Bibixonim

D. Xonzodabegim

6. Alisher Navoiy va uning oilasi Xurosondan Iroqqa nechanchi yilda ko'chib ketishadi?

A.1447-yilda

B.1446-yilda

C.1448-yilda

D.1449-yilda

7. Alisher Navoiyning tog'alari?

A.Mirsaid-Kobuliy

B.Muhammad Ali G'arbiy

C.Abulqosim Bobur

D.A va B javoblar to'g'ri

8. Alisher Navoiyning oilasi Iroqdan necha yildan keyin Hirotga ko'chib kelishadi?

A.1 yildan keyin

B.2 yildan keyin

C.3 yildan keyin

D. 4 yildan keyin

Savol va topshiriqlar:

1. Milliy-ma'naviy meros qanday meros?
2. Qaysi ulug' allomalarimizni bilasiz?
3. Buyuk ipak yo'li haqida ma'lumot bering.

1-topshiriq.

Mashhur allomalardan biri haqida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq.

Buyuk allomalarimizning asarlari ro'yxatini tuzing.

3-topshiriq.

Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

SOHIBQIRONNING AYOLLARGA MUNOSABATI

Ayol – mo‘tabar zot, ayol uchun g‘azallar bitilgan, dostonlar kuylangan, qasrlar, bog‘-rog‘lar barpo etilgan. Ayol – go‘zallik, nafosat va muhabbat timsoli, ayol bilan bog‘liq bu tuyg‘ular Sharqda asrlar davomida qadrlanib kelingan. Bu holatni Amir Temur saltanati misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Sohibqiron ayol qadriga, go‘zalligiga ichki bir muhabbat bilan qaragan. Uning ayollarga bo‘lgan ehtiromi, ular sharafiga barpo etilgan bog‘-rog‘lar va nodir me‘moriy yodgorliklarda ham aks etgan. Samarqandda to‘ng‘ich opasi Qutlug‘ Turkon og‘o, singlisi Shirinbeka og‘oning qabrlari ustiga maqbaralar qurdirgan.

Bundan tashqari, Sohibqiron saltanat ishlarida nihoyatda band bo‘lishiga qaramay, Samarqand atrofida marjondek sochilib turgan bog‘larni barpo etgan. Tuman og‘oga Bog‘i Bihishtni, To‘kal xonimga atab Bog‘i Dilkushoni va nevarasi Begi Sultonga atab Bog‘i Shamolni bunyod ettirgan. Mazkur bog‘lar Samarqanddagi boshqa bog‘lardan o‘zining tengi yo‘q tarovati, ulug‘vorligi hamda ayol kabi go‘zal nafosati bilan ajralib turar edi.

(N.Muhammadxo‘jayeva)

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhleri uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.
2. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
3. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.
5. Рафиев А., Махмудов Н., Юлдашев И. Культура речи и делопроизводство на узбекском языке.–Ташкент, 2011. – 143 б.
6. Русча-ўзбекча луғат (2 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013.

MAVZU: ATAMALAR VA ULARNING VUJUDGA KELISHI

Reja:

1. Atamalarning shakllanishi.
2. Atamashunoslik.

O‘zbek tilshunosligida atamalarni o‘rganishga doir ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan. Ko‘plab ilmiy kitoblar, risolalar, lug‘atlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu borada 200 dan ortiq lug‘atlarning nashr etilishi fanimizning katta yutug‘i hisoblanadi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, “Lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar qo‘mitasi olib borayotgan yirik hajmdagi ishlar atamashunoslik sohasining yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. To‘nyuquq, Kultegin, Bilga Xoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg‘ul bo‘lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo‘shiqlarida ham mavjud bo‘lgan. Ularni mujassam qilgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari ularning bizgacha yetib kelishida katta tarixiy vazifani bajargan.

Atamalarning o‘zbek tilida son jihatdan ko‘pchilikni tashkil etishi ularni mavzuviy guruhlariga bo‘lib o‘rganishni taqozo qiladi. Chunki o‘zbek atamashunoslari S.Ibrohimov, S.Akobirov, Olim Usmon, R.Doniyorov, X.Shamsiddinov, A.Madvaliyev va boshqalar ta’kidlaganlaridek, bunday tahlil atamalarning umumiy boyligini ko‘rsatishga ko‘maklashadi, sohalarga bo‘lib o‘rganishni osonlashtiradi.

Atamalarni dastlab ikki katta guruhga ajratish to‘g‘ri bo‘ladi:

Umumiylik xususiyatiga ega bo‘lgan atamalar.

Xususiylik xususiyatiga ega bo‘lgan atamalar.

Umumiy atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo‘nalishlari uchun tushunarli bo‘lgan atamalar kiradi. Masalan, sportdagi *musobaqa*, *sovrin*, *sovrindor*, *yutuq*, *g‘alaba*, *birinchilik*,

chempionat, ko'rik, trener, hakam atamalarini sportning barcha turlarida bemalol qo'llash mumkin. Fizikaga oid *issiqlik, temperatura, jism, elektr, magnit, gaz, harakat, energiya, maydon* singari atamalar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin.

Xususiy atamalar esa faqatgina bitta mavzuviy guruh doirasida amal qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan fizikaga oid atamalar uning barcha sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgani holda, *gravitatsiya, diod, termoster, kondensatsiya, kapillyar* hodisalar singari atamalar yoki kimyoga oid *gidroksid, oksid, sulfat kislotali, xlorid kislotali* kabi atamalar tor ixtisos doirasida qo'llaniladi. Bunday holatni fanlarning barcha yo'nalishlari va sohalarida kuzatish mumkin.

O'zbek tilining barcha leksik resurslarida bo'lgani kabi atamalarning ham o'z boyish yo'llari bor va ular tilimiz taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarga muvofiq keladi.

E'tirof etish kerakki, o'zbek tilida chetdan qabul qilingan ilmiy-texnikaviy atamalarning salmog'i katta.

Arabcha atamalar : *amaliyot, asar, asos, izoh, ilm, in'ikos, ilova, isloh, istiloh, islohot, maqola, misol, masala, maxraj, manfiy, musbat, mavzu, mazmun, mantiq, ma'naviy, ma'rifiy, muqaddima, mushohada, tajriba, taqriz, tahlil, uslub, fan, falsafa* va hokazo.

Forscha-tojikcha atamalar: *bastakor, duradgor, zabtkor, navosoz, navoxon, shogird, peshqadam, sovrin, sozanda, ustoz, chavandoz, yakkaxon, havaskor, hamshira* kabi.

Ruscha-baynalmilal atamalar: *abzats, agronomiya, agrotexnika, arxeologiya, gazeta, kodeks, lingvistika, matematika, nekrolog, plenum, realism, romantiam, sessiya, syezd, fizika, fonetika, fonologiya* va hokazolar.

Atamalarni "milliylashtirish"ga ishtiyoq kuchayib ketdi. Tavsiyalar nihoyatda ko'paydi. Jo'yali fikrlar bilan bir qatorda, hazm bo'lishi qiyin bo'lgan takliflar ham o'rta tashlandi.

Atamalar qo'llashda me'yorni saqlab turish boshqa so'zlar, masalan, ko'p ma'noli yoki sinonim so'zlar me'yorini turg'un holatda ushlab turishga nisbatan osondek tuyuladi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tildagi me'yoriy holatlarni tayinlashda har bir tilning o'z ichki qonun-qoidalariga tayanib, ko'pchilikka ma'qul bo'lish-bo'lmaslik jihatlari e'tiborga olinishi kerak.

Lugʻat ishi

Maqom	–	статус
Qoʻmita	–	КОМИТЕТ
Mashgʻul	–	заниматься
Afsona	–	легенда
Taqozo	–	требование
Umumiy	–	общий
Xususiylik	–	частый
Ishtiyoq	–	желание, стремление

1-mashq.

Quyidagi berilgan soʻzlardan tibbiyotga oid atamalarni toping.

Anʻana, inflatsiya, urf-odat, amputatsiya, kredit, aorta, anjuman, allergiya, antibiotik, arifmetika, aylana, antigistamin, sinekdoxa, hujayra, bayonot, oqsil, madhiya, gerb, ninalogʻich, migren, laringit, investitsiya.

2-mashq.

Quyidagi berilgan soʻzlardan iqtisodiyotga oid atamalarni toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Maʼruza, aorta, dividend, inflatsiya, antigistamin, valyuta, investitsiya, anjuman, bayonot, seminar, ilmiy ish, referat, kredit, soʻm, amyoba, kelishik, mayl, diametr, bank, gripp, flora, soliq.

Test

1. Atamalar tilshunoslikning qaysi boʻlimida oʻrganiladi?

- A. Fonetika
- B. Atamashunoslik
- C. Leksikologiya
- D. Morfologiya

2. Taqriz, falsafa, maqola, izoh, ilova, mavzu, tahlil kabi atamalar oʻzbek tiliga qaysi tildan kirib kelgan?

- A. Fors-tojik
- B. Rus
- C. Arab
- D. A va C javoblar toʻgʻri

3. Agronomiya, gazeta, matematika, nekrolog, sessiya, fonologiya kabi atamalar oʻzbek tiliga qaysi tildan kirib kelgan?

- A. Grek
- B. Rus

- C. Lotin
- D. Ingliz

4. Zabtkor, peshqadam, sozanda, ustoz, hamshira, duradgor, yakkaxon kabi atamalar o‘zbek tiliga qaysi tildan kirib kelgan?

- A.Fors-tojik
- B.Rus
- C. Arab
- D. lotin

5. Gravitatsiya, diod, termoster, kondensatsiya, kapillyar kabi atamalar qaysi sohaga oid?

- A.Matematika
- B.Fizika
- C. Kimyo
- D. Iqtisod

6. Gidroksid, oksid, sulfat kislotali, xlorid kislotali kabi atamalar qaysi sohaga oid?

- A.Matematika
- B.Fizika
- C. Kimyo
- D. Iqtisod

7. Sportga oid atamalarni belgilang.

- A. Sulfat kislotali, xlorid
- B. Diod, termoster, kondensatsiya
- C. Ustoz, duradgor
- D. Chempionat, ko‘rik, trener, hakam

Savol va topshiriqlar:

1. Atama deganda nimani tushunasiz?
2. Atama qanday hosil qilinadi?
3. Atamaning umumxalq so‘zidan qanday farqi bor?
4. Atamalarni yasash va ularni tartibga solish muammolari tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi?

1-topshiriq. 3 guruhga bo‘lining. Belgilangan qisqa muddat ichida 1-qator ilm-fanga oid, 2-qator san’at va madaniyatga, 3-qator texnikaga oid atamalarni navbat bilan yozuv taxtasiga yozing.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. A. Aliyev., Q. Sodiqov. O‘zbek adabiy tili tarixidan. – Toshkent:

O'qituvchi, 1994.

2. A. Hojiyev. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi –Toshkent, 2007. 167 bet.

3. B. To'ychiboyev. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. Toshkent, 1996, 176 bet.

4. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.

5. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O'zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.

6. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

MAVZU: VATAN VA VATANPARVARLIK

Reja:

1. Mening Vatanim.
2. Vatanparvarlik – ezgu xislat.
3. Vatanni sevish iymondandir.



Kurrayi zaminimiz butun Yer yuzida yashayotgan sakkiz milliard xalq uchun Vatan bo'lsa, har bir xalq uchun taqdiran va tarixan ato etilgan hamda sarhaddari belgilab qo'yilgan hudud – ona-Vatan! Vatan deganda, ko'pchilik oddiygina bir hovuch tuproqni ko'rsatadi. Albatta, Vatan tuprog'i muqaddas, shu bilan bir qatorda, men uchun Vatan tuprog'idan ko'tarilgan, ko'zga ko'rinmas chang zarralari ham, unib chiqayotgan maysa ham muqaddasdir. Vatan atamasi ona Yurt ma'nosini bildiradi. Shu ma'noda, o'zbek millatining Vatani – O'zbekiston Respublikasi! Bu o'rinda davlat va Vatan ifodasini ayni bir ma'noda: O'zbekiston Respublikasi deganda Vatanni, Vatan deganda O'zbekiston Respublikasini idrok etamiz. O'zbekiston! Tuprog'i zar, hosili gavhar odamlari saxiy, bag'ri keng-u mehri daryo, mehmondo'st-u odamparvar, xush hulq-u xushsuxan diyor! Butun olamni kezib chiqqanda, barcha ajoyib-u g'aroyib, mo'jizakor joylarni tomosha qilganda O'zbekistonning kichik bir qishlog'idagi fayz-u tarovatdan bahra olganday, lazzatlanganday bo'lmaydi. Dunyoning qay bir go'zal yurtiga bormang, dam o'tmay ona-yurt dilingizni o'rtab, o'ziga chorlayveradi. Bu tuyg'u kindik qoni tomgan muqaddas zamanga, uning betakror, mislsiz fazilatli odamlariga bo'lgan muhabbatning sehrli kuchi va qudratidan bo'lsa kerak. Vatan barchamiz uchun aziz, barchamiz uchun muqaddasdir.

✎ Vatanparvarlik faqat harbiy xizmatda yoki jang maydonida namoyon bo'lmaydi. Balki, mana shu zaminda yashab turgan har bir inson o'z uyi, mahallasini asrashi ham vatanparvarlik namoyish etishidir.



Maqol:

O'z uyingni o'zing asra

Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga

muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu Vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. “Vatanni sevish iymondandir”, - deb ham bejizga aytishmagan. Vatan va vatanparvarlik haqida cho‘lda o‘rmalab yurgan jonivorlar ham tug‘ilshidanoq o‘z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o‘z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o‘xshashlar ham o‘z uyalarini muhofaza qiladilar, shuning kabi odamlar ham qayerda tug‘ilib parvarish topsalar, o‘sha joyga cheksiz mehr qo‘ygan bo‘ladilar.

“O‘zingni vatanga qanchalar yaqin his etsang, uni shu qadar jonli vujud kabi aniqroq va sevibroq tasavvur qilasan” (A. Navoiy).
 “Har kimning qalbida o‘z xalqining jajji qiyofasi yashaydi” (Blok).

Lug‘at ishi

Vatanparvar	–	патриот
Umuminsoniy	–	общечеловеческий
Tuyg‘u	–	чувство
Sarhad	–	граница
Hovuch	–	горсть
Tuproq	–	земля
Muqaddas	–	священный
Chang	–	пыль
Zarra	–	мельчайшая частица
Manfaat	–	польза

1-mashq.

Maqollarni daftarga ko‘chiring va har birini izohlang.

Baliq suv bilan tirik, Odam – el bilan.

Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni.

Ayrimagin elingdan, Quvvat ketar belingdan.

Har qush o‘z uyasiga qarab uchar.

Vatanning tinch – sen tinch.

Vatan uchun o‘lmoq ham sharaf.
Vatansiz inson – kuysiz bulbul.
O‘zga yurtning gulidan, O‘z yurtningning cho‘li yaxshi.
Vatansiz inson – kuysiz bulbul.

2-mashq.

Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Har bir xalq hozirgi darajasiga yetgunga qadar juda katta taraqqiyot bosqichini bosib o‘tgan. Bundan o‘zbek xalqi ham mustasno emas. Markaziy Osiyo hududlarida azaldan yashab kelgan o‘g‘uz, qipchoq, uyg‘ur, nayman, barlos, yuz, qirq, ming kabi ko‘plab qabilalar o‘zbek xalqining shakllanishida muhim o‘rin tutgan.

Test

1. Madhiyamiz matnini kim yozgan?

- A.S.Sayyid
- B.A.Oripov
- C.E.Vohidov
- D.M.Yusuf

2. Madhiyamiz so‘ziga kim musiqa bastalagan?

- A.Yunus Rajabiy
- B.A.Abdullayev
- C.Mutal Burhonov
- D.T.Qodirov

3. Buyuk bobokalonimiz Ulug‘bekning onasining ismini toping.

- A.Saroymulxonim
- B.Gavharshodbegim
- C.Bibixonim
- D.Xonzodabegim

4. Al-Xorazmiy qayerda vafot etgan?

- A.Bog‘dodda
- B.Xorazmda
- C.Hirotda
- D.Damashqda

5. “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish–eng oliy saodatdir” kitobining muallifi kim?

- A.Sh.Mirziyoyev
- B.I.Karimov

C.S.Ahmad

D.T.Malik

6. Ushbu soʻzlar kimga tegishli? “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan afzal”

A.Alisher Navoiy

B.Amir Temur

C.Abdulla Avloniy

D.Abdurauf Fitrat

Savol va topshiriqlar:

1.Vatanparvarlik nima?

2.Vatan sogʻinchi deganda deganda nimani tushunasiz?

3. Vatanparvarlik qanday tuygʻu deb oʻylaysiz?

1-topshiriq.

Tarixda oʻz jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar haqida hikoya tuzing.

2-topshiriq.

“Vatanparvarlik nima?” mavzusida esse yozish.

3-topshiriq.

Muhammad Yusufning “Yurtim, ado boʻlmas armonlaring bor...” nomli sheʼrini ifodali oʻqing va yodlang.

Yurtim ado boʻlmas armonlaring bor,
Toshlaringni yigʻlatgan dostonlaring bor,
Oʻtmishingni oʻylab ogʻriydi jonim,
Koʻksing toʻla shahid oʻgʻlonlaring bor.

Bagʻrim oʻrtar bir oʻy bahor ayyomlar,
Oy botgan yoqlarga termilib shomlar,
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,
Fayzullodek mardi maydonlaring bor.

Yurtim, koʻnglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yigʻlatgan dostonlaring bor.
Osmonlaringda ham diydoringga zor,

Jayrondek termulgan Cho‘lponlaring bor.

Qo‘ling qadog‘iga bosay yuzimni,
Onamsanku og‘ir olma so‘zimni,
Qayinbarglar yopib qaro ko‘zini,
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Alhazar, alhazar ming bor alhazar,
Ana yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyni sotib shoir bo‘lganlar -
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor...

Qurboning bo‘layin ey onajonim,
Sening faryoding–mening fig‘onim,
O‘tmishingni o‘ylab qiynalar jonim,
Aytsam ado bo‘lmas armonlaring bor.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta‘lim muassasalari rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.
2. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
3. Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G. O‘zbek tili (oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.
4. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

MAVZU: IJTIMOIIY-SIYOSIIY LEKSIKA

Reja:

1. Leksika haqida tushuncha.

2. Ijtimoiy-siyosiy leksika tizimining shakllanishi va rivojlanishi.

Biror xalqning muayyan sohada erishgan tarixiy yutuqlari o‘sha xalq tilining ijtimoiy-siyosiy leksikasida o‘z aksini topadi. Shu ma‘noda o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining salmoqli va ko‘pqirraligi ajdodlarimizning ilm-fanning turli sohalarida peshqadam

bo‘lganliklari hamda jahon ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin tutganliklari bilan izohlanadi. O‘zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy leksika tizimi shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda nodir ilmiy manbalar hisoblangan “Devonu lug‘otit turk”, “Muqaddimat ul-adab”, “Tarjumon”, “Muhokamat-ul lug‘atayn”, “Sangloh”, “Badoe’ ul-lug‘at”, “Kelurnoma”, “Majmaa al-arqom” kabi ko‘plab asarlarda bayon qilingan faktlar, nazariy fikrlar muhim o‘rin tutadi. Qo‘lyozma manbalardagi ijtimoiy-siyosiy leksika tadqiqida turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili tarixining turli sathlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan V.V.Radlov, I.I.Berezin, A.Semenov, A.K.Borovkov, N.A.Baskakov, E.V.Sevortyan, E.I.Fozilov, A.Matg‘oziyev, B.Bafoyev kabi olimlar tomonidan bajarilgan leksikologik va leksikografik ishlar katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi adiblar tiliga oid lug‘atlarda ham, tabiiyki, ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansub juda ko‘plab so‘zlarning izohini topamiz. Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy yoki Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun yaratilgan lug‘atlarda ularning mazkur ijodkorlar tilida mavjud ma’nolarigina berilishi tabiiydir.

Mavzuga daxldor tadqiqotlar B.Ahmedov, Z.Choriyev kabi tarixchilar tomonidan ham amalga oshirilgan. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida ijtimoiy-siyosiy leksikani o‘rganish borasida muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, bu borada H.Dadaboyev, I.Yo‘ldoshev, A.Ibrohimov, A.Mo‘minova, B.Abdushukurov, Z.Xolmanova kabi olimlar tomonidan bajarilgan ishlar diqqatga sazovordir.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ijtimoiy-siyosiy leksikaga jiddiy e’tibor berilganini ko‘ramiz. Turli ijtimoiy tuzum va tarixning ma’lum pallalarida ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansub so‘zlarning ma’nolari o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun tariximizning katta bir davrini o‘zida mujassamlashtirgan tarixiy asarlar tilini lisoniy tadqiq qilish, xususan, ularning ijtimoiy-siyosiy leksikasi tizimini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. O‘zbek zaminining ajralmas bir qismi, o‘zbek xalqining katta bir qismi tarixi aslicha bayon qilingan Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlarini lingvistik tadqiq qilish, birinchi navbatda ulardagi ijtimoiy-siyosiy leksikani lingvistika va tarix fani materiallari asosida puxta o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-siyosiy leksemalarning istiqloq davri taraqqiyotida ham milliy mentallik milliy davlatchilikni yaratish sotsial omili negizida

namoyon bo'ldi. Buni til lug'at tarkibida *prezident, parlament, fuqarolar yig'ini raisi, hukumat* kabi til birliklari bilan parallel qo'llanilayotgan *Yurtboshi, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, oqsoqol* kabi rasmiy nomlarning paydo bo'lishida ham, *vazir, devon, hokim, madhiya* va boshqa eskirgan leksemalarning qayta shakllanishida ham ko'rish mumkin.

Leksikaning tilda avvaldan bo'lgan, tarixiy va eskirgan so'zlar hisobiga, shunday so'zlarni ishga solish, amalga kiritish yo'li bilan boyish ko'pchilik tillar uchun xarakterli hodisadir. Bunda so'zning semantik tarkibi miqdor jihatidan ortadi. Ana shunday ijtimoiy-siyosiy leksemalarga *hokim, hokimiyat, vazir, devon, madhiya, rayosat, ma'muriyat, qo'mita* kabi lug'aviy birliklarni kiritish mumkin.

Yangicha ma'no qirralari bilan boyigan bu kabi terminlarga *senat, senator, parlament, palata, departament, fraksiya, fermer, ukklad, piket, absentizm* kabilar misol bo'la oladi.

Neologizm semema sifatida yangi ma'no kasb etgan bu kabi terminlarda yuqoridagi leksemalardan farqli o'laroq mazkur leksema mansub bo'lgan muayyan yoki vositachi tildagi boshqa ma'nolarni ham o'zlashtirish hisobiga ma'no miqdorining ortishi yuz berdi. Chunki boshqa tilga «hech bir so'z to'liq ma'nosi bilan o'zlashmaydi. Bunda o'zlashtiruvchi til o'z imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olib, chet so'zning ayrim ma'nolarinigina qabul qilib olishi mumkin». Masalan, *institut, prezident, palata, assambleya, korpus, immunitet* kabi leksemalarda shunday holat kuzatiladi. *Institut* so'zi rus tilida birdan ortiq ma'noga ega bo'lgani holda, uning "Ba'zi oliy o'quv yurti va ilmiy tekshirish muassasalarining nomi" ma'nosigina o'zbek tiliga o'zlashtirilgan edi. Ushbu leksemaning "Muayyan doiradagi ijtimoiy munosabatlar, huquq normalari majmui degan ma'nosi mustaqillikdan keying yillarda o'zbek tiliga kirib keldi. Ayni vaqtda bu leksemaning keying ma'nosi *demokratik institutlar, ijtimoiy institutlar, siyosiy institutlar* kabi birikmalarda faol qo'llanmoqda. *Mahalla, muxolafat, da'vat, islohot, tiklanish, bo'shliq, tahdid, qo'poruvchilik* kabi ko'plab leksemalardagi ma'no hajmining kengayishi ijtimoiy-siyosiy leksik qatlamning miqdor jihatidan boyishiga sabab bo'ldi.

So'z ma'nosining ko'chishi orqali turli qatlamga mansub termin va atamalarning ijtimoiy-siyosiy ma'no kasb etganligini quyidagi misollarda ko'rish mumkin: *immunitet* –

mafkuraviy immunitet, poligon – mafkura poligonlari, strategiya – yangilanishlar strategiyasi.

Ijtimoiy-siyosiy qatlamga mansub yangi yasalmalarning vujudga kelishi deganda mustaqillik davrida morfologik va sintaktik yo‘l bilan yasalgan leksemalar tushuniladi. Morfologik yo‘l bilan yasalgan lug‘aviy birliklarda asosan quyidagi affikslar yetakchi rol o‘ynadi:

a) –lik: *hokimlik, vazirlik, biqqlik, tolerantlik, erkinlik;*

b) –chilik: *qonunchilik, davlatchilik, aqidachilik;*

v) –lashuv: *liberallashuv, ijtimoiylashuv, globallashuv, integratsiyalashuv, geosiyosiylashuv.*

Sintaktik usul bilan yasalgan leksemalar: *yurtboshi, ko‘ppartiyaviylik, hamjamiyat, hamdo‘stlik, umumplanetar.*

Birikmaga teng ijtimoiy-siyosiy atamalar: *Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, yuqori palata, quyi palata, qonunchilik palatasi, Bosh Vazir.*

O‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy leksikasi istiqlol yillarida avvallari iste’molda bo‘lmagan yangi tuzum mafkurasiga oid neologizm leksemalar bilan boyidi. Ular sirasiga *sammit, akkreditatsiya, konsensus, spiker, elita, etiket, brifing, mafiya, plyuralizm, avtoritarizm, mentalitet* kabi leksemalarni kiritish mumkin.

Lug‘at ishi

Ma‘muriyat	–	администрация
Islahot	–	реформа
Qo‘mita	–	комитет
Tahdid	–	угроза
Vazirlar Mahkamasi	–	Кабинет Министров

Test

1. O‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasi tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda qaysi manbalardan foydalanilgan?

A. “Devonu lug‘otit turk”

B. “Tarjimon”

C. “Badoe’ ul-lug‘at”

D. Barchasi to‘g‘ri

2. O‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarni belgilang.

- A.V.V.Radlov, N.A.Baskakov, A.K.Borovkov, V.Bafojev
- B. N.Dadaboyev, I.Yo‘ldoshev, A.Ibrohimov
- C. E.I.Fozilov, A.Matg‘oziyev, Z.Xolmanova
- E. D. Barchasi to‘g‘ri

3. O‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasi ustida ilmiy tadqiqot olib borgan tarixchi olimlarni belgilang.

- A. B.Ahmedov, Z.Choriyev
- B. A.Mo‘minova, B.Abdushukurov
- C. V.Bafojev, A.Matg‘oziyev
- D. N.Dadaboyev, Z.Xolmanova

4. Tarixiy va eskirgan so‘zlar ishtirok etgan qatorni belgilang.

- A. Hokim, vazir, devon, madhiya, qo‘mita
- B. Senat, palata, fermer, departament
- C. Tolerant, aqidachilik
- D.Barchasi to‘g‘ri

5. Yangi so‘zlar (neologizmlar) qatorini belgilang.

- A. Vazirlik, globallashuv, strategiya
- B. Rayosat, ma‘muriyat
- C. Qo‘mita, devon
- D. A va B

6. Morfologik yo‘l bilan yasalgan so‘zlarni belgilang.

- A. Davlatchilik, hamjamiyat
- B. Vazirlik, globallashuv, qonunchilik
- C. Ko‘ppartiyaviylik, Bosh vazir
- D. Quyi palata, liberallashuv

7. Sintaktik usul bilan yasalgan so‘zlarni belgilang.

- A. Biqqlik, ijtimoiylashuv
- B. Oliy majlis, hamdo‘stlik
- C. Yurtboshi, hamjamiyat, umumplanetar
- D. Quyi palata, geosiyosiylashuv

Savol va topshiriqlar:

1. So‘z tovush tomonidan tashqari yana nimaga ega bo‘lishi kerak?
2. So‘zning leksik ma‘nosi deganda nimani tushunasiz?
3. So‘zning grammatik ma‘nosi nima?
4. Leksema va so‘z nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?
5. Bitta gap keltirib, uni so‘zlarga ajrating, so‘zlarning leksema

qismini aniqlang.

1-mashq.

Matnni o‘qing. Matndagi iqtisodiy terminlarni ajratib yozing.

Tadbirkorlik

Tadbirkorlik – keng ma’noda shaxsiy va ijtimoiy manfaatni qondirishga asoslangan aqliy va jismoniy faoliyatni bildiradi. Tor ma’noda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy hayotning barcha sohalarini – uy xo‘jaligini boshqarishdan tortib ishlab chiqarishgacha, tovarlar sotish va xizmat ko‘rsatish turlarigacha qamrab oladi. Yangi mahsulot ishlab chiqarish, texnologiyani joriy qilish, bozorlarga kirib borish, iste’molchilarni jalb qilishdir. Tovar xo‘jaligiga xos bo‘lgan beqarorlik, xavf-xatarlilik tadbirkorlik faoliyatining muhim xususiyatidir. Tadbirkorlikning tashkiliy shakllariga yangi korxonalarni tashkil etish, bir-biri bilan bog‘lanmagan korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va birlashtirish hamda korxonada tadbirkorlik ham kiradi. Tadbirkorlikning o‘zi faqat individual darajada emas, balki yirik tashkilotlarda ham amal qiladi. Tadbirkorlik “qonuniy” va “g‘ayriqonuniy” bo‘ladi. Faoliyat turiga bog‘liq holda tadbirkorlik subyektlari bo‘lib, ishlab chiqarishda korxonalar, tijoratda – savdo muassasalari va birjalar, moliyaviy tadbirkorlikda – tijorat banklari, fond birjalari, investitsiya va boshqa fondlar hisoblanadi. Tadbirkorlikda tashkiliy-huquqiy shakllarining quyidagi turlari mavjud: xususiy tadbirkorlik, yuridik shaxs bo‘lmagan tadbirkorlar faoliyati; kichik biznes (kichik korxonalar); xo‘jalik va ijtimoiy birlashmalar tadbirkorligi; fermer (dehqon) xo‘jaligi asosidagi tadbirkorlik; ijara va jamoa xo‘jaliklaridagi tadbirkorlik; chet ellik sheriklar bilan qo‘shma tadbirkorlik.

2-mashq.

Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Налоги

Налоги – обязательные взносы (платежи) в бюджет (местный или центральный) или во внебюджетные фонды, осуществляемые налогоплательщиками. Иначе говоря, это метод распределения доходов между хозяйствующим субъектом рынка и государством, это обязательные платежи в бюджет, взимаемые с юридических и физических лиц. К структурным элементам налогообложения относится, в частности, его субъект –

юридическое или физическое лицо, имеющее самостоятельный источник дохода и обязанное по закону уплачивать налог т.е. налогоплательщики. К объектам налогообложения относятся доход в виде прибыли, дивидендов, затраты и капитал в виде имущества (например, недвижимости), земли, стоимости товара. А источником налоговых платежей должен быть только чистый доход (прибыль). Назначение налогов – формировать финансовые ресурсы государства, повышать или снижать материальный интерес людей в развитии той или иной формы деятельности.

3-mashq.

Morfologik usul bilan yasalgan leksemalarga 10 ta misol keltiring.

4-mashq.

Sintaktik usulda hosil qilingan lug‘aviy birliklar ishtirokida 3 ta gap tuzing.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. М.Мирзаев, С.Усмонов, И.Расулов. Ўзбек тили. Т., “Ўқитувчи” 1978.
2. Ш. Шоабдурахмонов., М.Аскарлова., А.Хожиёв., И.Расулов., Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: “Ўқитувчи” 1980.
3. М.Ирскулов. Тилшуносликка кириш. Т.: “Ўқитувчи” 1992.
4. А.Баскаков., А. Содиқов., А.Абдуазизов. Умумий тилшунослик. Т.: “Ўқитувчи” 1981.
5. Ҳ.Неъматов., О.Бозоров. Тил ва нутқ. Т.: “Ўқитувчи” 1993.
6. У.Турсунов., Ж.Мухторов., Ш.Раҳматуллаев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. Т.: “Ўқитувчи” 1979.
7. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.
8. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
9. Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G. O‘zbek tili (oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalariga uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.
10. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili

(o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

11. Iskandarova G. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent, 2009. – 67 b.

12. Русча-ўзбекча луғат (2 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013.

13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (5 жилдли). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005–2008.

MAVZU: MUZEYLAR– O‘TMISH VA KELAJAK ORASIDAGI KO‘PRIK

**Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va
madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar.
Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.
O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 49-modda.**

Reja:

- 1.“Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonun haqida.
- 2.Yurtimizdagi muzeylar.
- 3.Dunyodagi muzeylar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2008-yil 12-sentabrda “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Qonunda “Milliy muzey fondi”, “Milliy muzey fondining davlat katalogi”, “Muzey”, “Muzey ashyosi”, “Muzey kolleksiyasi”, “Saqlash”, “E‘lon qilish” kabi tushunchalarga batafsil izoh berilgan. Ushbu hujjat muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, ularni muzey ashyolari bilan boyitishga zamin yaratdi.

Muzeylar o‘tmish bilan bugunni bog‘lovchi ma’naviyat ko‘prigi hisoblanadi. Shu bois bu yerda saqlanayotgan har bir tarixiy naqsh, surat, buyum, uy anjomi, ayollar bezagi kabi nodir namunalardan xalqimizning ming yillik an‘analari, qadriyatlarini o‘rganish mumkin.

Muzeyning har jihatdan mukammal va zamonaviy ko‘rinish kasb etishini ta‘minlash, fondni asrash, bugungi kunga mos ravishda xizmat ko‘rsatish orqali muxlislar e‘tiborini qozonish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, muzey faoliyatida ilmiy va xalqaro hamkorlikning alohida o‘rni bor. Luvr muzeyi (Fransiya), Ermitaj

davlat muzeyi, Tretyakov davlat galereyasi, A.Pushkin nomidagi Tasviriy san'ati muzeyi (Rossiya), Qozog'iston davlat milliy muzeyi va boshqa qator muzeylar bilan ijodiy hamkorlik ijobiy samara berayotir. Masalan, Qozog'iston davlat milliy muzeyida o'tkazilgan "O'zbekiston zamonaviy san'ati" ko'rgazmasi ham ana shunday o'zaro kelishuvlar natijasidir.

O'zbek xalqi o'zining qadimiy amaliy san'ati bilan jahonga mashhurdir. Zeb-u ziynatli buyumlar yasash san'ati xalqimiz ijodining eng qadimiylaridan hisoblanadi. Bu nodir xalq badiiy hunarmandchiligi namunalarini me'moriy yodgorliklar, ganch, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlikda, shuningdek, misgarlik, zargarlik, kulolchilik, gilamdo'zlik, ipak va ip gazlamachiligi, zardo'zlik, kashtachilik va o'nlab boshqa amaliy san'at turlarida 'oz namunalarini saqlab qolgan. Bugungi kunda yuksak va noyob san'at durdonalari darajasiga k'otarilgan bu bebaho merosimiz muzeylarimizda saqlanib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tagtomirlarigacha nazar tashlaymiz" deb bejiz uqtirmagan edi.

"Muzeylar faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to'grisida" 1994 va 1998-yillarda Vazirlar Mahkamasining ikkita qarori qabul qilinganligi, "O'zbekmuzey" jamg'armasi tuzilganligi, Toshkentda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag'on qurbonlari xotirasi, Termizda Arxeologiya muzeylari tashkil etilganligi buning yaqqol ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish yo'lida keng foydalanish zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Toshkent muzeylari

Muzeylar –1917-yilgacha Toshkentdagi birinchi va yagona muzey Toshkent muzeyi bo‘lgan. 1917-yildan keyin turli ixtisosdagi keng ekspozitsiyalarga ega bo‘lgan muzeylar tashkil etila boshlagan. 1918-yil knyaz N.Romanov saroyida uning musodara qilingan kolleksiyasi asosida Badiiy muzey (hozirgi O‘zbekiston davlat san’at muzeyi), 1921-yil Eski shahar muzeyi, 1926-yil O‘zbek eski shahar muzeyi tashkil qilingan. Madaniy taraqqiyot yangi muzeylar tashkil qilish va mavjud muzeylarni qayta jihozlash zarurligini taqozo etgan. O‘rta Osiyo muzeyining geologiya, zoologiya, botanika va antropologiya bo‘limlari, qishloq xo‘jaligi muzeyi va hayvonot bog‘i Tabiat muzeyiga aylantirildi. Respublika ko‘rgazmalari negizida Politexnika muzeyi (1933), Amaliy san’at muzeyi (1937-1991-yillarda amaliy san’at asarlari doimiy ko‘rgazmasi) tashkil qilindi; Adabiyot muzeyi tuzildi.

1940-yilda Toshkent muzeylarida 500 mingga yaqin eksponat bo‘lgan, muzeylarga kiruvchilar soni 300 mingga yaqin kishini tashkil etgan. 2-jahon urushi yillarida Markaziy tarix muzeyi, O‘zbekiston san’at muzeyi va Adabiyot muzeyi – tarix, madaniyat va san’at muzeyiga, Politexnika muzeyi Tabiat muzeyiga birlashtirildi. 40-yillar o‘rtalaridan muzey qurilishida yangi bosqich boshlandi. 1945-yil rus yosh tomoshabinlar teatri eski binosida joylashgan Davlat san’at muzeyi mustaqil muzeyga aylandi. 1972-yil O‘zbekiston kino san’ati muzeyi, 1973-yil O‘zbekiston sog‘liqni saqlash muzeyi, 1975-yil Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlari tarixi muzeyi tashkil etildi. 1988-yil Antiqa va zargarlik buyumlari muzeyi ochildi. 60-80-yillarda H.Abdullayev, M.Ashrafiy, S.Borodin, Oybek, G‘afur G‘ulom, O‘.Tansiqboyev, Abdulla Qahhor uy-muzeylari va Y.Fuchik, S.Yesenin muzeylari, Tamaraxonim liboslari doimiy ko‘rgazmasi va boshqalarga asos solindi.

Toshkentda 29 ta muzey bo‘lib, ularda 113127 eksponat saqlanadi; har yili Muzeylarga o‘rtacha 1,5 mlnga yaqin kishi kiradi. Toshkentdagi yirik davlat muzeylari: O‘zbekiston davlat san’at muzeyi, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston amaliy san’at muzeyi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari markaziy muzeyi, O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasi, O‘zbek liboslari galereyasi va boshqalar. Muzeylar ilmiy asarlar, qo‘llanmalar va kataloglar nashr etadi. O‘zbekiston xalq

xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi, planetariy muzey tipidagi muassasalar tipiga kiradi. Toshkent korxonalari, muassasalari va o'quv yurtlarida tashkil qilingan muzeylar davlat muzey tarmoqlarini to'ldiradi.

Dunyo muzeylari

Luvr – dunyodagi eng yirik va eng mashhur muzeylaridan biri. Har yili bu yerga 9,7 million ziyoratchi keladi. Muzey 160×106 kvadrat metr maydonni egallagan bo'lib, shundan 58470 kvadrat metrda ekspozitsiyalar joylashgan. Luvr muzeyi turli tamaddunlar, madaniyatlar va davrlarga oid 300 mingga yaqin eksponatga ega, biroq bulardan atigi 35 mingtasi namoyish etiladi, xolos. Luvr 1793-yilda keng ommaga ochilgan ilk muzey bo'lgan.

Ermitaj nafaqat Rossiyadagi, balki dunyodagi eng yirik badiiy va madaniy-tarixiy muzeylardan biridir. Muzey tarixi imperator ayol Yekaterina II yig'a boshlagan san'at asarlari kolleksiyasiga borib taqaladi. Ermitajda tosh asridan hozirgi zamongacha bo'lgan davrga oid 3 millionga yaqin san'at asarlari va madaniyat yodgorliklari saqlanadi.

Britaniya muzeyi Buyuk Britaniyadagi bosh tarixiy-arxeologik muzey sanaladi, u ziyoratchilar soni bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinni egallaydi. Avvaliga muzeyda Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimga daxldor eksponatlarni yig'ish rejalashtirilgan edi. Britaniya imperiyasining turli nuqtalaridan Londonga olib kelingan arxeologiya topilmalari va san'at asarlari bilan bir qatorda Britaniya muzeyi har xil davrlarga mansub rasmlar, medallar, tangalar va kitoblar bilan ham boyib bordi. Hozir bu yerda 7 milliondan ziyod san'at asarlari saqlanadi.

Eslatma: 1996-yil 18-oktabr kuni Sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Temuriylar davlat muzeyi barpo etildi.

Lug'at ishi

O'tmish	–	прошлое
Kelajak	–	будущее
Yodgorlik	–	памятник
Ko'rgazma	–	выставка
San'at	–	искусство
Takomillashtirmoq	–	совершенствовать
Haykaltarosh	–	скульптор
Ziyorat	–	паломничество

1-mashq.

Mavzuga oid matni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so‘zlash.

2-mashq.

O‘zbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot tayyorlang.

3-mashq.

Jahonning mashhur muzeylari haqida qiziqarli ma’lumotlar tayyorlash.

4-mashq.

Soha muzeyi haqida matn tuzish.

Test

1. “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?

- A. 2006-yil 10-sentabrda
- B. 2008-yil 12-sentabrda
- C. 2010-yil 10-mayda
- D. 2012-yil 10-yanvarda

2. “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmon qachon, kim tomonidan chiqarilgan?

- A. 1998-yil 12-yanvarda Birinchi Prezident I.A.Karimov
- B. 1994-yil 12-yanvarda Vazirlar Mahkamasi
- C. 2008-yil 12-sentabrda birinchi Prezident I.A.Karimov
- D. A va B

3. Toshkentda ilk muzey qachon tashkil etilgan?

- A. 1918-yil
- B. 1917-yil
- C. 1921-yil
- D. 1926-yil

4. “Ermitaj” muzeyi qayerda joylashgan?

- A. Italiyada
- B. Parijda
- C. Rossiyada
- D. Buyuk Britaniyada

5. Temuriylar davlat muzeyi qachon tashkil topgan?

- A. 1996-yil 9-aprelda
- B. 1996-yil 18-oktabrda

- C. 1997-yil 10-oktabrda
- D.1998-yil 6-oktabrda

1-topshiriq.

Matnni rus tiliga tarjima qiling.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi Markaziy Osiyoda 120 yildan ortiq tarixga ega, eng ulkan va ko‘hna ilmiy-ma‘rifiy muassasa hisoblanadi. Ekspozitsiyadan o‘rin olgan eksponatlar O‘zbekistonning Sharq sivilizatsiyasining qadimiy o‘chog‘idan biri bo‘lganidan darak beradi. Muzey shuningdek, o‘zbek xalqi tarixining muhim bosqichlarini aks ettirgan noyob arxiv materiallar, qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar va fotomateriallarga ega. Haykaltaroshlik, rassomchilik, kulolchilik, shisha san‘atining betakror namunalari turli davrdagi estetik tasavvur tarixiga baho berish imkoniyatini beradi.

2-topshiriq.

She‘rni o‘qib ma‘nosini tushuntiring va uni yodlang.

Luvr muzeyida

(Farangiston xotiralaridan)

Luvrda – muzeyning bag‘rida sokin,
Ming yillik ashyolar turibdi qator.
Unda shohlar taxti hashamdor, yorqin,
Unda gadolarning sopoli ham bor.

Boqib, o‘yga cho‘mdim Luvr uyida,
Tarixni bus-butun ko‘rarmikanman?
Payt kelib, O‘zbekning bir muzeyida,
Singan sopolchalik turarmikanman?!

A.Oripov 1998-yil

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T.:Sharq, 1998-yil
2. I.A.Karimov. “Yuksak ma‘naviyat –yengilmas kuch” 2008-yil
3. I.A.Karimov. “Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak” 1999-yil
4. I.A.Karimov. “Barkamol avlod orzusi” 2000-yil
5. I.A.Karimov. “El xizmatida” 2008-yil
6. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta‘lim muassasalari rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi,

2012. – 288 b.

7. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.

8. Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G. O‘zbek tili (oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.

9. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

MAVZU: SOHAVIY TERMINLAR VA ULARNING QO‘LLANILISHI

Reja:

1. ...termin – bu maxsus so‘zlar.
2. Termin yasash usullari.
3. Sohaviy terminlar.

Terminlar–ilm-fan, texnika, san’at sohasidagi aniq bir tushunchani ifodalaydigan bir ma’noli so‘zlardir. Masalan: morfema, fonema, morfologiya, sintaksis kabi tilshunoslikka, o‘tkazgich, tebranish, mayatnik kabi fizikaga oid terminlar shular jumlasidandir.

Termin yasashning, asosan, morfologik, sintaktik hamda affiksatsiya usullari eng sermahsul sanaladi.

O‘zbek tilida affiksatsiya usuliga ko‘ra, asosga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi so‘zlar yasaladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ellikka yaqin ot yasovchi affiks mavjud bo‘lsa-da, ularning o‘zbek tili terminologik sistemalaridagi mahsuldorlik darajalari turlichadir. O‘zbek tilida -chi affiksi ot yasovchilar ichida eng faol hisoblanadi. Bu affiks ishtirokida biror kasb, mutaxassislik yoki muayyan xizmat sohasi bilan shug‘ullanuvchi shaxs nomlarini ifodalovchi terminlar yasaladi: -muqovachi, -yozuvchi, -matbaachi, -poligrafchi, ~ annotatsiyalovchi, -sahifalovchi va hokazo.

Bugungi fan-texnika sohasidagi keskin o‘zgarishlar natijasida kitobchilik sohasida ham yangi kasb-hunar turlari va ularni ifodalovchi terminlar vujudga kelmoqda. Xususan, kitob nashr etish ishida kompyuter texnikasining keng qo‘llanishi bilan - *chi* affiksi

ishtirokida yasalgan kompyuterda sahifalovchi yoki dasturchi-operator kabi yangi terminlar vujudga keldi.

Termin yasashning sintaktik usuli haqida gap ketganda, asosan, birikma shaklidagi termin yasash holati tushuniladi. Barcha tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham birikma shaklidagi termin yasashning sintaktik usulidan keng foydalaniladi. Umuman, terminologiyada sintaktik usul bilan ko‘p miqdorda birikma shaklidagi terminlar yasaladi. Termin yasashning bu usuli (morfologik va semantik usullar singari) eng sarmahsul hisoblanadi. Shuning uchun ham, har qanday soha terminologiyasida birikma terminlar soni boshqalariga nisbatan salmog‘i jihatidan birinchi o‘rinda turadi. Xususan, o‘zbek kitobatchilik terminologiyasida ham, kimyo, qurilish, farmatsevtika, texnik terminologiyalardagi singari, yakka so‘zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar ancha salmoqli o‘rinni egallaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kitobatchilik sohasiga oid 4500 terminning 3160 donasi, ya’ni 70 foizini ikki va undan ortiq komponentdan iborat birikma shaklidagi terminlar tashkil etar ekan. Terminologiyaga oid ba’zi manbalarda bir so‘zga teng terminlar sistemaning minimal elementlari, ikki va undan ortiq so‘zlardan tuzilgan birikma shaklidagi terminlar esa, maksimal elementlari sifatida talqin qilinadi. Ular minimal elementlarga ayni sohaning tayanch yoki asos tushunchalarini ifodalovchi asosiy terminlar sifatida ham qaraydilar. Bildirilgan bu fikrlar ko‘p jihatdan o‘zbek kitobatchilik terminologiyasiga ham to‘liq mos keladi. Shu bois, ayni soha terminologiyasida ana shunday minimal elementlar mavjudki, haqiqatan ham ular (kitob, nashr, qog‘oz, nashriyot, muallif kabilar) shu sohaga oid asosiy o‘zak tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday minimal elementlar ishtirokida birikma shaklidagi terminlar yasalishi hodisasi ancha faollashib bormoqda. Masalan, rus tilida ish qurollari, texnika vositalari nomlarini ifodalovchi birikma shaklidagi terminlar yasalishida tushunchalarning umumiy belgilarini o‘z ichiga olgan minimal elementlarning ishtiroki ancha samarali bo‘lmoqda. Masalan, mashina so‘zi ishtirokida juda ko‘plab ikki komponentli birikma shaklidagi terminlar yasalmoqda: машина бумагарезальная, машина адресовальная, машина картонорезальная va h.k..

O‘zbek terminologiyasida birikma shaklidagi terminlarning yasalishida sistemalashtiruvchi minimal elementlarning o‘rni katta. Ayniqsa, ikki komponentli birikma shaklidagi terminlarni yasashda

bunday sistemalashtiruvchi minimal elementlardan keng foydalaniladi. Masalan, o‘zbek kutubxonachilik bibliografiya terminologiyasida birgina kutubxona minimal elementi ishtirokida 80 dan ortiq ikki komponentli termin yasalganligi ma’lum. O‘zbek kitobchilik terminologiyasida ham birgina nashr so‘zi ishtirokida qirqdan ortiq birikma shaklidagi termin yasalgan: bosma nashr, to‘liq nashr, tuzatilgan nashr, yangi nashr va boshqalar. Bu yerda minimal element deb ataganimiz nashr so‘zi umumiy tushunchani ifodalashi uning bir jihati bo‘lsa, ikkinchi jihati, uning birikma shaklidagi terminlarning aniqlanmish komponenti sifatida kelishi orqali narsaning turlariga ko‘ra tabaqalanishini ifodalamoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, o‘zbek kitobchilik terminologiyasida boshqa tillardan kalka usuli bilan o‘zlashgan birikma shaklidagi terminlarning o‘zbekchadagi muqobil variantlari ham birikma shaklidagi termin holatida ifodalangan. Bu holatning mavjudligi ayni soha terminologiyasida birikma shaklidagi terminlar sonining ortishiga olib kelmoqda.

Quyida ushbu holatni ingliz va o‘zbek tillari misolida ko‘rib chiqamiz: printed publication~bosma nashr, continued publication~davomli nashr, washable cover~yuviladigan muqova, hand composition ~ qo‘lda (harf) terish, title of the book~kitobning nomi, abridged edition // condensed edition~qisqartma nashr, printed publication // published work~bosma asar, publication editor~nashr muhariri, paper reel~qog‘oz o‘rami, selection(s)//collection of selected works~tanlangan asarlar to‘plami, book collection~kitoblar to‘plami va h.k..

Rus tilida qo‘shma so‘z shaklidagi terminlarning o‘zbekcha ekvivalentlari birikma shaklidagi termin ko‘rinishiga ega bo‘ladi: книганоска–kitob qopi, книгоописание–kitobni tavsiflash, книгаподъемник–kitob ko‘targich, книгораспространение–kitobning yoyilishi, книгопечатание– kitob bosish va boshqalar.

Lug‘at ishi

Soha	–	область, сфера
Usul	–	метод
Yasovchi	–	образующий
Mutaxassislik	–	специальность
Muqova	–	переплет

Sahifa	–	страница
Birikma	–	состав

1-mashq.

Quyidagi berilgan soʻzlardan iqtisodiyotga oid terminlarni toping.

Maʼruza, aorta, dividend, inflatsiya, antigistamin, valuta, investitsiya, anjuman, bayonot, seminar, ilmiy ish, referat, kredit, soʻm, amyoba, kelishik, mayl, diametr, bank, gripp, flora, soliq, gaymarit.

2-mashq.

Quyidagi berilgan soʻzlardan tibbiyotga oid terminlarni toping.

Anʼana, inflatsiya, urf-odat, amputatsiya, kredit, aorta, anjuman, allergiya, antibiotik, arifmetika, aylana, antigistamin, sinekdoxa, hujayra, bayonot, oqsil, madhiya, gerb, mirgen, laringit, investitsiya.

3-mashq.

-chi hamda –soz affikslari orqali yasalgan terminlarga 5 tadan misol keltiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Test

1. Termin soʻzi qaysi tildan olingan?

- A. Arab
- B. Lotin
- C. Grek
- D. Ingliz

2. “...termin – bu maxsus soʻzlardir”- deb fikr yuritgan olim?

- A. A.Reformatskiy
- B. A.V.Kalinin
- C. R.Doniyorov
- D. H.Jamolxonov

3. Termin bilan professionalizm oʻrtasidagi farq tushunchasini bergan olim?

- A. A.Reformatskiy
- B. A.V.Kalinin
- C. R.Doniyorov
- D. H.Jamolxonov

4. Botanikaga oid terminlarni belgilang.

- A. Toʻrtburchak, kvadrat

- B.Ega, kesim
- C.Gulkosa, shona
- D.Vazn, turoq, qofiya

5. Geometriyaga oid terminlarni belgilang.

- A.To‘rtburchak, kvadrat
- B.Ega, kesim
- C.Gulkosa, shona
- D.Vazn, turoq, qofiya

6. Tilshunoslikka oid terminlarni belgilang.

- A.To‘rtburchak, kvadrat
- B.Ega, kesim
- C.Gulkosa, shona
- D.Vazn, turoq, qofiya

7. Adabiyotshunoslikka oid terminlarni belgilang.

- A.To‘rtburchak, kvadrat
- B.Ega, kesim
- C.Gulkosa, shona
- D.Vazn, turoq, qofiya

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Termin deganda nimani tushunasiz va ular qanday kelib chiqqan?
2. Sohaviy terminlar haqida gapirib bering.
3. Chet tilidan o‘zlashgan terminlar haqida ma’lumot bering.
4. Terminologiya fani va uning xususiyatlari haqida ma’lumot bering
5. Turli sohalarga oid terminlar haqida gapirib bering.
6. Iqtisodiyotga oid terminlar va ularning qaysi tildan o‘zlashgani haqida gapirib bering.
7. Tibbiyotga oid terminlar va ularning ma’nolari haqida ma’lumot bering.
8. Pedagogik terminlar va ularning o‘zbek tilidagi ma’nolari haqida gapirib bering.
9. Bir sohaga oid termini boshqa sohada qo‘llay olamizmi?
10. Psixologik terminlar va ularning qanday ma’no anglatishi haqida ma’lumot bering.

1-topshiriq.

Quyidagi matnni rus tiliga tarjima qiling.

Gul changi – urug‘li o‘simliklar gullari chiqaradigan chang. Gul changiga allergiyasi bor odamlarda daraxt va o‘simliklar gullab

havoda gul changi ko‘p bo‘lgan vaqtda burun oqishi, ko‘zlarning qichishishi kabi holatlar yuz beradi.

2-topshiriq.

Quyidagi berilgan so‘zlarni daftarga ko‘chiring va ularning muqobil variantlarini toping.

Namina: oblast-viloyat

Oblast, rayon, avtor, agitatsiya, propaganda, ideya, plan, forma, protsent, protsess, komandirovka, raport, spravka, student, sekretar, ministr.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Akobirov S. Til va terminologiya. -T., 1968.
2. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek tilining leksik qatlamlari. – T., 1985.
3. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.
4. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
5. Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G. O‘zbek tili (oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.
6. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

MAVZU: KELAJAK – BILIMLI YOSHLAR QO‘LIDA

Ma’naviy jihatdan yuksak insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg‘onish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

I.A.Karimov

Reja:

1. Yoshlar–ertangi kunimiz.
2. Bilimli yoshlar– yurt kelajagi.

Bizning zaminimizdan dunyoga mashhur olimlar, tabiblar, astronomlar yetishib chiqqanligi hech kimga sir emas. Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy kabi jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan ulug' shaxslar bizning diyorumizda kamol topganligi shu Vatanda yashovchi har qanday kishida g'urur hissini uyg'otadi. Yoshlar ajdodlarimizga munosib voris bo'lmog'i, vatanimiz dovrug'ini balandlatmog'i darkor. Buning uchun esa imkoniyatlar bisyor. Respublikamizdagi oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, maktablar yoshlar bilimini oshirishda, ma'naviyatini yuksaltishda ulkan ahamiyatga egadir.

Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, huquqiy bilim va madaniyatini yanada yuksaltirish, ong-u shuurini turli zararli ta'sirlardan asrab-avaylash davlatimiz yuritayotgan siyosatning ustuvor yo'nalishlaridandir. Yurtimizda oldimizga qo'ygan ezgu g'oya va maqsadlarimizni amalga oshirish yo'lida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ijodiy kamol topishi yo'lida "Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti", "Nihol" mukofoti va boshqa bir qator mukofotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, xorijiy tillarga bo'lgan e'tibor bois yoshlarimiz orasida davlat grantlari asosida xorijiy mamlakatlarda o'qiyotganlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Yurtimizning kelajagi mana shunday vatanparvar, mustahkam bilimga ega bo'lgan mutaxassislar bilan yorug'dir.

Ertangi kunimiz, Vatan ravnaqi, yurt kelajagi yoshlar qo'lidir. Bugun yurtimizning har jabhasida, xususan, yoshlar tarbiyasida ularning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish, yangi innovatsion texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirish, ularni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishga qaratilgan qator tadbirlar o'z samarasini berib kelmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 15-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni ham yosh avlodning bo'sh vaqtini samarali o'tkazishini ta'minlash borasidagi chora-tadbirlardandir. Yoshlarning o'zi qiziqqan kasb egasi bo'lishi bilan bir qatorda sport mashg'ulotlariga jalb etish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar ham yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarilgan. Zero, "Sog' tanda - sog'lom aql" deydi donishmand xalqimiz.

Bugun biz ma'naviyatimizni asrashimiz, vatan kelajagi uchun mustahkam poydevor bo'la oladigan munosib farzand bo'lishimiz, oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarimiz tomon mardonavor qadam tashlashimiz, buyuk ajdodlar izi ekanimizni anglamog'imiz, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizni, ulug' ajdodlarimiz merosini chuqur o'zlashtirishimiz bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab mustaqil fikrlashimiz va Ona vatanimizdagi sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga daxldorlik hissi bilan yashashimiz, eng muhimi istiqlolni jon-u tan bilan asrashimiz lozim. Ana shunday noyob, insoniy fazilatlarga, yuksak ma'naviyatli, qorachig'i g'ayrat va shijoatga to'la munosib farzandlari bor xalq hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. Tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga ozuqa beradi, uni yanada kuchaytiradi. Jahon xalqlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, qayerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o'z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo'yib yashashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma'naviy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug'iladi.

Prezident Sh.Mirziyoyev yoshlar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib, hayotdan munosib o'rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz".

Lug‘at ishi

Zamin	–	земля
Ajdodlar	–	предки
Dovruq	–	слава
Donishmand	–	мудрец
Poydevor	–	основание
Mardonavor	–	мужественный
Fazilat	–	достоинство
Qorachiq	–	зрачок

1-mashq.

Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnni ijodiy so‘zlash. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

2-mashq.

“Iqtidorli yoshlar” mavzusida bog‘lanishli matn tuzish. Yoshlar hayotidan qiziqarli hodisa va voqealar to‘g‘risida hikoya tuzish.

3-mashq.

“Mening tengdoshlarim” mavzusida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish.

Test

1. Ushbu so‘zlar qaysi asardan olingan?

“Xalqimiz dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo‘lishlari shart”.

A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. I.A.Karimov.

B. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimi bilan birga quramiz”. Sh.M. Mirziyoyev.

C. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. I.A.Karimov.

D. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Sh.M.Mirziyoyev.

2. Ushbu so‘zlar muallifini belgilang.

“Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib, hayotdan munosib o‘rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”.

A.I.A.Karimov

B.Sh.M.Mirziyoyev

C.A.Fitrat
D.A.Oripov

3.Sh.M.Mirziyoyevning “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?

- A. 2016-yil 1-oktabrda
- B. 2016-yil 15-sentabrda
- C. 2016-yil 15-noyabr
- D. 2016-yil 15-dekabr

4. “Bir bolaga yetti ... ham ota, ham ona”. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘ying.

- A. Mahalla
- B. Qo‘shni
- C. O‘qituvchi
- D. Qarindosh

5. "Kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega" ekanligi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning nechanchi moddasida belbilangan?

- A. 2-moddasida
- B. 3-moddasida
- C. 5-moddasida
- D. 4-moddasida

Savol va topshiriqlar:

1. Ilm deganda nimani tushunasiz?
2. Ilmli inson degandachi?
3. Ilm aql chirog‘i deganda nimani tushunasiz?
4. Ilm sari yo‘l degandachi?
5. Ilm haqida maqollar ayting.
6. Ilm haqida qanaqa she‘rlar bilasiz?
7. Ilm bilim bulog‘i deganda nimani tushunasiz.
8. Ilm so‘zining ma’nosi?
9. “Ilmli kishi xor bo‘lmas” bu haqida sizning fikringiz.

1-topshiriq.

Hikmatli so‘zlarni daftarga ko‘chiring va mazmunini tushuntirib bering.

Bolalaringga sukut saqlashni o‘rgat. Gapirishni o‘zlari o‘rganib oladi.

Benjamin Franklin

Agar bolalardagi sho‘xlikni o‘ldirsangiz hech qachon aqlli odamni tarbiyalay olmasiz.

Jan Jak Russo

Bolalar ularga gapirmagan paytingizda diqqat bilan eshitadi.

Eleanora Ruzvelt

Bolalikda onga singdirilgan qonun-qoidalar yosh daraxtga o‘yilgan harflarga o‘xshaydi: bir umr birga bo‘ladi.

Viktor Gyugo

Agar bolalar gapingni eshitishini xohlasang, kim bilandir past ovozda gaplashib ko‘r.

Enn Landers

Bolaning bir soati qariyaning bir kunidan uzunroq.

Artur Shopengauer

Bolalar – bizning ertangi sudyalarimiz.

Maksim Gorkiy

Qabrimiz ustida yig‘lashi uchun bolalaringizni ko‘z yosh to‘kishdan asrang.

Pifagor

Insoniyatni bolalarsiz bunchalik sevib bo‘lmasdi.

Fyodor Dostoyevskiy

Odobli bola ota-onasini kasal bo‘libgina xafa qilishi mumkin.

Konfutsiy

2-topshiriq.

Quyidagi maqollarni ruschaga tarjima qiling.

Bir yigitga yetmish hunar oz.

Ilm – aql chirog‘i.

Boylikning kaliti– bilim.

Bilim–baxt keltirar.

3-topshiriq.

She’rni o‘qing va yodlang.

YO‘Q, HALOVAT ISTAMAYMAN

E.Vohidov

Yo‘q, halovat istamayman,

Orom bilmas yosh jonim.

To‘lqin urgan ummoncha bor,

Yurakdagi tug‘yonim.

Bo‘ronlarga, dovullarga
Peshvoz yurgim keladi.
Daryolarning girdobiga,
Ko‘krak urgim keladi.
Tinchlik bilmas odatimdan,
Ozor cheksam mayliga.
Olov bo‘lib bir dam yonsam,
So‘ng o‘chsam ham mayliga...
Har mushkulga bardosh berar,
Chidar mening tosh boshim.
Ammo sokin, tinch yashashga
Sira yo‘qdir bardoshim.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T: O‘zbekiston, 2011.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. T:Ma’naviyat, 2008-yil.
3. Karimov I.A. “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”. T:O‘zbekiston,1994.
4. Karimov I.A. “O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi”. T:O‘zbekiston, 2005.
5. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. T.: O‘zbekiston,1998.
6. Karimov I. A. “O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. T. 1. – T., 1996.
7. Karimov I. A. “Ilmu ma’rifat ziyosi hech qachon so‘nmaydi” (Prezident Islom Karimovning Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi) // Xalq so‘zi. – 2006. –3 noyabr.
8. Karimov I. A. “Inson manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish ustuvor vazifamizdir” (Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi) // Xalq so‘zi. – 2006. – 7 dekabr.191
9. Karimov I. A. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. – T., 1996.
10. Karimov I.A. “Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz”. Xalq so‘zi. 1996- y, 25 noyabr.

11. Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar matni, T, 2000.
12. Konfutsiy. Pand – o'g'itlar. «Sog'lom avlod uchun» jurnali, 1997-yil, 5-6 sonlar.
13. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.
14. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O'zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
15. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

MAVZU: O'ZBEK TILIDA SINONIMLAR

Reja:

1. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.
2. Sinonimlar – fikrni jozibali qilish vositasi.
3. Sinonimik qator va dominanta.

Tilda sinonimlarning ko'p uchrashi so'z boyligini ko'rsatadigan muhim dalildir. Sinonim so'zlardan unumli foydalanish badiiy asarlarning mazmunli, ta'sirli chiqishini, hamda ularning badiiyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ham aytish kerakki, tilda bir-biriga tamomila o'xshash, hech farq qilmaydigan so'zlarning yonma-yon ishlatilishi tilni boyitmaydi. Masalan, o'zbek tilidagi traktorchi-traktorist, gazeta-ro'znoma, buxgalter-hisobchi, aeroport-tayyoragoh, rus tilida samolyot-aeroplan kabi. Shuning uchun bunday so'zlar kam uchraydi. Til bunday so'zlarning biridan to'liq foydalanib, ikkinchisini esa iste'moldan chiqarib tashlashga intiladi. Har bir tilning sinonimlari boshqa tillardan kirgan so'zlar, shuningdek, shu tilning o'z imkoniyatlaridan foydalanib yasalgan so'zlar hisobiga boyib boradi. Masalan, tajriba ~ arabcha, sinov-o'zbekcha; muhabbat, ishq-arabcha, sevgi-o'zbekcha; chashma-forscha-tojikcha, buloq-o'zbekcha va boshqalar. Sinonimlarning o'zaro farqii xususiyatlari talaygina bo'lib, ulardan eng asosiysi ularning har birining ma'nosidagi farqii belgilardir. Sinonimlarning o'zaro farqli belgisi, avvalo, ularning ma'no hajmida, aniqrog'i, ma'no nozikligida ko'rinadi. Masalan, o'zaro sinonim bo'lgan

soʻzlardan biri biron-bir qoʻshimcha maʼno nozikligiga ega boʻlmasligi, boshqasi esa qandaydir farqli maʼno nozikligiga ega boʻlishi mumkin. Yuvosh, moʻmin, qobil sinonimlaridan yuvosh soʻzi shaxsga, shuningdek, hayvonlarga nisbatan qoʻllanaveradi. Lekin moʻmin, qobil soʻzlari faqat odamga nisbatan ishlatiladi. Demak, sinonimlarning oʻzaro farqli xususiyatlaridan biri ularning qoʻshimcha maʼno nozikligiga ega yoki ega emasligida boʻlib, bu xususiyat shu sinonimik qatordagi soʻzlarning qoʻllanish doirasini, qoʻllanish oʻrnini ham belgilaydi. Sinonimlar bildiradigan vaqt, harakat, belgi, miqdor kabilarda ularning har birida belgining darajasi har xil boʻlishi mumkin. Masalan, avval, oldin, ilgari, burun, qadim sinonimlaridan ilgari soʻzida vaqtning oʻtishiga qarab uzoqlik darajasi avval, oldin soʻzlaridagidan ortiq. Burun soʻzida ilgari soʻzidagiga nisbatan, qadim soʻzida esa burun soʻzidagiga nisbatan ortiqroq. Ishchan, harakatchan, serharakat, gʻayratli, sergʻayrat, tirishqoq, urinchoq sinonimlaridan gʻayratli, sergʻayrat, tirishqoq soʻzlari belgini kuchliroq maʼno bilan ifodalaydi. Shuningdek, kambagʻal, qashshoq sinonimlaridan qashshoq soʻzi belgini kuchli maʼnoda ifodalaydi. Kuch, quvvat, mador, majol, darmon sinonimlaridan mador, majol, darmon soʻzlari, asosan, kuch-quvvatning normal holatdan pastligini ifodalashda qoʻllanadi. Demak, sinonimlar bildirgan belgi darajasidagi har xillik ham shu soʻzlarning maʼnosidagi farqli maʼno nozikliklari sanaladi. Sinonimlar nutqda ishlatilishi doirasiga koʻra sinonimiya qatorini hosil qiladi. Masalan: a) yuz, bet, aft, bashara, chehra, siymo, b) yurak, dil, qalb, koʻngil kabilar. Sinonimiya qatorini tuzishda har qanday uslubda qoʻllanishi mumkin boʻlgan «betaraf» soʻz asos qilib olinadi. Sinonimiya qatoridagi qolgan soʻzlarning maʼnodoshligi ana shu «betaraf» soʻzni solishtirish natijasida aniqlanadi. Masalan, yuz, bet, aft, bashara, chehra, siymo sinonimiya qatorida yuz soʻzi «betaraf» soʻz boʻlib, uning isteʼmol doirasi kengdir, har qanday uslubda qoʻllanaveradi: yuzi tanish, yuzingni yuv, yuzi yoqimli, yuzing qursin. Lekin shu qatordagi bet, bashara, aft, chehra, siymo soʻzlarining isteʼmol doirasi nisbatan chegaralangan (tor) boʻlib, ular turli uslubiy boʻyoqlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday soʻzlar bilan predmetga boʻlgan ijobiy yoki salbiy munosabatni yaqqol ifodalash mumkin. Chunonchi, chehrasi issiq, chehrasi yoqimli, chehrasi ochiq deyish mumkin, chehrasi qursin deb aytish mumkin emas. Shunday qilib, yozilishi ham, talaffuzi ham boshqa-boshqa

bo'lib, umumlashgan, bir tushunchani ifodalaydigan, lekin ma'no nozikliklari jihatidan bir-biridan birmuncha farq qiladigan so'zlar sinonimlar deb ataladi.

Sinonimlarni yuzaga kelishida polisemantik so'zlarning ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, polisemantik so'z o'zining har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonim qatorida ishtirok etib, uni boyitadi. Masalan: *balo – falokat – ofat; balo – uddaburon – bilog'on-ishbilarmon* kabi ma'nodoshlik qatorida *balo* so'zi o'z va ko'chma ma'nosi bilan ishtirok etgan.

Sinonimlar fikrni aniq, maqsadga muvofiq tarzda ifodalash vositalari bo'lib, xuddi mana shu omil ularni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Sinonimlar yuzaga kelishi va ma'nolariga ko'ra quyidagi turlarni tashkil qiladi:

1.To'liq (sof) sinonimlar. Aynan bir tushunchani anglatish va nutq jarayonida biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkinligi bilan ajralib turadi. Ular ko'pincha boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashma so'zlarning o'zbekcha so'zlar bilan ma'nodoshligi asosida hosil bo'ladi: *kuch* (o'zb.)- *qudrat* (ar.), *ot* (o'zb.)-*ism* (ar.), *ko'klam* (o'zb.)-*bahor* (toj.), *tuman* (o'zb.)-*rayon* (rus). Shuningdek, *fazo-kosmos, muharrir-redaktor* kabi faqat o'zlashma so'zlardan tuzilgan sinonimlar ham to'liq sinonimlardir.

2.Ma'noviy sinonimlar. Bir-biridan nozik ma'nolari ya'ni ijobiy, salbiyligi yoki uslubiy va boshqa jihatdan farqlanuvchi ma'nodosh so'zlardan tashkil topadi. Masalan, *kuldi, jilmaydi, tirjaydi, iljaydi, ishshaydi* kabi ma'nodosh so'zlar kulish harakatining darajasiga hamda ijobiy va salbiy bo'yoqdorligiga ko'ra *chiroyli, go'zal, xushro'y, ko'hli, ko'rkam, barno, suluv, zebo, latif* kabi sinonimlar esa ijobiy bo'yog'ining darajasiga ko'ra farqlanadi.

3.Shartli sinonimlar. Muayyan matndagina ma'nodoshlikka ega bo'ladigan sinonim so'zlardir. Ular ko'pincha she'riyatda kuchli his-tuyg'u ifodalovchi vositalar sifatida qo'llaniladi: *Nega kerak shu chiroy, shu o't, Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq* (H.O.) Parchadagi *chiroy, o't, yoniq yulduz* o'zaro ma'nodosh so'zlar sifatida ishlatilgan shartli sinonimlardir. Bunday sinonimlar mumtoz adabiyotda *qad-sarv, lab-la'l, yuz-oy, hilol* kabi tashbehtar asosida ham keng qo'llaniladi.

Sinonimlar tuzilishiga ko'ra a) sodda: *tez-chaqqon-ildam*; b) juft: *sog'-salomat, el-yurt*; v) birikmali: *yuzi qora-beti qora-ori yo'q*

shaklida uchraydi.

Ayni paytda soʻzlar frazeologik birikmalar bilan ham maʼnodoshlik hosil qilishi mumkin. Masalan: *sevindi, boshi koʻkka yetdi; xotirjam, koʻngli toʻq*. Bunday maʼnodoshlik **leksik-frazeologik sinonim** deyiladi.

Sinonimlarni deyarli barcha soʻz turkumlarida uchratish mumkin.

Masalan,

- 1) ot sinonimlar: *baxt, saodat, tole, iqbol*;
- 2) sifat sinonimlar: *goʻzal, chiroyli, koʻrkam, koʻhlik, suluv*;
- 3) olmosh sinonimlar: *barcha, bari, hamma, butun*;
- 4) feʼl sinonimlar: *oʻsmoq, ulgʻaymoq, voyaga yetmoq*;
- 5) ravish sinonimlar: *tez, chaqqon, ildam*;
- 6) aralash sinonimlar: *besh, aʻlo, muvaffaqiyatli* (son va sifat turkumlari asosida);
- 7) koʻmakchi sinonimlar: *kabi, singari*;
- 8) bogʻlovchi sinonimlar: *ammo, lekin, biroq*;
- 9) modal soʻzli sinonimlar: *shubhasiz, shaksiz, soʻzsiz*.

Sinonimlar tilning lugʻaviy boyligini, koʻrkamligini belgilovchi vositalardan biri boʻlib, ular nutq jarayonida oʻrinsiz takrordan, uslubiy gʻalizliklardan saqlanishda muhim ahamiyatga ega boʻladi.

Lugʻat ishi

Badiiy	–	художественный
Isteʼmol	–	употребление
Xususiyat	–	особенность
Yuvosh	–	смирный, тихий
Miqdor	–	количество
Daraja	–	степень
Burun	–	прежний
Qadim	–	древность
Urinchoq	–	усердный
Qashshoq	–	нищий
Betaraf	–	нейтральный
Uddaburon	–	способный

1-mashq.

Gaplarda belgilangan soʻzlar oʻrnida toʻgʻri keladigan

soʻzlarni (sinonimlarni) topib yozing.

1. Buldozer koʻchamizda **yiqilgan** va **yiqilay** deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yoʻl ochar edi.

2. Choʻponlar **ozgʻin** qoʻylarning parvarishiga alohida eʼtibor bermayotirlar.

3. Brigada aʼzolaridan R.Avvalov va M.Qobilovlar tunda **tashna** gʻoʻzalarni suvga qondirib sugʻorishyapti.

2-mashq.

Quyidagi soʻzlarni oʻzbek tiliga tarjima qiling va sinonimlarini yozing.

Бесценный, двигать, говорить, насущный, умелый, творить, большой, радостный, гневный, думать, сказка, совершается, дорогой, любой.

Namuna: Бесценный-bebaho, qimmatbaho

3-mashq.

Nuqtalar oʻrniga quyida berilgan maʼnodosh soʻzlardan mosini qoʻyib gaplarni koʻchiring.

Akmal aka ikkalamiz qoldik. Chigirtkalarining chirillashini, ... muallaq turib qanot ... soʻfitoʻrgʻayning issiqdan ... vijir-vijir ... demasa, atrof ... edi. Akmal aka xurjunga ... qoʻyib birpas choʻzildi. Men ... oʻtiribman.

Soʻzlar: koʻkda, osmonda, samoda, fazoda, silkitayotgan, qoqayotgan, shikoyat qilib, nolib, sayrashini, chugʻurlashini, tinch, jimjit, osuda, boshini, kallasini, qoshida, oldida, yonida.

Test

1. Oʻzlashma soʻzlardan tuzilgan toʻliq sinonimlarni belgilang.

A.Kuch, qudrat, ot, ism, koʻklam, bahor

B.Qudrat, ism, bahor, rayon

C.Bahor, rayon

D.Ot, koʻklam

2. Salbiy boʻyoqdor maʼnoga ega sinonimlarni belgilang.

A. Kuldi, iljaydi

B.Jilmaydi, iljaydi

C.Tirjaydi, iljaydi, ishshaydi

D.Ishshaydi, kuldi

3. Juft sinonimlarni belgilang.

- A. Tez-chaqqon-ildam
- B. Yuzi qora-beti qora-ori yo‘q
- C. Sog‘-salomat, tez-chaqqon
- D. El-yurt, sog‘-salomat

4. Sinonimlar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunos olimlarni belgilang.

- A. H. Ne‘matov, M. Mirtojdiyev
- B. H. Jamolxonov, M. Mirtojdiyev
- C. B. Mengliyev, H. Ne‘matov
- D. A va B javoblar to‘g‘ri

5. –lar qo‘shimchasi qaysi javobdagi so‘zlarda ko‘plik ma’nosini ifodalamaydi?

- A. Besh so‘mlar, soatlar, ellar, zavqlarim.
- B. Dadamlar, ruhlar, yuraklar, bog‘lar.
- C. Tuyg‘ular, buvimlar, o‘zlariga, uch yoshlarda.
- D. Yo‘llar, Anvarlar, besh kunlar, buyumlar.

6. Sinonim sifatlar berilgan qatorni aniqlang?

- A. Cheksiz, behad, bardoshli, benihoya
- B. Chopqir, chapag‘on, metin
- C. Uyat, nomus, g‘urur, hayo
- D. Sezgir, ziyrak, hushyor, sergak

7. Leksik sinonimlar berilgan qatorini toping.

- A. Katta, ketyapti
- B. Katta, ulug‘
- C. Katta, kichik
- D. To‘g‘ri javob yo‘q

Savol va topshiriqlar:

1. Sinonim so‘zlar o‘zaro necha xil turkum doirasida mavjud bo‘ladi?
2. Shakli bir xil ma’nolari turlicha so‘zlarga.....deyiladi.
3. Sinonimik qator va dominanta (bosh so‘z) haqida gapiring.
4. O‘zlashma va yasama so‘zlarning sinonimik xususiyatlari haqida gapiring.
5. Sinonimlarning turlari haqida gapiring.

1-topshiriq.

Berilgan so‘zlarning sinonimlarni toping.

Istak, ko‘ngil, inson, mard, dono, dunyo, dashnom, yolqov, to‘g‘ri, qidirmoq, avvalgi.

2-topshiriq.

Namunadagi kabi mustaqil va yordamchi soʻz turkumlarining maʼnodoshlik munosabatiga misollar keltiring.

Namuna:

1. Feʼl soʻz turkumida maʼnodoshlik munosabati: yetishmoq, yetmoq, erishmoq, muyassar boʻlmoq, muvaffaq boʻlmoq, vosil boʻlmoq, noil boʻlmoq.
2. Ot soʻz turkumida maʼnodoshlik munosabati: Andisha, oʻy, mulohaza.
3. Sifat soʻz turkumida maʼnodoshlik munosabati: qizil, qirmizi, ol.
4. Olmosh soʻz turkumida maʼnodoshlik munosabati: hamma, barcha, bari, butun.
5. Ravish soʻz turkumida maʼnodoshlik munosabati: aslo, sira, zinhor, hech.
6. Koʻmakchi soʻz turkumida maʼnodoshlik munosabati: qarab, tomon, sari.
7. Bogʻlovchi soʻz turkumida maʼnodoshlik munosabati: va, hamda.

3-topshiriq.

Ot, sifat, olmosh, feʼl, ravish, aralash, koʻmakchi, bogʻlovchi, modal soʻzli sinonimlarni toping va daftarga yozing.

Goʻzal, baxt, butun, tole, iqbol, chiroyli, koʻrkam, koʻhlik, saodat, suluv, bari, ulgʻaymoq, barcha, hamma, ildam, oʻsmoq, voyaga yetmoq, tez, aʼlo, chaqqon, besh, muvaffaqiyatli, lekin, kabi, shaksiz, singari, ammo, shubhasiz, biroq, soʻzsiz.

Namuna: bogʻlovchi sinonimlar: ammo, lekin, biroq.

4-topshiriq.

M aʼnodosh soʻzlardan mosini qoʻyib gaplarni k oʻchiring.

Daryo suvini (bahor, koʻklam) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar.

Oltin (oʻt, olov, alanga)da, odam (ish, mehnat)da bilinadi.

Birlashgan (yov, dushman) ni qaytarar.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. A.Aliyev., Q.Sodiqov. Oʻzbek adabiy tili tarixidan. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1994. -118
2. A.Hojiyev. Oʻzbek tili soʻz yasalishi tizimi –Toshkent, 2007. 167 bet.

3. A.Hojiyev. O‘zbek tilining morfem lug‘ati. –Toshkent, 1992, 225 bet.
- 4.Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta‘lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.
5. Mengliyev B.R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Qarshi, 2004.
- 6.Normatova Sh., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
- 7.Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

MAVZU: ZAMONAVIY DUNYODA TA’LIM

Reja:

1. Ta’lim – dolzarb masala.
2. Zamonaviy ta’lim.
3. Ta’lim va tarbiya uzviyligi.




Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar” kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo‘llagan tabrigida O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha ”Harakatlar

strategiyasi” asosida barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar muvaffaqiyati, mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan bog‘liq ekani alohida ta‘kidlandi.

Har bir mamlakat o‘z mezonlari asosida ta‘lim tizimini belgilaydi. Shuning uchun turli davlatlarda ta‘lim olish imkoniyatlari turlicha bo‘ladi. Tizimga asos solinayotganda mamlakatning tarixiy an‘analari, bugungi kun talablari inobatga olinadi.

Mustaqil Respublikamizda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos «milliy modelni» hayotga tadbiq qilishga, ma‘naviyatimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshiriladi:



Zamonaviy ta‘lim-tarbiya – jamiyat taraqqiyotining muhim asosi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda ta‘lim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida qabul qilingan sohaga oid qonunlar, farmonlar, davlat dasturlariga binoan ko‘plab ta‘lim muassasalari yangidan qurildi, ta‘mirlandi, eng zamonaviy o‘quv anjomlari bilan ta‘minlandi. 2017-yilda ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda maktabgacha ta‘lim-tarbiya tizimi uchun muqobil dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilindi.

Yangilangan dasturlar bolalarni maktabga yanada sifatli tayyorlashga, ularning intellektual qobiliyati va mantiqiy fikrlash salohiyatini yuksaltirishga, oldingidan farqli ravishda yozish va o'qishni yanada yaxshiroq o'rganishiga xizmat qiladi. Fan va texnika yutuqlarini, zamonaviy axborot texnologiyalari yangiliklarini inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun 18 umumta'lim fanidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari takomillashtirildi. Ushbu davlat ta'lim standartlari asosida bosqichma-bosqich darslik va o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirishda umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlardan keng foydalaniladi. Ta'lim mazmuni umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturlariga kiritilgan mavzular asosida ta'limning barcha turlarida uzviylik, uzluksizlik va davriylikni ta'minlaydi.

Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi – davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani taraqqiy ettirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish bo'yicha aniq, hayotiy islohotlar, ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilab berilgan. Harakatlar strategiyasidagi beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Aholi farovonligini ta'minlash, bandlik, salomatlikni muhofaza qilish, uy-joy masalalari qatoridan ta'lim-tarbiya tizimini taraqqiy ettirish masalasi ham o'rin olgan. Farmonga binoan ta'lim va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirishda qator fanlar, jumladan, chet tillar, matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi.

Lugʻat ishi

Taʻlim	–	образование
Tarbiya	–	воспитание
Shijoat	–	храбрость
Islahot	–	реформа
Muassasa	–	учреждение
Takomillashtirish	–	совершенствоваться
Meʻyor	–	мера, норма
Uzluksiz	–	беспрерывный

1-mashq.

Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Finlandiyada nufuzli yoki oddiy maktab tushunchasi yoʻq. Hamma maktab davlatga tegishli boʻlib, ular bir xil moliyalanadi va bir xil asbob-uskuna va imkoniyatlarga ega. Kichik sinflarda bolalarga uy vazifasi berilmaydi, imtihon topshirmaydi va ularga baho qoʻyilmaydi. Fin maktablarida bolalar juda koʻp insho yozadi: mustaqil ishlash bolaga har bir masala haqida oʻz fikriga ega boʻlishni va fikrini badiiy tilda izohlashni oʻrgatadi. Bir fanni boshqa fanlar oʻrnida chuqurroq oʻrganish maʼqullanmaydi. Masalan, finlar matematikani sanʼatdan koʻra chuqurroq oʻrganish kerak deb hisoblamaydi. Bir oʻquvchini boshqa oʻquvchi bilan qiyoslash taqiqlangan. Nogiron va qobiliyatli bolalar bir sinfdan oʻqishadi.

2-mashq.

Matnni oʻqing va soʻzlab bering.

Avstraliya: ikkita majburiy fan

Oʻquv yili davomiyligi: 11 oy, haftasiga 5 kundan, taʻlim olish davomiyligi: 12 yil, taʻlim olish yoshi: 5-11 yil. Uy vazifasi: yoʻq. Maktab formasi: bor. Baho tizimi: 100 ballik. Bilimni sinash: testlar, insholar va dokladlar; baholar yiliga ikki marta pochta orqali yuboriladi; uchinchi sinfdan boshlab har ikki yilda imtihon topshiriladi.

Oʻqish mavsumi

Yangi oʻquv yili yangi yil bayramidan biroz keyin boshlanadi, yaʼni yanvarning oxiri va fevralning boshida boshlanib, dekabrning boshlarida tugaydi. Taʼtillar har chorak orasida oʻn kundan iborat boʻladi. Darslar 08:30 da boshlanadi, katta tanaffuslar bilan soat 15:00 gacha davom etadi

13 yoshgacha o'g'il bolalar shortiklarda yuradilar, keyin esa shimga o'tadilar. Tepa qismiga pidjak yoki jemfer bo'lishi mumkin, biroq barcha maktablarda o'quvchilar shlyapa kiyishlari shart. Qizlarning maktab kiyimida getralar ajralib turadi. Yuqori sinf o'quvchilarining formalari hamma maktablarda har xil, ularga boshlang'ich sinf o'quvchilarining hududiga kirishi taqiqlanadi.

Ikkita majburiy fan

Yettinchi sinfgacha o'quvchilarga barcha fanlardan bir yoki ikkita muallim ta'lim beradi. Ta'lim olish formal emas, o'quvchilar sinfda o'zlarini erkin tutadilar. Ular sinfda yuradilar, bemalol gaplashib ham o'tiradilar, hatto polda ham o'tirishlari mumkin. 8-sinfdan 10-sinfgacha o'qituvchilarning soni oshadi. Bolalar matematika va ingliz tilini majburiy o'rganadilar, qolgan fanlarni o'zlari tanlaydilar. Yuqori, ya'ni 11-12-sinflarda ta'lim olishning murakkabligiga qarab bo'linadilar. Avstraliya maktablarida bahoning aniq bir tizimi mavjud emas. Boshlang'ich sinflarda baholar umuman qo'yilmaydi. 3-6-sinflarda o'quvchilar haftalik test sinovlarini, nazorat ishlarini va diktantlarni topshiradilar. Biroq baholar bir yilda ikki marta qo'yiladi va ota-onalarga pochta orqali yuboriladi.

Savollar va topshiriqlar:

- 1.Zamonaviy ta'lim-tarbiya nima?
- 2.Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishini aytib bering.
- 3.Qachon maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimi uchun muqobil dasturlar ishlab chiqildi?

1-topshiriq.

O'zbek tiliga tarjima qiling.

Молодёжь с её талантами и жаждой знаний – вот с кого начинается культура и постижение духовности (И.А.Каримов).

2-topshiriq.

Rus tiliga tarjima qiling.

Kitobim– oftobim

Kitob – bilim manbayi.

Kitob aql qayrog'i, O'quvchining o'rtog'i.

Kitob xazina – bilim boylik.

3-topshiriq.

Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqida ma'lumot tayyorlang.

4-topshiriq.

Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlarni yozing.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.
2. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O'zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
3. Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlariga talabalariga uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.
4. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 448 b.

MAVZU: TIL VA TERMINOLOGIYA

Reja:

1. Til – murakkab muloqot tizimi.
2. Terminologiya – tilshunoslikning eng kichik bo'limi.
3. Terminologiyaning rivojlanishi va boyish yo'llari.

Til deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Tilni o'rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi. Jahon tillari miqdorini aniqlash uchun til va sheva orasida farq o'rnatish zarur. Shunga qaramay, tillar soni 6-7 ming orasida, deb hisoblanadi.

Til – jamiyat boyligi, u jamiyat a'zolarining o'zaro aloqasini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma'naviy turmushida ro'y

beradigan barcha voqea hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi; til ayni ma'noda asrlar mobaynida shakllanadi va mavjud bo'ladi. Tafakkur tilga qaraganda birmuncha tezroq rivojlanadi va yangilanadi, lekin tilsiz tafakkurni tasavvur etib bo'lmaydi: tilda ifodalanmagan fikr noaniq, tushunarsiz bir narsa bo'lib, insonga borliq voqea-hodisalarini anglab yetishida, fanni rivojlantirish va takomillashtirishida yordam bera olmaydi. Tafakkur tilsiz mavjud bo'lmas ekan, til ham tafakkursiz yashay olmaydi. Biz o'ylab turib gapiramiz va yozamiz, o'z fikrlarimizni tilda aniqroq va tushunarliroq bayon etishga harakat qilamiz. Demak, fikrlar til negizida paydo bo'ladi va unda mustahkamlanadi; til bilan tafakkur bir butunlikni tashkil etadi.

Tillar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Tilshunoslar fikriga ko'ra bugun mavjud tillarning 50 dan 90 foizigachasi 2100-yilga kelib yo'qolib ketadi.

Hozirgi davrda turli millat, elat va qabilalarga tegishli 2500 dan 5000 tagacha (ba'zi manbalarda 3000—7000 oralig'ida) jonli til borligi ma'lum.

Til mehnat va ijtimoiy ong bilan birgalikda bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan, insonni hayvondan farqlovchi 3 ta eng muhim xossalardan birini tashkil etadi. Ushbu xossalardan ichida mehnat muhim ahamiyatga ega bo'lib, u jamiyat mavjudligining moddiy asosi hisoblanadi.

Til nafaqat fikrni ifodalash yoki fikr almashish vositasi, balki ijtimoiy ongda fikrlarni shakllantirish va mustahkamlash vositasi ham hisoblanadi.

Termin grekcha terminus so'zidan olingan bo'lib, chek, chegara degan ma'noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z hisoblanadi.

Terminologiya – terminlar haqidagi ta'limot va terminlar majmui degan ma'nolarni anglatadi.

Termin so'zi o'rnida ba'zan atama, istiloh so'zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to'g'ri emas. Atama termin so'ziga nisbatan tor tashunchani ifodalaydi. Istiloh so'zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va me'yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'zni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri

anglash imkonini beradi.

A.Reformatskiy terminga ta'rif berar ekan, "... terminlar – bu maxsus so'zlar" degan xulosaga keladi.

A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasb-korlikda ishlatiladigan so'zlarni "maxsus leksika" deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi. 1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi. 2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. U o'z fikrini davom ettirib, "Termin bilan professionalizmlar o'rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir",-deydi.

R.Doniyorov bu fikrga e'tirozan, "Bunday qat'iy da'vo, aslini olganda, tilni sinfiy deb hisoblagan ayrim "olim"larning qarashlari davomidir desak, xatoga yo'l qo'yasmiz" deya munosabat bildiradi. H.Jamolxonov terminga munosabatda bo'lar ekan quyidagicha yozadi: "Terminlar fan-texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shona (botanikada); to'rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omili uning tartibga solinganligi va muntazamligidir.

Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umummadaniy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich–chala o'tkazgich – nimo'tkazgich terminlari qo'llanmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qish, o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi.

Shu sababli ham terminalogiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiyaning rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega. Ammo shuni ham aytish o'rinliki, bu jarayonda ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarni o'rinsiz, sun'iy ravishda yangi yasalmalar yoki arab va fors-tojikcha so'zlar bilan almashtirish hollari ham kuzatiladi.

Masalan, bankrot – sinish, buxgalter – hisobchi, gazeta – ro'znoma, jurnal – majalla (jarida, oybitik, oynoma), institut – oliygoh, (ta'limgoh), klub – tomashgoh (tadbirgoh), kompensatsiya – tovon, medal – nishon, fakultet – kulliyot, kurs – bosqich, fonetika – tovushshunoslik, sinonim – ma'nodosh, omonim – shakldosh, antonim – zid ma'noli va hokazo.

Lug'at ishi

Nutq	–	речь
Sheva	–	говор
Tafakkur	–	мышление
Xossa	–	свойство
Ta'limot	–	учение
Barqaror	–	устойчивый

1-mashq.

Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Словами можно смерть предотвратить,
Словами можно мертвых оживить.

А.Навои

Самая большая ценность народа – его язык. Язык, на котором он говорит и думает. С самого раннего детства и до глубокой старости вся жизнь человека неразрывно связана с языком. Ребенок ещё не научился как следует говорить, а его чистый слух уже ловит журчание бабушкиных сказок, материнской колыбельной песенки. Но ведь сказки и прибаутки – это язык...

2-mashq.

Til haqidagi maqollarni rus tiliga tarjima qiling.

Til – millatning joni. Tilini yo'qotgan millat, o'zini ham yo'qotadi. Ko'ngli va tili bir bo'lgan kishining aytgan so'zi but.

Ko'ngil mahzaning qulfi til va u til kalitin so'z bil. Til keskir qilich, so'z esa qaytarib bo'lmas o'qdir.

3-mashq.

Geografiya faniga oid atamalarni izohi bilan ko'chiring.

Namuna: garmisel — issiq (quruq) shamol.

Durbin, vulqon, atlas, gerbariy, gipoteza, materiklar, kanal, kontur karta, magnit, mineral, meteorologiya, radiatsiya, toponim, ekvator, yupiter, qo'ltiq, balans, biosfera.

4-mashq.

Quyidagi berilgan gaplardan matematika faniga oid termini toping.

Toshkent shahrida ko'plab teatrlar faoliyat yuritmoqda.

Osiyoning hududi Yevropa hududidan katta.

“Avesto” zardushtiylik dinining asosiy manbai hisoblanadi.

Futbol maydonining diametri 30 metrni tashkil qiladi.

Maktabimizda o'tkazilgan hasharga yordamchilar keldi.

Vatanparvarlik vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatdir.

Test

1. Atamalarni o'rganuvchi bo'lim?

- A.Leksikologiya
- B.Terminologiya
- C.Frazeologiya
- D.Barchasi to'g'ri

2. O'zbek atamashunos olimlarini belgilang.

- A.S.Ibrohimov, S.Akobirov
- B.Olim Usmon, R.Doniyorov
- C.X.Shamsiddinov, A.Madvaliyev
- D. Barchasi to'g'ri

3. Unli, undosh, reduksiya, omonim, sinonim terminlari qaysi sohaga tegishli?

- A.Adabiyotshunoslik
- B.Tilshunoslik
- C. Barchasi to'g'ri

4. Fazoga ilk bora qanot qoqqanni,

Ikar deb atamish xayolan inson(A.Oripov).

Belgilangan Ikar ismi qaysi fan bilan bog‘lanishi mumkin?

- A. Anomiya
- B. Fiziologiya
- C. Onomastika
- D. Astronomiya

5. Umumbashariy tildagi sinonimiya, omonimiya, ko‘p ma’nolilik terminologiyada qanday hodisa hisoblanadi?

- A. Ijobiy
- B. Til boyligi
- C. Salbiy
- D. Barchasi to‘g‘ri

6. 1950-yillarda o‘zbek tili terminologiyasi sohasidagi ishlarni kim boshqargan?

- A. O‘zbek tilshunos olimlari
- B. O‘zbek va rus tilshunos olimlari
- C. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti qoshidagi Terminologiya bo‘limi
- D. O‘zbekiston SSSR Oliy Sovet Prezidiumi huzuridagi Til va terminologiya komiteti

7. Hozirda o‘zbek tili terminologiyasi sohasidagi ishlarni kim boshqaradi?

- A. O‘zbek tilshunos olimlari
- B. O‘zbek va rus tilshunos olimlari
- C. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti qoshidagi Terminologiya bo‘limi
- D. O‘zbekiston SSSR Oliy Sovet Prezidiumi huzuridagi Til va terminologiya komiteti

Savollar va topshiriqlar:

1. Terminlarning boshqa so‘z turkumlaridan farqi bormi?
2. Terminlarning turlari qanday?
3. O‘zbek tili terminologiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Tilimizda terminlarning ahamiyati qanday?
5. Terminlarning ustunlik jihatlari bormi?
6. Mustaqillik davrida terminlarning ahamiyati qanday?
7. O‘zbek tili terminologiyasi nimalari bilan ahamiyatga ega?

8. Terminlarning turlari va ularning izohi haqida nimalarni bilasiz?

9. Tilda chegaralangan qatlamga nimalar kiradi?

1-topshiriq.

Quyidagi terminlarni tegishli sohalarga ajrating.

Kompyuter, laboratoriya, element, asos, asos, o‘zak, yonbosh, chala, halol, kosmonavt, agent, vint, probirka, basketbol, voleybol, fleshka, aksiya.

2- topshiriq.

Quyidagi sohalarga tegishli terminlarni yozing.

Kimyo, astronomiya, tarix, informatika, adabiyot, texnika.

3-topshiriq.

Mavzuga oid matn tuzing va undagi terminlarni izohlang.

4-topshiriq.

Badiiy asardan parcha keltiring va unda terminlar ishtirok etsin.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Akobirov S. Til va terminologiya. -T., 1968.
2. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek tilining leksik qatlamlari. – T., 1985.
2. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik).–Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288 b.
3. Normatova Sh., Abdurahmonova M. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
4. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336
5. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek tilining leksik qatlamlari. – T., 1985.
6. Bektemirov X., E. Begmatov. Mustaqillik davri atamaları. –T., 2002.

MAVZU: KITOB MUTOLAASI

Reja:

- 1. Mamlakatimizda kitobxonlikka bo'lgan e'tibor.**
- 2. Kitob – bilimlar xazinasini.**
- 3. Kitob – aql farzandlari.**

Inson hayotida kitobning o'рни beqiyosdir. Kitob doim bizni fikrlashga, halol yashashga, Vatanni sevish va ardoqlashga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish va ma'naviy merosimizni asrashga, ezgulikka chorlab kelgan. Kitobga mehr qo'ygan kishi doim munosib taqdirlanib kelingan.

Ko'pchilik, afsuski, kitob o'qishni bilmaydi va ko'p kishilar nima uchun o'qiyotganini tuzukroq tushunib ham yetmaydilar. Ba'zilar buni savodli bo'lishning qiyin, biroq yagona yo'li, deb biladi. Ularning fikricha, har qanday kitob kishini "o'qimishli" qila oladi. Boshqa birovlar uchun esa o'qish, bu – dam olish, shunchaki vaqtni o'tkazish va ularga nimani (maqola, roman, she'r, xabar va hokazo) o'qish baribir, zerikarli bo'lmasa bas. Shunchaki dam olish, vaqt o'tkazishni istagan va "o'qimishli" bo'lish haqidagina qayg'uradigan o'quvchi kitobdagi dilni poklovchi, kishini ruhlantiruvchi qandaydir noma'lum bir kuchni sezadi. Biroq bu kuchni u aniq tasavvur etolmaydi va baholay ham olmaydi. Bunday kitobxon tibbiyotdan mutlaqo bexabar bemorga o'xshaydi, ya'ni aynan qaysi dori kerakligini anglamasdan, har bir qutichadagidan tatib ko'ra boshlaydi. Aslida, mutolaa borasida ham har bir kishi o'zi uchun zarur, yangi kuch hamda ruhiy ta'sir baxsh eta oladigan kitoblarnigina topa bilishi maqbul emasmikin?

Agar har bir o'qilgan kitob quvonch va alam, shijoat hamda ruhiy tazarru olib kelmasa, jahon adabiyoti tarixini bilishdan ma'no yo'q. Fikr-mulohaza qilmasdan o'qish – xushmanzara tabiat qo'ynida ko'zni bog'lab yurmoq demak. Biz o'zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, balki hayot jilovini yanada ongliroq ravishda anglash uchun o'qishimiz kerak. Kitobga dimog'dor o'qituvchiga qaragan qo'rqqoq o'quvchi singari emas, balki eng baland cho'qqini zabt etmoqqa shaylangan shiddatkor alpinist kabi yondashmoq talab etiladi.

Inson ulg'aygani sari ko'p do'st orttiradi. Odatda, do'stlar ikki

toifaga ajratiladi. Birinchisi, og‘ir kuningda ham, shodiyonangda ham sen bilan birga bo‘luvchi chin do‘stlar. Ikkinchisi, sen bilan manfaat uchun do‘stlashgan insonlar. Bunday do‘stlar obro‘ying, davlating borida hamroh, boshingga kulfat tushsa, begonaga aylanadi. Kitob birinchi toifadagi do‘stlar sirasiga kiradi. Eng og‘ir kunimizda ham bizni yolg‘izlatib qo‘ymaydi. Eng yaqin do‘st, maslahatchi va sirdosh bo‘lib qoladi.

Shu o‘rinda Abdurahmon Jomiyning misralarini eslaylik:

*Bu dunyoda kitobga yuz o‘girgil,
Kitob fikri, kitob zikrida bo‘lgil.
Agar yolg‘iz esang hamdam kitobdur,
Bilim subhidagi nur ham kitobdur.
Kitobdur beminnat, beg‘araz ustod,
Har damda qilursen undan bilim yod.*

Kitob insoniyat yaratgan shunday mo‘jizaki, ruhiyatga qanot, qalbgaga nur bag‘ishlaydi. Sehrli kuchi shundaki, unda shonli o‘tmish, nurafshon bugun, yorqin kelajak bir nuqtada birlashadi. Aslida inson hayotda o‘zligini anglashga, dunyoni bilishga, olamni idrok etishga hamda undan yupanch topishga harakat qiladi. Bu yo‘lda esa, albatta, kitob unga mayoq bo‘ladi.

Kitob hech qachon “qarimaydigan”, o‘z ma’naviy mulkini avloddan avlodga eltuvchi sehrgardir. “Kitob – aql farzandlari. U insonga qanot bag‘ishlaydi, ilk hayot parvozigaga dalda beradi”, – degan edi mutafakkirlardan biri.

To‘g‘ri, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoiti insondan tinmay mehnat qilish bilan birga, ko‘proq uddaburonlikni, tadbirkorlikni talab etmoqda. Endi ko‘proq daromad topaman, deb o‘z vijdonini sotish kerak emas-ku! Ayrim kasb egalari xato qilsa, keyin to‘g‘rilasa bo‘lar, ammo o‘zini yozuvchilikda sinab ko‘rayotganlar xato qilishi mumkin emas. Chunki minglab insonga ma’naviy zarar yetkazishga ularning aslo haqi yo‘q. Buyuk yozuvchimiz Abdulla Qahhorning: “Adabiyot atomdan kuchli. Faqat uni o‘tin yorishga sarflamaslik kerak”, – degan fikrlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

KITOB O‘QISHNING 21 FOYDASI HAQIDA

Mutolaa asabni tinchlantiradi.

Asabingizni tinchlantirish uchun sayr qilish yoki musiqa tinglashni afzal ko‘rasizmi? Sasseks universiteti olimlari esa buning o‘rniga

kitob o‘qishni tavsiya qilishadi. Kitob o‘qish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan. Atigi olti daqiqa kitob o‘qish asabiylashishga barham beradi.

Mutolaa uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi.

Xotirjam bo‘lish va uxlashga yordam beradigan eng yaxshi usul kitob o‘qishdir. Televizor yoki telefondan tarqalayotgan yorqin nur miyaga uyg‘onish kerakligi haqida signal yuboradi. Kitob o‘qish esa aksincha ta’sir ko‘rsatadi – miya uxlash vaqti bo‘lganligini tushunadi.

Mutolaa qalbni yumshatadi.

Kitob o‘qish jarayonida o‘quvchi qahramonlar bilan birga bo‘ladi. Ularning quvonch va tashvishlariga sherik bo‘ladi. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, badiiy asar o‘qigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuyg‘ularini yaxshi tushunar ekan.

Mutolaa miya faoliyatini yaxshilaydi.

Emori universiteti olimlari kitob o‘qigan insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo‘lishini isbotlashdi. Tadqiqot mualliflari kitob o‘qish miyadagi asab tolalari sonini oshirishini ta’kidlashmoqda.

Mutolaa tushkunlikka qarshi kurashishga yordam beradi.

Shotlandiyalik olimlarning tadqiqotlariga qaraganda, kitob o‘qish tushkunlikni davolashning eng samarali vositasidir. Tushkunlikka chalingan bemorlar kitob o‘qishni boshlaganlaridan so‘ng ularning tushkunlikka tushish holatlari kamaygan.

Mutolaa insonni go‘zallashtiradi.

Yuqori darajadagi aqliy salohiyat insonning tashqi ko‘rinishini ham go‘zallashtiradi. Har qanday mavzuda qiziqarli suhbat qura olish va o‘z bilimini namoyish etish suhbatdoshining mehrini qozonishga yordam beradi.

Mutolaa hayotdagi maqsadini anglashga va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Ogayo shtati universiteti olimlari inson qancha ko‘p kitob o‘qisa, hayot yo‘lini shunchalik aniq tanlashini ta’kidlashmoqda. Kitob o‘qish hayotdagi to‘siqlarni yengishga ham yordam beradi, deyishmoqda ular.

Kitob o‘qiydigan insonlar hayotda faol bo‘lishadi.

San’at milliy jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar kitob o‘qiydigan insonlar madaniy va ijtimoiy hayotda ham faol bo‘lishlarini isbotladi.

Mutolaa xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi.

Har safar kitob o'qilganida miya faol ishlaydi. U olinayotgan ma'lumotni saqlash uchun yangi tolalarni yaratadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, doimiy ravishda kitob o'qiydigan insonlarda fikrlash qobiliyati boshqalarga nisbatan sekinroq pasayar ekan.

Mutolaa so'z boyligini oshiradi.

Kitob o'qiyotgan paytda notanish so'zlar ham uchrab qoladi. Ularning ma'nosini umumiy mazmuni orqali ham tushunib olsa bo'ladi. Kitob o'qish nafaqat so'z boyligini ko'paytiradi, balki umumiy savodxonlikni ham oshiradi.

Mutolaa yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi.

Kitob o'qish jarayonida muallifning yozish uslubi ham o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi. Musiqa tinglash jarayonida musiqachining uslubi tinglovchiga o'tgani singari yozuvchining uslubi ham o'quvchining yozish uslubiga ta'sir o'tkazadi.

Mutolaa chet tilini o'rganishni osonlashtiradi.

Doimiy ravishda kitob o'qish boshqa tillarni o'rganishda yangi so'zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi.

Mutolaa tinglash qobiliyatini rivojlantiradi.

Qanchalik g'alati tuyulmasin, kitob o'qish tinglash qobiliyatini oshiradi, boshqalarni oson tushunishga yordam beradi. Bu ayniqsa, kitobni ovoz chiqarib o'qiganda yanada samarali bo'ladi.

Mutolaa ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Obafemi Avolau universiteti pedagoglari boshlang'ich sinf o'quvchilarining mashg'ulotlariga mavzuli komikslarni kiritishganida, suratlar va so'zlar aralashmasi bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishini aniqlashdi. Kitoblar kattalarga ham ana shunday ta'sir ko'rsatadi.

Mutolaa Altsgeymer xastaligiga chalinishning oldini oladi.

Qator tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ko'p kitob o'qigan insonlar Altsgeymer (Altsgeymer, bu – oliy ruhiy faoliyatning kuchayib boruvchi buzilishi bilan kechuvchi hamda yillar o'tib demensiya kaslligi bilan tugallanuvchi neyrodegenerativ kaslligi) kasalligiga kamroq chalinishar ekan. Miya ham xuddi boshqa a'zolar singari qo'llab-quvvatlashga va mashqlar yordamida mustahkamlanishga muhtoj bo'ladi. Kitob o'qish esa bu borada eng samarali usuldir.

Birgalikda kitob o‘qish ota-onalar va bolalarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilaydi.

Psixologlar birgalikda kitob o‘qish jarayonida ota-onalar va bolalar o‘rtasida o‘ziga xos munosabat o‘rnatiladi deb hisoblashadi. Ularning aytishlaricha, bunday munosabat birgalikda televizor ko‘rganda aslo paydo bo‘lmaydi.

Mutolaa moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi.

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, umuman kitob o‘qimaydigan insonlarning 43 foizi qashshoqlikda yashaydi. Savodli insonlar orasida esa qashshoqlikda yashaydiganlar 4 foizni tashkil etadi.

Ko‘p kitob o‘qiydigan bolalar darslarni yaxshi o‘zlashtirishadi.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, kitob o‘qishni xush ko‘radigan bolalar maktabda ham yaxshi o‘qishadi.

Ular grammatikani ham, matematikani ham yaxshi o‘zlashtirishadi.

Mutolaa jinoyatchilikning oldini oladi.

O‘tkazilgan tadqiqotdan ma’lum bo‘lishicha, panjara ortida savodxonligini oshirgan jinoyatchilar ozodlikka chiqqanlaridan so‘ng boshqa jinoyatchilarga nisbatan jinoyatga 30 foiz kamroq qo‘l uradilar.

Mutolaa yaxshi hikoyago‘yga aylantiradi.

Inson kitobni qancha ko‘p o‘qisa, hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi. Keraksiz gaplarni kamroq gapirib, keraklilarini yaxshiroq yetkazadigan bo‘ladi.

Mutolaa yaxshilik qilishga undaydi

Faol kitobxonlar xayriya ishlari bilan boshqalarga nisbatan uch marta ko‘proq shug‘ullanishadi.

Mutolaa muhtoj insonlarga yordam qo‘lini cho‘zishga undaydi.

Lug‘at ishi

Mutolaa	-	чтение
Munosabat	-	отношение
Kitobxon	-	читатель
Samarali	-	эффективный
Ta’sir	-	воздействие
Ma’naviy zarar	-	моральный ущерб
Sehrgar	-	волшебник

Ustod	-	учитель, наставник
Manfaat	-	интерес
Taraqqiyot	-	развитие

1-mashq.

Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Inson ulg‘aygani sari ko‘p do‘st orttiradi. Odatda, do‘stlar ikki toifaga ajratiladi. Birinchisi, og‘ir kuningda ham, shodiyonangda ham sen bilan birga bo‘luvchi chin do‘stlar. Ikkinchisi, sen bilan manfaat uchun do‘stlashgan insonlar. Bunday do‘stlar obro‘ying, davlating borida hamroh, boshingga kulfat tushsa, begonaga aylanadi. Kitob birinchi toifadagi do‘stlar sirasiga kiradi. Eng og‘ir kunimizda ham bizni yolg‘izlatib qo‘ymaydi. Eng yaqin do‘st, maslahatchi va sirdosh bo‘lib qoladi.

2-mashq.

Quyidagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lab gap tuzing:

1. Hikoyago‘yga, yaxshi, aylantiradi, mutolaa.
2. O‘rni, hayotida, kitobning, inson, beqiyosdir.
3. Toifaga, ikki, ajratiladi, do‘stlar.
4. Insonga, bag‘ishlaydi, qanot, kitob.
5. Kuchli, adabiyot, atomdan.

3-mashq.

Maqollar va hikmatli so‘zlarning ma‘nosini izohlang.

- Kitob – aql qayrog‘i.
- Kitob ko‘rmagan kalla – giyoh unmagan dala.
- Kitobsiz aql – qanotsiz qush.
- Kitob xazina, bilim boylik.
- Biz oldin miyani to‘ydiraylik, so‘ngra u qorinni to‘yg‘azadi (Yapon maqoli).
- Kitob odamni –bilag‘on, suhbat –topqir qiladi, yozib olish odati esa uni aniqlikka o‘rgatadi (F.Bekon).
- Agar yolg‘iz ersang, hamdam kitobdur, bilim subhidagi nur ham kitobdir (Abdurahmon Jomiy).

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mutolaa diqqatni bir joyga jamlashga yordam beradimi?

2. Kitob mutolaasi tarbiyaviy ahamiyatga egami?
3. Har qanday kitob kishini “o‘qimishli” qila oladimi?
4. Qaysi mutafakkirlarning kitob haqidagi fikrlarini bilasiz?
5. Do‘stingizga qaysi kitobni o‘qishini maslahat berasiz?

Test

1. Kitob orqali, badiiy asarlarni o‘qib-o‘rganish tufayli orttirilgan bebaho boylik nima?

- A. Ma’rifat
- B. Ma’naviyat va ma’rifat
- C. Bilim
- D. Saboq

2. “Adabiyot yashasa – millat yashaydi”. Parcha kimga tegishli?

- A. A.Fitratga
- B. I.Karimovga
- C. A.Cho‘lponga
- D. Ch.Aytmatovga

3. O‘zbek adabiyotida sarguzasht asarning mukammal namunasi hisoblanuvchi asar nomini belgilang.

- A. “Sariq devni minib”
- B. “Farhod va Shirin”
- C. “Shum bola”
- D. “Shirin qovunlar mamlakatida”

4. Ona.... aylansin. Nuqtalar o‘rniga mos bo‘lgan qo‘shimchani belgilang.

- A. -si
- B. -ng
- S. -miz
- D. -lari

5. Berilgan misralar muallifini toping.

*Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.*

- A. Z.M.Bobur
- B. M.Behbudiy
- C. A.Navoiy
- D.A.Avloniy

6. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdir...

yuqoridagi fikr kimga tegishli?

- A. Alisher Navoiy
- B. Mirzakalon Ismoiliiy
- C. Abdulla Avloniy
- D. Abdulla Qahhor

7. Javob talab qilmaydigan soʻzlar nima?

- A. Ritorik soʻroq gaplar
- B. Soʻroq olmoshlari
- C. Soʻroq yuklamalari
- D. Soʻroq soʻzlar

8. Mashhur xamsanavislar nomi berilgan qatorni belgilang.

- A. Xusravshoh
- B. X.Dehlaviy, N.Ganjaviy, A.Navoiy
- C. Jomiy
- D. Sulaymon Boqirgʻoniy

9. 12 yoshida taxtga chiqqan shoir?

- A. Bobur
- B. A.Temur
- C. Shayboniyxon
- D. A.Navoiy

10. Oʻzbek adabiyotida birinchilardan boʻlib drammatik asar yozgan yozuvchi kim?

- A. Usmon Nosir
- B. Abdulla Qodiriy
- C. Behbudiy
- D. Choʻlpon

1-topshiriq.

Oʻqigan badiiy asarlaringizning roʻyxatini tuzing.

2-topshiriq.

Sheʼrni oʻqing va yodlang.

KITOB

Hamza Hakimzoda Niyoziy

*Har koʻngilning orzusi shul erur obihayot,
Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz, jondir kitob...
Koʻzning nuri, dil huzuri, dillarning darmonidur,
Har qorongʻu dilga goʻyo mohitobondur kitob...*

*Har kishi yoshlikda qilsa ozgina g'ayrat agar,
Tez zamonda oshno bo'lmog'i osondir kitob.*

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” - T.: Ma’naviyat, 2008. - 176.
2. I.A.Karimov “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. 2009-Toshkent.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-488 b.
5. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. Toshkent. 1962.

MAVZU: ERKIN VA TURG‘UN BIRIKMALAR

Reja:

1. Erkin birikmalar.

2. Turg‘un birikmalar va ularning turlari.

Iboralar – so‘z uyushmalari – erkin va turg‘un uyushmalar bo‘lib, frazeologiyada ular ma’no va tuzilish jihatdan tekshiriladi. Tuzilishi jihatidan so‘zlar uyushmasi *erkin va turg‘un bo‘ladi*, har ikkala tip ham so‘z birikmasi, yo gapga teng bo‘ladi. Lekin ma’no xususiyatiga ko‘ra ularning har ikkalasi o‘z xususiyatiga ega.

So‘zlarda ko‘pincha o‘z mustaqilligini saqlagan holda keladi. So‘zlarning bunday birikishi nutq jarayonining o‘zida sodir bo‘ladi va birikib ular **erkin birikmalar** deb yuritiladi.

Masalan: *Bahorning mayin shabadasi daraxt shoxlarini tebratadi* gapida *bahorning shabadasi, mayin shabada, daraxt shoxlari, shoxlarini tebratmoq, shabadasi tebratdi* kabi beshta erkin so‘z birikmasi mavjud.

Tilda shunday birikmalar ham borki, ularning tarkibidagi so‘zlar o‘rtasida semantik-grammatik aloqa sezilmaydi, chunki bunday birikmalar aynan shu nutq jarayonida yaratilmay, tilda avvaldan bir

butun holda mavjud bo‘ladi. Ular shu holatda tarkibidagi so‘zlarning mavjud ma’no markaziga birlashadi va so‘zga teng bir ma’no anglatishga xoslanadi. Shuning uchun ular so‘zlarning **turg‘un birikmalari** deb nomlanadi.

Masalan, *Ular bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qiladilar* gapida **“bir yoqadan bosh chiqarmoq”** birikmasi turg‘un birikmadir. Chunki uning tarkibidagi so‘zlar yaxlit holda murakkab birikmani tashkil qilgan. Shunga ko‘ra bu birikma, tarkibidagi so‘zlarning miqdoridan qat’iy nazar, bir leksik tushunchani anglatgan va gapda ham bir sintaktik bo‘lak vazifasida kelgan.

So‘z birikmasida so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘ladi: tushuncha anglatadi, turg‘un bog‘lanma (ibora)larda esa so‘zlar ma’noviy butunlik uchun birlashgan-yaxlitlangan bo‘ladi va bir leksik ma’noni anglatadi.

Turg‘un bog‘lanma (ibora)ga bir so‘z sifatida qaraladi, lug‘atlarda so‘zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so‘zlar kabi ma’no ifodalaydi. Masalan, ko‘zini yog‘ basgan – “mag‘rurlangan”; yog‘ tushsa yalaguday iborasi – “toza”; to‘nini teskari kiyib olmoq iborasi – “qaysarlik qilmoq” ma’nosini beradi, ammo bu ma’nolarni oddiy emas, obrazli tarzda ifodalaydi.

So‘z birikmasi		Turg‘un birikma
Bo‘yniga qo‘ymoq	-	Iqror qilmoq
Ko‘nglidan o‘tkazmoq	-	O‘ylamoq
O‘pkasi yo‘q	-	Hovliqma

So‘z birikmalaridagi so‘zlarni, erkin bog‘langanligi uchun almashtirish mumkin, turg‘un bog‘lanma (ibora)lardagi so‘zni almashtirib bo‘lmaydi, ular bir ma’no ifodalash qonuniyati asosida turg‘unlashgan, yaxlitlangan bo‘ladi.

So‘z birikmasi va turg‘un bog‘lanma gapda o‘xshash shaklda uchrashi mumkin, lekin biri tushuncha, biri leksik ma’no ifodalaydi. Qiyoslaymiz: *Bu yuk hozircha omborning ichiga sig‘maydi. – Shu kunlarda Gulmiraning sevinchi ichiga sig‘maydi.*

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko‘ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma’no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko‘ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

1. Frazologizmlar.

2. Maqol va matallar.

3. Aforizmlar.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi soʻzlar maʼno jihatdan uygʻunlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va koʻpincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va koʻchma maʼnoda ishlatiladi.

Masalan, *qulogʻi ding boʻlmoq — hushyor boʻlmoq, qovogʻi osilmoq — xafa boʻlmoq, ogʻzining tanobi qochdi — quvonmoq* kabi.

Ikki mantiqiy asosdan iborat boʻlib, grammatik jihatdan bitta gapga teng keluvchi paremlar oʻz va koʻchma maʼnolarda ifodalanishi tasviri			
№	Paremaning toʻliq shakli	Koʻchma maʼnoli qismi	Oʻz maʼnoli qismi
1	Kalla osgan kuni itdan, Kir yuvgan kuni bitdan qutilasan.	Kalla osgan kuni itdan,	Kir yuvgan kuni bitdan qutilasan.
2	Chayonning kasbi—chaqish	Chayonning kasbi	chaqish
3	Chayonning kasbi-nish urmoq	Chayonning kasbi	nish urmoq
4	Qurtning davosi—qaynoq suv.	Qurtning davosi—	qaynoq suv.

Maʼno yaxlitligiga ega boʻlgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq soʻzlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi koʻchma maʼnodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir boʻlagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan soʻzlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa boʻlaklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Masalan, *Rais daladagi hosilni koʻrib boshi osmonga yetdi.* Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar

maqollar sanaladi.

Masalan, *Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Bolta tushguncha, to'nka dam oladi.*

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo'ladi.

So'zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqiga olib kiradi.

Maqollar fikrni ta'sirchan, bo'yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o'rinli foydalanish so'zlovchining mahorati sanaladi.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to'g'ri ma'noda qo'llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar matallar hisoblanadi.

Masalan,

Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'.

Qimirlagan qir oshar.

Matallar ham xuddi maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so'zlar (aforizmlar) deyiladi.

Masalan,

Odami ersang demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

(A. Navoiy)

Hikmatli so'zlar (aforizmlar) barqarorlik, mazmuniy yaxlitlik, takroriylik (ya'ni nutqda doimo bir xil tuzilishda quyma holda takrorlanish) belgilariga ko'ra boshqa barqaror birliklar bilan umumiylik kasb etsa ham, aniq muallifining borligi bilan ulardan farq qiladi.

Hikmatli so'zlarni o'rganib, xotirada saqlab, nutqda o'rinli qo'llay bilish kishining so'z san'atkori, donishmand bo'lishini ta'minlaydi.

Pashsha "g'ing-g'ing" etadi,

Marg'ilonga yetadi.

Bu parema pashshaning “g‘ingillashi” asosida paydo bo‘lgan bo‘lib, muntazamlilikni, oz-ozdan harakat qilishni ifodalash xususiyatiga ham ega. Natijada “pashshaning g‘ingillay-g‘ingillay o‘z manziliga yetib olishi” misolida “asta-asta harakat qilib bo‘lsada o‘z maqsadiga erishish” kerakligiga ishora qilinadi.

Lug‘at ishi

Barqaror	-	Стабильный
So‘z uyushmasi	-	словесная ассоциация
Murakkab	-	сложный
Birlashgan	-	комбинированный
Yaxlitlangan	-	округлый

1-mashq.

Quyida berilgan barqaror birikmalardan foydalanib, gaplar tuzing. Birikmalar ma‘nolarini izohlang.

Azob chekmoq, aravani quruq olib qochmoq, aqldan ozmoq, barmog‘ini tishlamoq, bag‘ri tosh, bino qo‘ymoq, dami ichida, dunyoda ketmoq, yeng ichida, zahrini shochmoq.

2-mashq.

Ko‘chiring, iboralarning ostiga chizing. Ma‘nosi qaysi so‘zga to‘g‘ri kelishini ayting.

1. U Nazar otani qidirib, idorasidan topmagach, uyga borib, xotiniga zahrini sochdi (Said Ahmad “Kuyov”). 2. Lolaxon – zuvalasi pishiq, yigitlarcha abjir qiz – allanimalar deya unga yig‘lamsirab so‘zlayapti (H.Nazir “So‘nmas chaqmoqlar”). 3. Kimda gumoning bo‘lsa, uni ko‘zdan qochirma, iziga tush (Oybek “Qutlug‘ qon”)! 4. Vohid ortiqcha gapirmoqchi emas edi, shu ikki og‘iz so‘zni aytib, uyga kirib ketmoqchi edi-yu, (O.Yoqubov “Tilla uzuk”)... 5. Shu o‘tirishda ichini mushuk tatalayotganini qayoqdan bilsin u (S.Anorboyev “Oqsoy”)! 6. Mahkamga soxta g‘urur yo‘l bermayotganga o‘xshaydi (P.Qodirov “Uch ildiz”). 7. Omonni yo‘ldan chiqarib, boyning birorta molini o‘lja qilib ketish payida edim (G‘.G‘ulom “Shum bola”). 8. Bu bilan ishlashga to‘g‘ri kelib qolsa, kun bermaydi (A.Muxtor “Opa-singillar”). 9. Normathojining jahli chiqib, tomdagilarni kurakda turmaydigan so‘zlar bilan so‘kib, haydab yubordi (Oydin “Bechora”). 10. Ergash itdek quturib, ko‘ziga oq-qora ko‘rinmay, Zavqiyni qamchilay boshladi (Sh.Rizo “O‘ch”).

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Barqaror birikma deganda nimani tushunasiz?
2. Barqaror birikmaning qanday turlari mavjud?
3. Frazeologizm nima?
4. Maqol va matal deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday birikmalar hikmatli soʻzlar (aforizmlar) sanaladi?

Test

- 1. Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalarsanaladi.**
 - A. Maqollar
 - B. Matallar
 - C. Aforizmlar
 - D. Barchasi toʻgʻri
- 2. Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, toʻgʻri maʼnoda qoʻllaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalarhisoblanadi.**
 - A. Aforizmlar
 - B. Matallar
 - C. Maqollar
 - D. A va C
- 3. Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib maʼlum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga..... deyiladi.**
 - A. Hikmatli soʻzlar (aforizmlar)
 - B. Maqollar
 - C. Matallar
 - D. Barchasi toʻgʻri
- 4. Maʼno yaxlitligiga ega boʻlgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq soʻzlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi koʻchma maʼnodagi barqaror birikmalarga..... deyiladi.**
 - A. Hikmatli soʻzlar (aforizmlar)
 - B. Maqollar
 - C. Matallar
 - D. *Frazeologizmlar*

5. **Betaraf soʻzlarga nimalar kiradi?**
- Soʻzlashuv uslubiga xos soʻzlar
 - Biror bir uslubga xoslanmagan soʻzlar
 - Rasmiy uslubdagi soʻzlar
 - Ilmiy uslub
6. **„-lar” koʻplik qoʻshimchasini olgan „bobomlar, akamlar, oyimlar” soʻzlari qanday maʼnoni ifodalaydi?**
- Ajratish-taʼkidlash
 - His-hayajon
 - Hurmat
 - Takalluf
7. **8000 ga yaqin turkcha soʻzni arabcha izohini bergan adib kim?**
- Mahmud Koshgʻariy
 - Yusuf Xos Xojib
 - Yusuf Hamadoniy
 - Alisher Navoiy
8. **Ipidan ignasigacha soʻzining maʼnodoshini toping?**
- Istarasi issiq
 - Soʻxtasi sovuq
 - Boshdan oyoq
 - Miridan sirigacha
9. **Ich etini yemoq soʻzining maʼnodoshi?**
- Kayfi buzuq
 - Oʻz yogʻiga oʻzi qovrilmoq
 - Taʼbi xira
 - Avzoyi buzuq
10. **Xafa soʻzining iborasi qaysi qatorda berilgan?**
- Ichiga chiroq yoqsa yorimaydi
 - Oʻpkasini qoʻltiqldi
 - Ogʻzi qulogʻida
 - Oʻpkasi yoʻq

1-topshiriq.

Quyidagi sheʼrini oʻqing va uni nasriy yoʻl bilan bayon qiling.

YURTIM, ADO BOʻLMAS ARMONLARING BOR

Yurtim, ado boʻlmas armonlaring bor,

Toshlarni yigʻlatgan dostonlaring bor.
Oʻtmishingni oʻylab ogʻriydi jonim,
Koʻksing toʻla shahid oʻgʻlonlaring bor.

Bagʻrim oʻrtar bir oʻy bahor ayyomlar,
Oy botgan yoqlarga termulib shomlar.
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,
Fayzullodek mardi maydonlaring bor.

Yurtim, koʻnglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yigʻlatgan dostonlaring bor.
Osmonlaringdan ham diydoringga zor,
Jayrondek termulgan Choʻlponlaring bor.

Qoʻling qadogʻiga bosay yuzimni,
Onamsan-ku, ogʻir olma soʻzimni,
Qayin barglar yopib qaro koʻzini,
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana, yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyni sotib shoir boʻlganlar —
Mehrobdan chiqqan chayonlaring bor...

Qurboning boʻlayin, ey onajonim,
Sening faryodlaring, mening figʻonim,
Oʻtmishingni oʻylab oʻrtanar jonim,
Aytsang ado boʻlmas dostonlaring bor.

(M. Yusuf)

2-topshiriq.

Frazeologik iboralarning sinonimlarini toping, ular ishtirokida gap tuzing.

Ipidan ignasigacha

Tosh yurak

Adabini bermoq

Baland kelmoq

Bir yostiqa bosh qoʻymoq

Yoqasini ushlamoq

Jigaridan urmoq
Zimmasiga olmoq
Ignadekni tuyadek qilmoq
Ko‘zini yummoq

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари, Т., 1966;
2. Виноградов В. В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины, в его кн.: Избр. труды, М., 1977.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш., Ҳозирги ўзбек адабий тили [Знашр], Т., 1992.
4. Реформатский А. А., Введение в языковедение, М, 1998.
5. Йўлдошев, Б (1998) Фразеологик услубият асослари. Ўқув кўлланмаси. -Самарқанд: СамДУ нашри. 200 б.
6. Шанский, Н.М. Фразеология современного русского языка: учеб. пособие для вузов по спец. «Русский язык и литература». - 4-е., изд., испр. и доп. / Н.М. Шанский. - СПб.: Специальная Литература, 1996. - 192 с.

MAVZU: ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

Kutubxona – bu g‘oyalar maskani, unga hammani taklif qilish mumkin.

A. Gertsen.

Reja:

1. **Kutubxona – ilm maskani.**
2. **Qadimgi kutubxonalar.**
3. **O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.**

Ma’lumki, kutubxonalar qadim-qadimdan insonlar uchun ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i bo‘lib, inson zoti doim kitoblarga intilib yashab kelgan. Har doim kutubxonalar jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan. Faqat kutubxonalar tufayligina qadimgi qo‘lyozmalar, bosma kitoblar, tarixiy shaxslar haqidagi manbalar

bizgacha yetib kelgani hech kimga sir emas.

Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalar, qo'lyozma va keyinchalik bosma kitoblarning ko'payishi kutubxonalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Kutubxonalar miloddan avvalgi 2 ming yillikda vujudga kelib, yozuvlar sopol bitiklarda yozilgan edi. Miloddan avvalgi VII asr o'rtalarida Sharqdagi ko'p saroylarda qadimgi Misr va Rim ibodat xonalari qoshida kutubxonalar bo'lgan. Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashhuri Aleksandriya kutubxonasidir.

G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlarda monastir va ibodatxonalar qoshida kutubxonalar tashkil etilgan.

O'zbekiston hududida miloddan avvalgi 1 ming yillikning so'ngi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo'lgan. Bular ilk kutubxonalar bo'lib, kutub – arabcha «kitoblar», xona – forsha «uy», ya'ni kitob va hujjatlar saqlanadigan joy demakdir.

Kutubxona – bosma va ayrim qo'lyozma asrlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy va ilmiy muassasa hisoblanib, unda muntazam ravishda bosma asarlarni to'plash, saqlash, targ'ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot bibliografik ishlar olib boriladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish kutubxonaning asosiy faoliyati bo'lib, qolgan barcha faoliyatlar (kitob fondini butlash, uni tashkil etish, to'ldirish va h.k) asosiy faoliyat uchun xizmat qiladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi ularni axborot va adabiyotga bo'lgan talablarini imkoni boricha to'liq qondirishdan iborat.

Markaziy Osiyo hududida yirik sulolaviy kutubxonalar, masjid-madrasalar qoshida kutubxonalar bo'lganligi haqida aniq tarixiy manbalar mavjud.

IX–X asrlarda arab xalifaligi tarqoqlashib, XI asrning oxiriga kelib O'rta Osiyo hududida Somoniylar davlati yuzaga kelgan. Somoniylar davrida Movarounnaxr, Samarqand, Buxoroda fan va madaniyat rivojlana borgan. Bu davrda ushbu davlatda juda ko'p mashhur qomusiy olimlar yashab ijod etgan.

Buxoroning mahobatli markazi, keng maydonning kunchiqar tarafida muhtasham ark turadi. Ark darvozasidan kirganda to'g'ridagi yo'l bir ko'hna binoga eltadi. Uning qalin devorlari boy xazinani qo'riqlaydi. Bu bebaho boyliklar jam bo'lgan xazina Buxoro kutubxonasi, bu kutubxona X asrdagi mashhur kutubxonalardan biridir. O'sha davrda Buxoro kutubxonasi juda boy fondga ega bo'lib,

u O'rta Osiyoning siyosiy va madaniyat markazi hisoblanardi. Buxorodagi ushbu kutubxonalar amir saroyida joylashgan bo'lib, kitoblar fan sohalari bo'yicha sandiqlarda saqlangan. Unga faqat amir Nuh ibn Mansurning ruxsati bilangina kitobxon kirardi. Kutubxonalar ichida qator terilgan sandiqlarda kitoblar taxlab qo'yilgan, har bir sandiqda bor kitoblarning ro'yxati mavjud bo'lib, u sandiq ichida turardi. Somoniylar poytaxti bo'lgan Buxoroda juda ko'p kutubxonalar va kitob bozorlari bo'lgan.

Buy kutubxonalar ega bo'lgan davlatlarda qadimdan fan va madaniyat yaxshi rivojlangan, buyuk alloma va mashhur kishilar yetishib chiqqan. Iskandar Zulqarnayning jahongir bo'lishi uchun ustozlari Arastuning xizmati qancha bo'lsa, Rumda turib butun dunyo sirlarini bilgan Arastuning donishmand darajasiga yetishishida unga bosib olgan yurtlardan kitoblarni yuborib turgan shogirdi Iskandarning xizmati ham kattadir. Buxoroda Abu Ali ibn Sino davrigacha ham dunyoga dong'i ketgan mashhur kutubxonalar bo'lgan, keyinchalik bu kutubxonalar yong'inga uchraganini tarixdan yaxshi bilamiz.

Buyuk sohibqironning har ikki xazinasidan biri – kutubxonasi hisoblangan.

Hazrat Alisher Navoiy kitob san'ati tarixida o'ziga xos davrni boshlab berdi. Uning bevosita ko'magi bilan Behzod, Sulton Ali Mashhadiy, shoh Muzaffar kabi o'nlab kitob san'atida mohir xattotlar yetishib chiqdi. Buyuk bobokalonlarimiz kitob yaratish bilan birga ularni avaylab-asrash borasida ham o'rnak ko'rsatganlar.

Buyuk sohibqiron davrida Samarqand shahridan kitob olib chiqish man etilgan, kitoblar tengsiz boylik sifatida qo'riqlangan.

Amir Temur (1336-1405) avval vatani Shahrizabzda, so'ng mamlakat poytaxti Samarqandda saroy kutubxonasini tashkil qildi. Olimlarning taxminicha, Temur Samarqandga VIII asrning birinchi choragida aynan Basradan Kufiy xati bilan ko'chirilgan Qur'oni Karimning nusxasini olib kelgan.

Taxmin qilishlaricha, Ulug'bek yiqqan kitoblar xazinasini Pergam qo'lyozmalaridan boshlangan, Temur Pergam shahrini bosib olganda qo'lyozmalarni ham karvon bilan Samarqandga olib kelgan. Kutubxonalar Ulug'bek davrida betinim boyib borgan. U juda bilimli bo'lib, o'z kutubxonasida soatlab o'tirib mutolaa qilar edi. Kutubxonada Platon, Gippokrat, Ptolomey, Aristotelning asarlari to'plangan va yaxshi saqlangan edi. U kutubxonasining mudiri

vazifasiga shogirdi Ali Qushchini tayinlagan.

Inson zoti doim kitoblarga intilib yashab kelgan. Har doim kutubxonalar jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan. Faqat kutubxonalar tufayligina qadimgi qo'lyozmalar, bosma kitoblar, tarixiy shaxslar haqidagi manbalar bizgacha yetib kelgani hech kimga sir emas.

Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalar, qo'lyozma va keyinchalik bosma kitoblarning ko'payishi kutubxonalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Kutubxonalar miloddan avvalgi 2 ming yillikda vujudga kelib, yozuvlar sopol bitiklarda yozilgan edi. Miloddan avvalgi VII asr o'rtalarida Sharqdagi ko'p saroylarda, qadimgi Misr va Rim ibodatxonalarida qoshida kutubxonalar bo'lgan. Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashhuri Aleksandriya kutubxonasidir.

G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlarda monastir va ibodatxonalar qoshida kutubxonalar tashkil etilgan.

Somoniylar poytaxti bo'lgan Buxoroda juda ko'p kutubxonalar va kitob bozorlari bo'lgan. Buxoro amirligining oxirgi yillarida kutubxona Arkda joylashgan bo'lib, u yerda mashhur asarlar, qo'lyozma kitoblar va amir Muzaffarning qo'lyozma asarlari ham saqlangan. Buxoro aholisining aytishicha, o'sha davrda amir kutubxonasida 47500 nusxada qo'lyozma va bosma kitoblar saqlangan.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo hududidagi xalqlar qadimdan kutubxonalardan ilm oluvchi ziyo maskani sifatida foydalanib kelganlar, hamda ularning orasidan jahonga mashhur olim-u fuzalolar yetishib chiqqanlar.

Toshkent shahrida 1870-yilda Toshkent ommaviy kutubxonasiga asos solingan. 1886-yildan Turkiston ommaviy kutubxonasi, 1919-yildan Turkiston xalq kutubxonasi deb atalgan. 1925-yildan O'zbekiston davlat kutubxonasi, 1929-yildan O'rta Osiyo davlat ommaviy kutubxonasi, 1934-yildan O'zbek davlat ommaviy kutubxonasi. 1948-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan kutubxonaga shoir nomi berilgan. Kutubxona fondida 6,5 mln.ga yaqin kitob bor (2005); shundan 5,2 mln. kitob va davriy nashrlar, 541,7 ming mikrofilmlar, 2,073 mln. Ilmiy-texnika adabiyoti, 364,8 ming chet tillardagi adabiyot, 33,9 ming texnik normativ hujjatlar tashkil qiladi. Ular orasida o'zbek va Sharq mumtoz adabiyoti namunalari (to'plami), jahonning 75 dan ortiq tillaridagi

kitoblar mavjud. 300 o‘rinli 9 ta qiroatxona, 20 o‘rinli internet markaz, media markaz, 10 o‘rinli internetga ulangan o‘quv kompyuter markazi bor. Kitobxonlarning o‘rtacha qatnovi yiliga 500 mingni, kitob berilishi 1,7 mln. nashrni tashkil etadi; 13 mingdan ziyod turli xususiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar berish amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy kutubxonalaridan biri – bu Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasidir.



Milliy kutubxona axborot va madaniy-ma’rifiy muassasa bo‘lib, kutubxonachilik, bibliografik, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik va axborot faoliyatini olib boradi. Kutubxona fondi mazmunan universal milliy va xorijiy matbuotning noyob to‘plamidir. Kutubxona faoliyatining bosh maqsadi, butun insoniyat bilimini aks ettirgan, avvalo, O‘zbekistonga va uning milliy manfaatlariga taalluqli hujjatlarning universal fondini yig‘ish, saqlash hamda jamiyat foydalanishi uchun taqdim etishdir.



Milliy kutubxona respublikamizdagi barcha kutubxonalarga kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari bo'yicha metodik rahbarlik qiladi. Kutubxona o'z nashriyot va bosmaxonasiga ega bo'lib, noshirlik hamda matbaa faoliyati bilan shug'ullanadi.

Mamlakatimiz rahbarining kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarida o'ziga xos chuqur falsafa bor. Eng avvalo, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk, mo'jizakor kuchdir. Qolaversa, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib berishga qodir mash'ala hisoblanadi.

Zero, kitob irodani toblaydi, boshqaruv mahoratini oshiradi. Bugungi tezkor va zamonaviy sharoitda intellektual salohiyati yuksak kadrlarni tayyorlashda yoshlarning kitobga munosabatini yanada yaxshilash, huquq-tartibot organlari uchun yetuk kadrlar tayyorlanadigan ta'lim maskanlarida mavjud kutubxonalar fondini eng yangi badiiy, ilmiy, sohaga doir, jumladan, davlat tilidagi kitoblar bilan muntazam ravishda boyitib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kutubxonaga istagan kishi a'zo bo'lishi mumkin: ro'yxatdan o'tish juda tez va oson.

Kutubxonadagi kitoblarga maxsus, bilinmas chiplar bilan belgi qo'yilgan. Bunday belgilar 22 mingta kitobda mavjud. Kutubxonada yana eski uslubda kitoblarni qidirishga moslashib qolgan kitobxonlar uchun eski uslubdagi katalog ham mavjud.

Kutubxonada avtomatlashtirilgan buyurtma kafedrası ham bor. U yerda barcha berilgan va qaytarilgan kitoblar hisoboti olib boriladi.

Siz shunday elektron-kutubxona xizmati joylashgan xonadan istagan kitobingizni buyurtma qilishingiz mumkin. Buyurtmangiz 10-15 daqiqa ichida yetkaziladi.

U yerda yana maxsus tele-lift xizmati mavjud. Lift orqali sizga yerto‘lada saqlanadigan kitoblar yetkazib beriladi.

O‘zbekiston Milliy Kutubxonasida muntazam ravishda ekskursiyalar o‘tkazilib turiladi. Kutubxonada 6.5 millionga yaqin qo‘lyozmalar mavjud bo‘lib, ulardan 200 000 tasi qimmatbaho namunalar, 16 000 tasi esa juda ham noyob va alohida qimmatga ega nashr namulardan iboratdir.

Noyob nashrlar faqat ilmiy ish bilan shug‘ullanuvchilar uchun beriladi. Ular elektron formatga o‘tkazilgandan so‘ng barcha uchun foydalanish imkoniyati tug‘iladi.

Hozirgi vaqtda kutubxona fondida raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Elektron katalog 600 000 ta yozuvlardan iborat.

Kutubxona asosiy xizmatlarning barcha turini bepul asosda amalga oshiradi.

Bepul xizmatlar turiga:

- kataloglar tizimi va kutubxona axborot olishning boshqa ko‘rinishlari orqali fondlar va axborot – kutubxona resurslari tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taklif etish;
- ma‘lumot manbasini qidirish va tanlash bo‘yicha maslahat yordam;
- vaqtinchalik o‘quv zalida kutubxona fondidagi hujjatlardan foydalanish;
- internet xizmati;

Qo‘shimcha pullik xizmatlar turiga:

Kitobxon biletini berish, nusxa ko‘chirish, skanerlash, fayl raspechatkasi, ma‘lum soha bo‘yicha bibliografik ma‘lumot yig‘ish, bibliografik ro‘yxat tuzish, elektron shakldan nusxa olish (to‘lov preyskurant asosida).

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Kutubxonasida imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun ham barcha qulayliklar yaratilgan. Nogironlar kutubxonaga kirishlari uchun maxsus yo‘laklar mavjud. Ko‘zi ojizlar uchun maxsus oquv zali bor. Bu o‘quv zali Brayl audiokitoblar bilan jihozlangan.

O‘quv zallari:

- “Tafakkur” katta o‘quv zali;

- “Kashfiyot” ilmiy o‘quv zali;
- “Istiqlol” yoshlar va talabalar o‘quv zali;
- “Nodir” qo‘lyozmalar, nodir va alohida qimmatga ega nashrlar o‘quv zali;
- “Jahon” xorijiy o‘quv zali;
- Ilmiy texnikaviy adabiyotlar o‘quv zali;
- “O‘zbekiston” milliy adabiyotlar va davlat tarixi zali;
- Ma’lumot axborot o‘quv zali, katalog va kartotekalar, elektron katalog;
- Vertual ma’lumotlar xizmati;

Maxsus o‘quv zallari:

- “Adolat” huquqiy axborot o‘quv zali;
- “Ijod” nota-musiqa nashrlar zali;
- “Ilm” dissertatsiyalar o‘quv zali;
- “Media markaz” media va internet markazi;
- Elektron kutubxona;
- Imkoniyati cheklangan foydalaniuvchilar o‘quv zali;
- Kutubxonalararo abonoment va hujjatlarni elektron yetkazish;
- Kitob muzeyi;
- Bolalar xonasi;
- Ko‘rgazma zali;
- Kinomarkaz.

Lug‘at ishi

Bosma kitoblar	– печатные книги
Bitiklar	– надписи
Ommaviy	– массавый
Muassasa	– учреждение
Asarlar	– произведения
Butlash	– сборка
Sulolaviy	– династический
Nashriyot	– издательство
Buyurtma	– заказ
Qo‘lyozmalar	– рукописи
Yerto‘la	– подвал

1-mashq.

Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Buxoro amirligining oxirgi yillarida kutubxona Arkda joylashgan bo'lib, u yerda mashhur asarlar, qo'lyozma kitoblar va amir Muzaffarning qo'lyozma asarlari ham saqlangan. Buxoro aholisining aytishicha, o'sha davrda amir kutubxonasida 47500 nusxada qo'lyozma va bosma kitoblar saqlangan.

2-mashq.

Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

12 апреля 2002 года Кабинет Министров Республики Узбекистан принял Постановление № 123 «О создании Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои». Библиотеке придан статус главного государственного книгохранилища национальной и зарубежной печати, многофункционального библиотечно-информационного и научно-исследовательского учреждения, методического центра для всех библиотек Республики Узбекистан.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kutubxonalar qachon paydo bo'lgan?
2. Qadimgi davr eng mashhur kutubxonasini bilasizmi?
3. O'zbekiston hududida dastlabki kutubxonalar qachon paydo bo'lgan?
4. Buxoro amir saroyidagi kutubxonada kitoblar qanday saqlangan?
5. Qaysi davrda Samarqand shahridan kitob olib chiqish man etilgan?
6. Amir Temur qayerlarda kutubxona tashkil etgan?
7. Samarqandga kim tomonidan Basradan Kufiy xati bilan ko'chirilgan Qur'oni Karimning nusxasi olib kelingan?
8. Toshkentda qachon kutubxonaga asos solingan?
9. Toshkentdagi kutubxonaga qachon Alisher Navoiy nomi berilgan?
10. Qachon Toshkent kutubxonasiga "Milliy" maqomi berilgan?

1-topshiriq.

Universitet kutubxonasi haqida matn tuzing!

2-topshiriq.

She'rni o'qing va yodlang.

O'QUVCHIGA ESDALIK

Quddus Muhammadiy

*Bo'lay desang bog'bon,
Yo Vatanga posbon,
Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,
Nimani qilsang tilak,
Bariga o'qish kerak.*

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Qosimova O. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi, T., 1989;
2. Qosimova O. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi, T., 1992;
3. Oxunjonov E. O. Turkistonda O'rta asr kutubxonachilik va bibliografiya ishlari madaniyati, T., 1994.
4. "Kutubxonashunoslik". Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent, "Ilm ziyo", 2014.

**MAVZU: FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING
TURLARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI**

Reja:

1. Frazzeologiya – iboralarni o'rganuvchi bo'lim.
2. Frazzeologik birliklarning xususiyatlari
3. Frazzeologik sinonimlar, omonimlar va antonimlar.

Frazzeologizmlar til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birliklardir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazzeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorildi, do'ppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko'tarmoq va boshqa.

Frazeologizmlar ibora, frazeologik birlik, frazeologik birikma atamalari bilan ham yuritiladi.

Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizmlar tashkil etuvchilarga ko'ra qo'shma leksemalar, so'z birikmasi va gaplarga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksemalar kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizmlar lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega bo'ladi va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi.

Frazeologizmlar lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gaplar tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi - bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi (Parda Tursun). 2. Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi (Saida Zununova). 3. Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda-sonda ro'y berib turibdi. («O'zbekiston adabiyoti va san'ati»). 4. Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak (A. Muxtor). 1-va 2-gaplarda frazeologizmlar gap markazi-kesim mavqeyida, 3-gapda so'z kengaytiruvchisi aniqlovchi va 4-gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan.

Frazeologizmlar tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi va gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologizmlar: ko'ngli bo'sh, jig'iga tegmoq, bel bog'lamoq, kir izlamoq, terisiga sig'may ketmoq va h.k. Gap tipidagi frazeologizmlar «gap kengaytiruvchisi+kesim» qolipi mahsulidir: istarasi issiq, ichi qora, labi-labiga tegmaydi, ko'ngli ochiq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, tepa sochi tikka bo'lmoq va h.k.

Ayrim leksik birliklar frazeologizmlarning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir: dardisar, toshbag'ir, boshog'riq. Demak, leksemalar hosil bo'lish manbalaridan biri frazeologizmlardir.

Frazeologizmlar, asosan, belgi va harakatni ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi va harakat bildiruvchi so'z turkumlariga mansubdir.

Fe'l turkumiga mansub frazeologizmlar: Me'dasiga tegmoq, yaxshi ko'rmoq, holdan toymoq, sabr kosasi to'lmoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, og'ziga talqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq.

Sifat turkumiga mansub frazeologizmlar: ko'ngli bo'sh, rangi sovuq, yuragi toza, avzoyi bejo, dili siyoh, kayfi buzuq.

Ravish turkumiga mansub frazeologizmlar: ipidan-ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan-sirigacha, ha-hu deguncha.

Soʻz - gaplarga mansub frazeologizmlar: turgan gap, shunga qaramay, katta gap.

Eskirgan frazeologizmlar: alifni kaltak demoq, kallasini xam qilib, yeng silkitmoq,

Dialektal frazeologizmlar: alagʻda boʻlmoq (xavotir olmoq) koʻngli tob tashladi (ezildi), halak boʻlmoq (ovora boʻlmoq). Ilmiy frazeologizmlar: nazar tashlamoq, koʻzga tashlanmoq, chambarchas bogʻlanmoq, toʻgʻri kelmoq, imkoniyatlar doirasi, qulay qurshov.

Badiiy frazeologizmlar: sabr-kosasi toʻlmoq, ogʻzining tanobi qochmoq, ogʻzidan bodi kirib, shodi chiqmoq, qildan qiyiq axtarmoq, six ham kuymasin, kabob ham, boshida yongʻoq chaqmoq.

Soʻzlashuv nutqi frazeologizmlari: arpasini xom oʻrmoq, yerga urmoq, yuragi qon, koʻzi tor, koʻzi och, boshi ochiq.

Frazeologizmlarning aksariyati badiiy va soʻzlashuv nutqiga xosdir.

Odatda, frazeologizmlarning maʼnosi bir leksema maʼnosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema maʼnosi teng boʻlsa edi, unda frazeologizm ortiqcha boʻlib qolar edi. Misol sifatida [yoqasini ushlamoq] frazeologizmi bilan [hayron boʻlmoq] leksemasining maʼnolarini qiyoslab koʻraylik. Mazkur frazeologizm «kutilmagan, tushunib boʻlmaydigan narsa yoki hodisadan oʻta darajada taʼsirlanib, taajjublanmoq» boʻlsa, [hayron boʻlmoq] leksemasi «kutilmagan, tushunib boʻlmaydigan narsa yoki hodisadan taʼsirlanmoq» sememasiga ega. Har ikkala maʼnoda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm maʼnosida «oʻta darajada» va «soʻzlashuv uslubiga xos», «boʻyoqdor» semalariga egaligi bilan «hayron boʻlmoq» leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmlarda, koʻpincha, ifoda semalarida obrazlilik, boʻyoqdorlik boʻrtib turadi. Umuman olganda, frazeologik maʼno torroq va muayyanroq, leksema maʼnosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq boʻladi. Masalan, [hayron boʻlmoq] leksemasi umumslubiy va boʻyoqsizdir. Shuning oʻziyoq uning barcha uslublarda qoʻllanish imkoniga egaligini va uni osongina turli «boʻyoqlar» bilan ishlatish mumkinligini koʻrsatadi.

Koʻrinadiki, frazeologizm va leksemalarni bir narsa yoki hodisani atashsa-da, (atash sememalari bir xil boʻlsa-da), ifoda

bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi (ya'ni ifoda semalari turlichadir).

Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topadi. Biroq ularning ma'nosi tashkil etuvchi ma'nolarining oddiy yig'indisi emas. Masalan, [qo'yniga qo'l solmoq] frazeologizmining ma'nosi [qo'yin], [qo'l], [solmoq] leksemalari ma'nolari sintezi yoki qo'shiluvchi emas. Frazeologizmlar ma'nosi tashkil etuvchi so'zlar to'la yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo'ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish xarakteriga o'xshaydi. Natijada, qo'yniga qo'l solmoq erkin birikmasi o'zidan anglashilgan mazmunga o'xshash bo'lgan boshqa bir mazmunni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologizmga aylanadi. Yoki kishi qo'ltiqlab ketayotgan tarvuzini tushirib yuborsa, qanday ahvolga tushadi? Biror narsadan ruhiy tushkunlikka tushgan odamning holati shunga monandir va natijada erkin birikma frazeologizm mohiyatiga ega bo'ladi.

Bu esa frazeologik ma'noning mantiqiyligidan dalolat beradi.

Frazeologizm tartibidagi ayrim so'zning ko'chma ma'noda, boshqalarining o'z ma'nosida qo'llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, aqlini yemoq, ko'zini bo'yamoq, ko'zi-ko'ziga tushdi, og'zi qulog'ida frazeologizmlarida aql, ko'z, og'iz so'zlari o'z ma'nosida yemoq, bo'yamoq, tushmoq, qulog'ida so'zlari ko'chma ma'nodadir.

Ba'zan harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilmalar frazeologizmga aylanadi. Masalan, kishi afsuslanishi natijasida barmog'ini tishlab qolishi mumkin. Shuning uchun barmog'ini tishlab qolmoq qurilmasi frazeologik qiymat kasb etgan. Tishni-tishga qo'ymoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, labiga uchuq toshmoq iboralari ham shular jumlasidandir.

Ayrim frazeologizmlar turli diniy aqidalar, tushunchalar, rivoyatlar asosida ham shakllanadi: 1.Uning eriga mening ko'zim tekkan emish (I.Rahim.) 2.Hammani qo'yib, sizning soldat o'g'lingizga tegaman deb ko'zim uchib turibdimi? (M.Muhamedov). 3. «Jabrdiyda»ning ham, guvohlarining ham dumi xurjunda gaplari shunday savollar berilishini talab etardi (M. Ismoilij).

Frazeologizmlar, asosan, bir ma'nolidir. Ammo polisemantiklik frazeologizmlarda ham uchray turadi. Masalan, aqli yetadi frazeologizmi «idrok qilmoq», «ishonch hosil qilmoq» ma'nosiga, bo'yniga qo'ymoq iborasi 3 ta - «aybni birovga to'nkamoq», «isbotlab

e'tirof qildirmoq», «biror ishni bajarishni birovning zimmasiga yuklamoq» ma'nolariga, qo'lga olmoq iborasi esa 4 ta- «o'z ixtiyoriga o'tkazmoq», «qo'qqisdan hujum qilib bosib olmoq», «qamash maqsadida tutmoq», «biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq» ma'nolariga ega.

Frazeologik polisemiya barcha ma'nolar ko'chma bo'lganligi bois, ularni bosh va hosila ma'nolarga ajratish qiyin.

Frazeologizmlarda semantik munosabatlar. Leksikada bo'lgani kabi frazeologiyada ham lisoniy-semantik munosabatlar amal qiladi.

Frazeologik sinonimiya. Ma'nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham amal qiladi. Frazeologizmlarning ma'nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko'ra farqlanadi: yaxshi ko'rmoq-ko'ngil bermoq, yer bilan yakson qilmoq-kulini ko'kka sovurmoq, ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha va h. Ma'nodosh frazeologizmlarning atash semalari bir xil bo'ladi. Masalan, ipidan ignasigacha-miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha kabi iboralarida «butun tafsilotlari bilan» atash semasi umumiydir. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo'yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi.

Sinonim frazeologizmlarni frazeologik variantlardan farqlash lozim. Sinonim iboralarida ayni bir so'z bir xil bo'lishi mumkin. Lekin qolgan so'zlar sinonim leksemalarning ko'rinishlari bo'lmasligi lozim. Jonini hovuchlab va yuragini hovuchlab iboralarida bir xil so'z mavjud. Ammo jon va yurak so'zlari sinonim leksemalar ko'rinishi emas. Ko'ngliga tugmoq va yuragiga tugmoq iboralarida frazeologik variantlardir.

Frazeologik antonimiya. Zid ma'noli antonimlar bir-biriga teskari tushunchalarni ifodalaydi. Misollar: ko'ngli joyiga tushdi-yuragiga g'ulg'ula tushdi, qoni qaynadi-og'zi qulog'iga yetdi.

Frazeologik omonimiya. Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo'lishi mumkin. Misollar: so'z bermoq I, so'z bermoq II, boshga ko'tarmoq I, boshga ko'tarmoq II, qo'lga ko'tarmoq I, qo'lga ko'tarmoq II.

Lug'at ishi

Lison	-	язык
Umumiylik	-	общность
Taraqqiyot	-	разработка
Turkum	-	категория

Tasnif	-	классификация
Tafovut	-	разница, отличия
Muayyan	-	конкретный

1-mashq.

Frazeologik omonimiyaga oid misollar bilan gaplar tuzing.

Misollar: soʻz bermoq I, soʻz bermoq II, boshga koʻtarmoq I, boshga koʻtarmoq II, qoʻlga koʻtarmoq I, qoʻlga koʻtarmoq II.

2-mashq.

Quyidagi frazeologizmlarning sinonimi va antonimini yozing.

- Boshi osmonga yetmoq -
- Koʻngli joyiga tushmoq -
- Qoni qaynamoq -
- Qovogʻidan qor yogʻilmoq -
- Mum tishlamoq -
- Oshigʻi olchi -
- Boshi koʻkka yetmoq -

3-mashq.

Iboralarning antonimlarini moslab koʻchiring.

- Tilidan bol tomdi -
- Qoʻli baland -
- Koʻkka koʻtardi -
- Ogʻzi boʻsh -
- Soʻzidan qaytdi -
- Yodidan koʻtarildi -

Mos keladi: gapida turadi; esiga keldi; dimogʻi chogʻ; tili zahar; bagʻridan itardi; turqi sovuq.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Frazeologiya nimani oʻrganadi?
2. Iboralar va soʻzlar oʻrtasidagi umumiylik haqida soʻzlab bering.
3. Tilning lugʻaviy birliklariga nimalar kiradi?

Test

1. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" kitobining muallifi kim?

- A. Azim Hojiyev
- B. Nizomiddin Mahmudov
- C. Alibek Rustamov
- D. Shavkat Rahmatullayev

2. Xafa so'zining iborasi qaysi qatorda berilgan?

- A. Ichiga chiroq yoqsa yorimaydi
- B. O'pkasini qo'ltiqadi
- C. Og'zi qulog'ida
- D. O'pkasi yo'q

3. Ushbu frazeologizmlar qaysi nutq uslubiga xos: arpasini xom o'rmoq, yerga urmoq, yuragi qon, ko'zi tor, ko'zi och, boshi ochiq.

- A. Badiiy
- B. Ilmiy
- C. So'zlashuv
- D. Rasmiy

4. Ushbu frazeologizmlar qaysi so'z turkumiga mansub: Me'dasiga tegmoq, yaxshi ko'rmoq, holdan toymoq, sabr kosasi to'lmoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, og'ziga talqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq?

- A. Fe'l
- B. Sifat
- C. Olmosh
- D. Ravish

5. Ushbu frazeologizmlar qaysi so'z turkumiga mansub: ko'ngli bo'sh, rangi sovuq, yuragi toza, avzoyi bejo, dili siyoh, kayfi buzuq?

- A. Fe'l
- B. Sifat
- C. Olmosh
- D. Ravish

6. Ushbu frazeologizmlar qaysi so'z turkumiga mansub: ipidan-ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan-sirigacha, ha-hu deguncha?

- A. Fe'l
- B. Sifat

C.Olmosh

D.Ravish

7. Ushbu frazeologizmlar qaysi uslubga oid: alag‘da bo‘lmoq (xavotir olmoq) ko‘ngli tob tashladi (ezildi), halak bo‘lmoq (ovora bo‘lmoq), qumortqisi quridi (intiq bo‘lmoq)?

A.Badiiy, so‘zlashuv

B. Ilmiy

C. Dialektal

D.Rasmiy

8. Mustaqil lingvistik fan sifatida frazeologizmlar qachon shakllangan?

A. XIX asrning 80-yillarida

B. XX asrning 40-yillarida

C. XX asrning 60-yillarida

D. XX asrning 20-yillarida

9. O‘zbek va rus tilidagi iboralarga ham shaklan, ham ma‘nosi bilan muvofiq keladigan qatorni belgilang.

A. Pashshaga ham ozor bermaydi – и мухи не обидит

B. Rangida rang yo‘q – на нём лица нет

C. Adabini bermoq – показать кузькину мать

D. Biri bog‘dan kelsa, ikkinchisi tog‘dan keladi. – Один про Фому, а другой про Ерёму.

10. Gap tipidagi frazeologizmlarni belgilang.

A. Ko‘ngli bo‘sh, enka-tinkasini chiqarmoq, jig‘iga tegmoq, bel bog‘lamoq, kir izlamoq, terisiga sig‘may ketmoq

B. Turgan gap, shunga qaramay, katta gap.

C. Istarasi issiq, ichi qora, labi-labiga tegmaydi, ko‘ngli ochiq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, po‘konidan yel o‘tmagan, tepa sochi tikka bo‘lmoq .

D. Barchasi to‘g‘ri

1-topshiriq.

Ruscha frazeologizmlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Водить за нос; развешивать уши; точить зубы; клевать носом; делать из мухи слона; прикусить язык; чесать языки; строить глазки; не в своей тарелкею

2-topshiriq.

Badiiy asarlardan frazeologizmlarga misollar topib yozing, ularni izohlang.

3-topshiriq.

Ikki mantiqiy markazdan iborat bo‘lib, grammatik jihatdan ikki gapga teng keluvchi paremalardagi ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan qismni toping.

Chumoli yuk tashir,
Yomon odam gap tashir.
Yetim o‘g‘lon it bo‘lar,
Yoqasi to‘la bit bo‘lar.
Yomon arida bol bo‘lmas,
Suvsiz yerda mol bo‘lmas.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. B.Mengliyev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Qarshi. 2004.
2. Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1980.
3. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1975.
4. Mualliflar. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 1981.
5. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. Toshkent, 1985.
6. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1992.
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlari izohli lug‘ati. Toshkent, 1984.
8. Ma’rufov A. Paronimlar lug‘ati. Toshkent, 1974.
9. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent, 1978.
10. Mirtojdiyev M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000.
11. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik, 151 bet, Toshkent, 1972.
12. Ne’matov H., Rasulov R, O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari, Toshkent, 1995.

MAVZU: ADABIYOT - MA'NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI MANBA

«Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilari, buyuk shoirlari, buyuk ijodkorlarini tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa - millat yashaydi».

(Islom Karimov)

Reja:

- 1. Adabiyot – ta'lim-tarbiya o'chog'i.**
- 2. Ilmiy va badiiy adabiyotning xususiyatlari.**
- 3. Adabiyot – milliylik ko'zgusi.**

Adabiyot so'zi aslida odob so'zidan olingan bo'lib, qadimdan Sharq mamlakatlarida adabiyotga insonni odob va axloqqa yo'naltiruvchi ruhiy-ma'naviy manba sifatida qaralgan. Bu yerda odobni tor ma'noda tushunmasligimiz, bu so'z zamirida yotgan barcha fazilatlarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak. Ya'ni odob tushunchasi insonni inson qilib turadigan barcha ijobiy xususiyatlarni o'zida jamuljam etadi. Vatanga muhabbat, ajdodlar xotirasiga ehtirom, ota-ona va yaqinlariga mehr-oqibat, o'zgalar dard-u tashvishi bilan yashash, inson tuyg'ulariga hurmat va e'tibor, shafqatga muhtoj kishilar ko'nglini ko'tarish — bularning bari inson odobi degan yuksak tushunchani tashkil etadi. Adabiyot tarixidagi jamiki buyuk asarlarning bosh mazmun-mohiyatini esa ayni qadriyatlar tashkil qiladi.

Xalqimiz boshidan o'tgan barcha yaxshi va yomon kunlarni doimiy yodda tutish uchun adabiyotga murojaat qilamiz. Qolaversa, ota-bobolarimizning ushalmagan orzularini ro'yobga chiqarish bizning zimmamizdagi muqaddas burch ekanini anglashga yordam beradigan ham adabiyot — so'z san'ati hisoblanadi. Zero, adabiyot tarixi — millat va mamlakat tarixining jonli ifodasidir. Adabiyotini anglagan millat o'zligini anglaydi.

Badiiy adabiyotning asosiy ish quroli so'zdir. O'zi ko'zga ham ko'rinmaydigan so'z yordamida nafaqat atrofdagi narsa-hodisalarni,

balki boshdagi o‘ylar, ko‘ngildagi sezimlargacha ifodalash mumkin. Shuning uchun ham san’at turlari orasida adabiyot alohida o‘rin tutadi. Insonning o‘y xayollari, istag-u armonlari badiiy adabiyotda to‘laroq aks ettiriladi.

Adabiyot keng ma’noda **ilmiy** va **badiiy** singari ikki turga bo‘linadi. Ilmiy adabiyot tushunchasi inson aqlining mahsuli bo‘lmish ijtimoiy ahamiyatga ega har qanday yozma asarni o‘z ichiga oladi. Texnikaviy, ilmiy, ma’rifiy, publitsistik, memuar, tarixiy, ensiklopedik, lug‘atshunoslik va boshqa yo‘nalishdagi adabiyotlar ilmiy adabiyot tushunchasiga kiradi. Ilmiy adabiyot kishining aqlini o‘stirib, uning bilimlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyot tushunchasi esa o‘z ichiga olamni obrazli ko‘rish va timsollar asosida aks ettirish mahsuli bo‘lmish badiiy asarlarni oladi. Bu xil asarlar nimanidir o‘rganish, bilib olish uchun emas, balki inson qalbining tovlanishlarini, tuyg‘ularining ranginligini his etish, uning quvonch-u iztiroblarini tuyish uchun o‘qiladi. Shu bois **kishilar tomonidan o‘qilib, hissiyotni boyitish, ruhiyatga singdirish ko‘zda tutilib yaratilgan bitiklar badiiy adabiyot bo‘ladi** va adabiyot atamasi asosan shu ma’noda qo‘llaniladi.

Har bir millatning qiyofasini belgilashda uning adabiyoti ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki milliy adabiyot milliy ruhni aks ettiradi. Milliy ruhni to‘laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror-bir vosita badiiy adabiyotga teng kelolmaydi. Shuning uchun ham adabiyoti bo‘lmagan millat unutilishga mahkum.

Adabiyot milliydir, u har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqning tarixiy hayoti hamda ruhiyatidagi xususiyatlar adabiyotning milliyligi mazmunini tashkil etadi va o‘ziga xos milliy shaklni yuzaga keltiradi. Milliy shaklning yuzaga kelishida adabiyot tomonidan uzoq davr mobaynida yig‘ilgan tajriba va an’analarning ham ahamiyati katta bo‘ladi. Shu bois «Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta’riflanishi bejiz emas, albatta», — deb qayd qilgan edi Birinchi Prezidentimiz «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida.

Adabiyot tarixi – milliy xalq tarixiga murojaat qilsak, miloddan avvalgi V asrda To‘maris momomiz fors podshohi Kir II ni harbiy mahorat bilan mag‘lubiyatga uchratdi. Shiroq bobomiz vatanparvar

choʻpon oʻz ona Vatani hurligi va mustaqilligi uchun jonini fido qildi. Ushbu qahramonliklar xalq xotirasida rivoyat va afsonalar tarzida shakllandi. Yunon tarixchisi Poliennning «Harbiy hiylalar» asarida mazkur rivoyatlarning tarixiy haqiqat ekanligi qayd etilgan.

Xalqimizning ming asrga tatigulik xalq ogʻzaki ijodi namunalari – «Alpomish», «Goʻroʻgʻli» dostonlari kabi qahramonlik, jasoratni tarannum etuvchi eposlar oʻquvchining, yosh avlodning badiiy tafakkurini oʻstirishga, maʼnaviy dunyoqarashining boyishiga, Vatanga boʻlgan muhabbati va faxrlanish hissini yanada oshirishga xizmat qiladi. Chunonchi, mamlakatimiz yoshlari uchun xalq ogʻzaki ijodi mardlik va jasorat namunalarini shakllantirishda katta turtki boʻladi. Ularning ona Vatanga boʻlgan sadoqat ramzi yanada kuchayadi, uning tinch va osoyishta faoliyat koʻrsatishini taʼminlash uchun, kerak boʻlsa jonini fido qilishga — Toʻmaris, Shiroq, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temir kabi milliy qahramonlarimizdan namuna oladi, hamisha sergak va ogoh boʻladi.

Taʼbir joizki, adabiyot — bu fan, ilm olami demakdir. Alloma Abu Nasr Forobiyning «Sheʼr sanʼati...» kitobida mufassal tarzda adabiyotning ilmiy salohiyati bayon qilingan. Unda sheʼriy asarning yaratilish tabiati, ijodkor shaxsi va mahorat muammolari, soʻz qadri xususida fikr yuritiladi. XI asrda yashagan adabiyotshunos Abdulqodir Jurjoniyning «Asror ul-balagʻa fi-ilmu bayon» («Bayon ilmida balogʻat sirlari») asarida soʻz sanʼatidagi shakl va mazmun masalasiga alohida urgʻu berilsa, XIII asrda yashagan qomusiy olim Qays Roziyning «Kitob ul-moʻjam fi-maoyiri ashʼor il-ajam» («Ajam sheʼriyati meʼyorlari qomusi») kitobida nazariy masalalar — aruz tizimi, poetik sanʼatlar, sheʼriy janrlar tahlil etilgan.

Adabiyotning yuksak maʼnaviy boyligini shoirlar sultoni Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Yaʼni turkiy oʻzbek tilidagi benazir nazmiy misralari bilan inson va insonparvarlikni ulugʻlashga, uning ruhiy olamini yuksaltirishga xizmat qilganligini koʻramiz. Alisher Navoiy maʼnaviy merosi, qalb-shuuriga aylangan ijodi huquq-tartibot xodimlarini rostgoʻy, adolatli, sabr-toqatli, xalqning tashvishi va dardiga darmon boʻlishga chaqiradi. Bunday fazilatlarga ega boʻlgan Vatanimiz himoyachilari xalqning ishonchiga kiradi, insonparvarlik gʻoyalari puxta egallaydi.

Mustaqilligimiz tufayli dunyodagi eng qadim madaniyat oʻchoqlaridan biri boʻlmish yurtimizda yaratilgan jamiki

adabiy-estetik boyliklarga xolis nuqtayi nazar bilan qarash va baho berish imkoniyati paydo bo'ldi. Natijada ijodkorlar so'z san'atimiz tarixida e'tiborga loyiq, neki asar bo'lsa, barchasini chuqur o'rganishdek mas'uliyatli yumushga kirishdilar. «Avesto»dek teran va murakkab diniy-ma'rifiy yodgorlik qaytadan tiklandi, xalqimizning milliy mulkiga aylandi.

Adabiyot — bu nafaqat bir millat, balki jahon minbari bo'lib, uning jahon ahli uchun ochiqligi hamda mamlakatlar, xalqlar va buyuk ijodkorlarning o'zaro hamkorligini, hamfikrligini ta'minlovchi omildir.

Lug'at ishi

Adabiyot	- Литература
Ma'naviyat	- Духовность
Madaniyat	- Культура
Bitiklar	- Надписи
Ilmiy adabiyot	- Научная литература
Badiiy adabiyot	- Художественная литература

1-mashq. Berilgan matn tarkibidan juft so'zlarni toping va rus tiliga tarjima qiling.

Vatanga muhabbat, ajdodlar xotirasiga ehtirom, ota-ona va yaqinlariga mehr-oqibat, o'zgalar dard-u tashvishi bilan yashash, inson tuyg'ulariga hurmat va e'tibor, shafqatga muhtoj kishilar ko'nglini ko'tarish — bularning bari inson odobi degan yuksak tushunchani tashkil etadi. Adabiyot tarixidagi jamiki buyuk asarlarning bosh mazmun-mohiyatini esa ayni qadriyatlar tashkil qiladi.

2-mashq. Matnni tarjima qiling. Ostiga chizilgan birliklarning o'zbek tilidagi muqobilini yozing.

Научная литература — литература, совокупность письменных трудов, которые созданы в результате исследований, теоретических обобщений, сделанных в рамках научного метода. *Научная литература* предназначена для информирования учёных и специалистов о последних достижениях науки, а также для закрепления приоритета на научные открытия. Как правило, научная работа не считается завершённой, если она не была опубликована.

3-mashq. Quyida nomlari keltirilgan asarlarning mualliflarini aniqlang.

1. “Mahbub ul-qulub”
2. “Muxtasar”
3. “Kecha va kunduz”
4. “O‘tkan kunlar”
5. “Yulduzli tunlar”

- A. Bobur
- B. Cho‘lpon
- C. Pirimqul Qodirov
- D. Navoiy
- E. Abdulla Qodiriy

Javob: 1-D, 2-A, 3-B, 4-E, 5-C

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Badiiy hamda ilmiy adabiyotga xos xususiyatlarni ayting va qiyoslang.
2. Badiiy adabiyotning turlarga bo‘linish asoslarini tushuntiring.
3. Adabiyotda inson hayoti, o‘y, fikr va kechinmalari to‘laroq aks ettirilishi sababini ayting.
4. Og‘zaki adabiyotga xos belgilarni ajratib ko‘rsating.
5. Millat hayotida badiiy adabiyot tutgan o‘rnini izohlang.

Test

- 1. Badiiy adabiyotning asosiy quroli nima?**
 - A. Kitob.
 - B. So‘z.
 - S. Ohang.
 - D. Ma’no.
- 2. Adabiyot qanday turlarga bo‘linadi?**
 - A. Tarixiy va ilmiy
 - B. Badiiy va tarixiy
 - C. Badiiy va ilmiy
 - D. Ilmiy va ensiklopedik
- 3. ...o‘z ichiga olamni obrazli ko‘rish va timsollar asosida aks ettirish mahsuli bo‘lmish badiiy asarlarni oladi. Nuqtalar o‘rniga mos javobni qo‘ying.**

- A. Badiiy adabiyot
 - B. Ilmiy adabiyot
 - C. Tarixiy adabiyot
 - D. An'anaviy adabiyot
4. ***“Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari” deb qaysi asarda ta’riflangan?***
- A. “Funun ul-balog‘a”
 - B. “Xamsa”
 - C. “Alpomish” dostonida
 - D. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”
Global muammolarning vujudga kelishi va keskinlashuvi sabablari jahon aholisi sonining qisqa vaqt ichida bir necha barobar oʻsganligi, sanoat va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal surʼatlar bilan rivojlanishi, tabiiy muhitdagi muvozanatning inson xoʻjalik faoliyati taʼsirida buzilishi, jahon xoʻjaligida xalqaro iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi tufayli yagona global tizim sifatida shakllanishi, fan-texnika inqilobi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining salbiy oqibatlari, davlatlar va siyosiy kuchlar oʻrtasida ziddiyatlar kuchayishi kabilardan iborat.

Asosiy global muammolar qatoriga, odatda, quyidagilar kiritiladi: tinchlikni saqlash va jahon xavfsizligini taʼminlash muammosi; ekologik muammo; rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligi va qashshoqlik muammosi; demografik muammo (rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining yuqori surʼatlar bilan oʻsishi va rivojlangan mamlakatlardagi demografik inqiroz); oziq-ovqat muammosi, energetika muammosi, xomashyo resurslari muammosi, Dunyo okeanidan oqilona foydalanish muammosi; millatlararo va dinlararo munosabatlar muammosi; qon-yurak, onkologik kasalliklar va OITSga qarshi kurashish muammosi. Bundan tashqari, boshqa bir guruh muammolar ham ayrim adabiyotlarda global muammolar toifasiga kiritiladi, masalan, favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashish va oldini olish muammosi, koinotni oʻzlashtirish va fazoviy ekologiya muammosi yoki maʼnaviy qadriyatlar inqirozi muammosi.

Insoniyatning global muammolari chambarchas ravishda oʻzaro bogʻliq, bir muammo boshqalarining keskinlashuviga olib kelmoqda. Shunday ekan, muayyan muammoni boshqa muammolarga eʼtibor qaratmasdan yechish imkoniyati mavjud emas. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlardagi demografik va oziq-ovqat muammolari orasida maʼlum aloqadorlik mavjud, chunki aholining yuqori surʼatlar bilan koʻpayishi oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmovchiligi va ocharchilikni keskinlashtiradi. Energetika va ekologik muammolar ham bevosita bir-biriga aloqador hisoblanadi,

chunonchi yangi energiya manbalarini izlash va ishlab chiqarishga joriy etish atrof-muhit sifatiga ham ma'lum darajada ta'sir etadi.

Global muammolardan tinchlikni saqlash va quolsizlanish muammosi eng universal ahamiyatga ega, chunki bu muammo hal etilmasa, Yer yuzida hayot va sivilizatsiyaning kelajagi o'ta achinarli ahvolga kelishi muqarrar. Insoniyat tarixida, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, jami 14 mingdan ortiq urushlar ro'y bergan va, ming afsuski, harbiy mojaro va ziddiyatlar sayyoramizning turli hududlarida hanuzgacha yuz bermoqda. Lekin, global darajada bu muammo jami 70 milliondan ziyod kishi qurbon bo'lgan ikkita jahon urush bo'lib o'tgan XX asrda keskinlashdi. Urushdan keyingi davrda esa kapitalistik va sotsialistik davlatlar, ayniqsa, AQSH va Ittifoq o'rtasidagi o'tkir qarama-qarshiliklar sharoitida "qurol poygasi" keskinlashib ketdi.

Hozirgi vaqtda AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston va Pokiston jahon hamjamiyatining rasman tan olingan yadroviy qurolga ega davlatlari hisoblanadi. Shuningdek, rasmiy yadroviy maqomga ega bo'lmagan KXDR ham bu turdagi qurolga ega ekani barchaga ma'lum.

Dunyoning turli mintaqalarida urush va harbiy to'qnashuvlar sodir bo'lmoqda. Harbiy harakatlar va fuqarolik urushlari tufayli ayrim davlatlar gumanitar falokat vaziyatiga kelib qoldi. Bunga Suriya, Iroq, Liviya, Somali, Afg'oniston, Janubiy Sudan va boshqa davlatlarni misol tariqasida keltirilishi mumkin.

Shuningdek, sust rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligi va qashshoqligi ham muhim muammolardan hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoda 1,2 milliardgacha kishi ocharchilikka duch kelmoqda, 1,7 milliarddan ortiq aholining o'rtacha umr ko'rishi 60 yoshga yetmaydi, 1,5 milliard odamlarning tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati umuman yo'q, 1 milliarddan ortiq odamlar o'ta kambag'al turmush kechirmoqda, 200 milliondan ortiq bola maktab ta'limini ololmayapti, jahonda 800 milliondan ziyod kishi butunlay savodsiz, ya'ni yozish va o'qishni bilmaydi. Eng og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat BMT tomonidan eng sust rivojlangan (eng qoloq) mamlakatlar guruhiga kiritilgan davlatlarda kuzatiladi. Bu ro'yxat dastlab 1971-yilda tuzilib, unga 24 davlat kiritilgan edi. 2014-yil holatiga ko'ra unda 48 ta davlat qayd qilingan.

Bulardan 34 tasi Afrikada, 9 tasi Osiyoda, 4 tasi Okeaniyada va 1

tasi (Gaiti) Lotin Amerikasida joylashgan. Bu toifadagi mamlakatlarda jahon aholisining 11 foizdan ortig‘i yashaydi.

Hozirgi kunda oziq-ovqat muammosi ham ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi. Bu muammoning mohiyati dunyoda jami 1,2 milliardga yaqin odamlar yetarli darajada ozuqa moddalarni iste‘mol qila olmayotganligi, u yoki bu darajada ocharchilikka duch kelganidan iborat. Aholisi eng yuqori sur‘atlar bilan ko‘payotgan, Afrika mamlakatlarida bu muammo eng keskin darajada ro‘y bermoqda. Jumladan, Somali, Janubiy Sudan, Chad va boshqa mamlakatlarda ocharchilik umummilliy gumanitar falokat darajasiga yetdi. Shuningdek, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo hamda Lotin Amerikasining ayrim mamlakatlarida ham bir necha million kishi ocharchilik sharoitida yashamoqda. Oziq-ovqat muammosining yechimiga, asosan, qishloq xo‘jaligidagi texnika va texnologiyalarni tubdan takomillashtirish, bu sohada mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari bilan erishish mumkin.

Energetika muammosi ham dolzarb global muammolaridan biri bo‘lib, uning mohiyati jahon energetika balansining aksariyat qismi tugaydigan energiya manbalariga to‘g‘ri kelishi bilan tavsiflanadi. Ya‘ni, mineral yoqilg‘i resurslari (neft, tabiiy gaz, ko‘mir, slanes, torf) zaxiralarning kamayishi yoki ularni qazib olish tannarxining ancha ko‘tarilishi, aholi va ishlab chiqarishning energiyaga bo‘lgan ehtiyojlari orasidagi tafovut bilan bog‘liq muammoni yuzaga keltiradi. Bu muammoning yechimi, ko‘pchilik mutaxassislar fikricha, asosan ikkita yo‘nalishdagi harakatlar bilan bog‘liq: energiyani tejaydigan texnologiyalarning amaliyotga keng joriy etilishi hamda quyosh energiyasi, shamol, qalqishlar, geotermal energiya, bioyoqilg‘i singari noan‘anaviy (muqobil) energiya manbalaridan foydalanishga bosqichma-bosqich o‘tish.

Lug‘at ishi

Global muammolar	- глобальные проблемы
Atrof-muhit	- среда
Hamjamiyat	- сообщество
Tizimlashtirish	- систематизировать
Fan-texnika	- наука и техника
Harbiy harakatlar	- военные действия
Fuqarolik urushlari	- гражданские войны

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi muammolarni sanang.
2. Dunyo bo'yicha global hisoblangan muammolar qaysilar?
3. Ekologik muammolar sifatida nimalarni qayd eta olasiz?
4. Tabiiy va iqtisodiy xarakterdagi muammolarga izoh bering.

1-mashq. Eng og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat BMT tomonidan eng sust rivojlangan (eng qoloq) mamlakatlar guruhiga kiritilgan davlatlarda kuzatiladi. 2014-yil holatiga ko'ra unda 48 ta davlat qayd qilingan. Mintaqalar bo'yicha moslikni toping.

- | | |
|---------------|-------|
| 1. Afrikada | A. 1 |
| 2. Okeaniyada | B. 4 |
| 3. Osiyoda | C. 9 |
| 4. Okeaniyada | D. 34 |

Javob: 1-D, 2-B, 3-C, 4-A

2-mashq. "Qanday?" sxemasini to'ldiring.

Davrimizning qanday global muammolari bor ? Qanday?
Ularni qanday bartaraf qilish mumkin? Qanday?
Ekologik muammolarning qanday guruhlarini bilasiz? Qanday?

3-mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Ko'pchilik foydalanishga yaroqli suvimiz tugashini bilmaydi, 2030-yilga kelib suvga bo'lgan talab va mavjud bo'lgan suv ta'minoti o'rtasida 40 % tafovut bo'ladi. Suv muammosini hal qilish uchun bizda bor-yo'g'i 15 yil bor, xolos", deydi Jahon iqtisodiy forumining yosh global yetakchisi Mina Guli. Ta'kidlash joizki, 750 mutaxassisdan tarkib topgan jamoa tomonidan o'tkazilgan so'rovda toza ichimlik suvining tugab borishi butun dunyo aholisi uchun chinakamiga global xavf deb baholandi.

Test

1. Nechanchi yillardan boshlab "globalistika" atamasining o'zi qo'llanila boshlangan?

- A. 70-yillarning boshlarida
- B. 80-yillarning boshlarida
- C. 90-yillarning boshlarida
- D. 70-yillarning oxirlarida

2. Hozirgi kunda dunyoda qancha aholi ocharchilikka duch kelmoqda?

- A. 1 milliardgacha
- B. 1,2 milliardgacha
- C. 1,5 milliardgacha
- D. 2,2 milliardgacha

3. Qancha aholining o'rtacha umr ko'rishi 60 yoshga yetmaydi?

- A. 1 milliarddan ortiq
- B. 1,7 milliarddan ortiq
- C. 200 milliondan ortiq
- D. 800 milliondan ortiq

4. Bugungi kunda qancha odamlar o'ta kambag'al turmush kechirmoqda?

- A. 1 milliarddan ortiq
- B. 1,7 milliarddan ortiq
- C. 200 milliondan ortiq
- D. 800 milliondan ortiq

5. Qancha bola hozirda maktab ta'limini ololmayapti?

- A. 1 milliarddan ortiq
- B. 1,7 milliarddan ortiq
- C. 200 milliondan ortiq
- D. 800 milliondan ortiq

6. Jahonda qancha kishi butunlay savodsiz, ya'ni yozish va o'qishni bilmaydi?

- A. 1 milliarddan ortiq
- B. 1,7 milliarddan ortiq
- C. 200 milliondan ortiq
- D. 800 milliondan ortiq

7. Kim global muammolarni tasniflash uchun ularni uchta asosiy guruhga ajratib ko'rsatdi?

- A. Ernest Gekkel
- B. Yuriy Gladki
- C. Dmitriy Ivanov
- D. Diomed

8. BMT tomonidan eng sust rivojlangan (eng qoloq) mamlakatlar ro'yxati dastlab 1971-yilda tuzilib, unga nechta davlat kiritilgan edi?

- A. 20 ta
- B. 38 ta
- C. 24 ta
- D. 48 ta

9. 2014-yil holatiga ko‘ra eng sust rivojlangan (eng qoloq) mamlakatlar guruhiga kiritilgan davlatlar deb nechta davlat qayd qilingan?

- A. 20 ta
- B. 38 ta
- C. 24 ta
- D. 48 ta

10. Ikkita jahon urushi oqibatida qancha aholi qurbon bo‘lgan?

- A. 70 milliondan ortiq
- B. 50 milliondan ortiq
- C. 100 milliondan ortiq
- D. 30 milliondan ortiq

1-topshiriq. “Ekologik muammolarni yechishga yordam beraman” mavzusida fikr-mulohazalaringizni 10-12 ta gap orqali yozma bayon qiling.

2-topshiriq. Global muammolar ro‘yxatini tuzing, ularning yechimi xususida guruh bo‘lib mulohaza yuriting.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yukak ma’naviyat - yengilmas kuch. Ma’naviyat. T. 2008-yil.
2. Jahon axborot agentligi. O‘zbekistonda modernizatsiyalash va demokratik o‘zgarishlar jadal rivojlanmoqda. Xalq so‘zi gazetasi. 2010-yil 30-dekabr.
3. Karnegi D. Iqrorlik – mag‘lubiyat emas. San’at jurnali, T.: 2009-yil
5. Kistauboyev S. Ekologik ta’lim-tarbiya. Xalq ta’limi, 6-son.T.: 2010-yil
6. Norboyev A.G. Ta’lim tarbiyada o‘quvchilarni tabiat bilan muloqotga o‘rgatish. Xalq ta’limi, 6-son.T.: 2010-yil
7. «Xalq so‘zi». «O‘zbekiston ovozi», «XX asr» gazetalari va «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi» jurnali.

MAVZU: HUJJAT TURLARI VA XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Hujjat turlari.
2. Sodda va murakkab hujjatlar.
3. Xususiy, namunaviy va qolipli hujjatlar.

Boshqaruv jarayonining murakkabligi va serqirraligiga muvofiq ravishda idoraviy ish yuritish qog'ozlari, hujjatlar ham xilma-xil va miqdoran juda ko'p. Hujjatlarning maqsadi, yo'nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatlari ham turlichadir. Shunday ekan, hujjatlar tiliga bo'lgan umumiy talablar bilan bir qatorda har bir turkum hujjatlar tuzish ishiga qo'yiladigan ko'pgina lisoniy talablar ham mavjud. Muayyan turdagi hujjat, albatta, o'ziga xos lisoniy xususiyat va sifatlari bilan belgilanadi. Bu xususiyat va sifatlarni har taraflama va chuqur tasavvur qilmasdan turib, mukammal hujjatchilikni yaratish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun bu o'rinda hujjatlar tasnifi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Hujjatshunoslikda hujjatlar bir necha jihatlarga ko'ra tasnif qilinadi. Tasniflashda mutlaqo bir xil guruhlashtirish mavjud bo'lmasa-da, har qalay, ularni bir qadar yagonalashgan holda guruhlashtirish mumkin.

Hujjatshunoslikdagi ana shu an'anaga ko'ra ish yuritishdagi hujjatlar eng avvalo tuzilish o'rniga ko'ra tasnif qilinadi. Bu jihatdan **ichki va tashqi** hujjatlar farqlanadi. **Ichki hujjatlar** ayni muassasaning o'zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan hujjatlardir, muayyan muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladiganlari esa **tashqi hujjatlardir**.

Hujjatlar **mazmuniga ko'ra** ikki turli bo'ladi: 1) **sodda hujjatlar** - muayyan bir masalani o'z ichiga oladi; 2) **murakkab hujjatlar** - ikki yoki undan ortiq masalani o'z ichiga oladi.

Mazmun bayonining shakli jihatidan **xususiy, namunaviy va qolipli** (yoki trafaretli) hujjatlar farqlanadi. Matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, hamisha ham bir andozada bo'lmasligi **xususiy hujjatlarning** asosiy belgilaridir (masalan, xizmat yozishmalari va shu kabilar).

Bunday hujjatlarda ham muayyan doimiy tarkib mavjud bo'lsada, bevosita mazmun bayoni bir qadar erkin bo'ladi.

Namunaviy hujjatlar boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bog‘liq, bir-biriga o‘xshash va ko‘p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o‘z ichiga oladi.

Qolipli hujjatlar, odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog‘ozlariga yoziladi, bunday hujjatlarda ikki turli axborot aks etadi, ya‘ni o‘zgarimas (oldindan tayyor bosma matnda ifodalangan) va o‘zgaruvchi (hujjatni tuzish paytida yoziladigan) axborotlar; shuning uchun bu tur hujjatlarga nisbatan ko‘pincha «yozmoq» emas, balki «to‘ldirmoq» so‘zi ishlatiladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, hujjatlarning qolipli turlari doirasini kengaytirish — ish yuritishni takomillashtirishdagi maqbul yo‘llardan biridir. Chunki bu tadbir hujjat matnlarini bir xil qilish va hujjat tayyorlash uchun ketadigan vaqt hamda mehnatni anchagina tejash imkoniyatini beradi. Qolipli hujjatlar sirasiga, masalan, ish haqi yoki yashash joyi haqidagi ma‘lumotnomalar, ayrim dalolatnomalar, xizmat safari guvohnomalari va boshqa ko‘plab hujjatlarni kiritish mumkin.

Hujjatlar **tegishlilik jihatiga ko‘ra xizmat yoki rasmiy hujjatlar va shaxsiy hujjatlarga** ajratiladi. **Xizmat xujjatlari** tayyorlanishiga ko‘ra muassasa yoki mansabdor shaxslarga tegishli bo‘lsa, **shaxsiy hujjatlar** yakka shaxslar tomonidan yozilib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog‘liq masalalarga tegishli bo‘ladi (masalan, shaxsiy ariza, shikoyat va h.k.).

Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasi ham benihoya muhim. Bu jihatiga ko‘ra hujjatlar quyidagacha tasniflanadi: qoralama; asl nusxa; nusxa; ikkinchi nusxa (dublikat); ko‘chirma. Aksar hujjatlar dastlab qoralama nusxada tayyorlanadi, bu hujjat muallifi, ya‘ni tayyorlovchining qo‘lyozma yoki kompyuterda ko‘chirilgan dastlabki nusxasidir.

Bu nusxa tuzatilib, qayta ko‘chirilishi mumkin. Aytish joizki, qoralama hujjat huquqiy kuchga ega emas. Asl nusxa har qanday hujjatning asli, birinchi rasmiy nusxasidir. Asl nusxaning aynan qayta ko‘chirilgan shakli nusxa deb yuritiladi, odatda o‘ng tomonidagi yuqori burchagiga «Nusxa» degan belgi qo‘yiladi.

Hujjatchilikda, shuningdek, **aynan (faksimil) va erkin nusxalar** ham farqlanadi. Aynan nusxa asl nusxaning barcha xususiyatlarini - hujjat zaruriy qismlarining joylashishi, mavjud shakliy belgilar (gerb, yumaloq muhr, to‘rtburchak muhr, nishon kabi), matndagi bosma,

yozma harf shakllari va shu kabilarni aniq va to'liq aks ettiradi, masalan, fotonusxani yoki kompyuterda chiqarilgan nusxani shu tur hujjatlar qatoriga kiritish mumkin. Erkin nusxada esa hujjatdagi axborot to'la ifodalansa-da, bu nusxa tashqi xususiyatlar jihatidan bevosita asliga muvofiq kelmaydi, ya'ni erkin nusxada asl nusxadagi muhr o'rniga «muhr» deb, imzo o'rniga «imzo» deb, gerb o'rniga «gerb» deb yozib qo'yiladi va h.k. Ba'zan muayyan hujjatga emas, balki uning bir qismiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday hollarda hujjatdan nusxa emas, balki ko'chirma olinadi (masalan, bayonnomadan ko'chirma, buyruqdan ko'chirma va h.k.). **Nusxa va ko'chirmalar**, albatta, notarius, kadrlar bo'limi va shu kabilar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangan taqdirdagina, huquqiy kuchga ega bo'ladi. Asl nusxa yo'qolgan hollarda hujjatning **ikkinchi nusxasi (dublikati)** beriladi, ikkinchi nusxa asl nusxa bilan bir xil HUQUQIY kuchga egadir.

Ma'muriy-boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeyiga ko'ra hujjatlar hozirgi kunda, asosan, quyidagicha tasniflanishi mumkin: **tashkiliy hujjatlar; farmoyish hujjatlari; ma'lumot-axborot hujjatlari; xizmat yozishmalari.**

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi:

1. **Tashkiliy hujjatlar** (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar)
2. **Farmoyish hujjatlari** (buyruq, ko'rsatma, farmoyish).
3. **Ma'lumot-axborot hujjatlari** (ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimai hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar).
4. **Xizmat yozishmalari** (taklifnoma, telegramma, xatlar).

Ma'lumot-axborot hujjatlari

Bu turdagi hujjatlar guruhi anchaginani tashkil qiladi. Bu guruhga kiruvchi hujjatlar, ya'ni ariza, ma'lumotnoma, tushuntirish xati, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tavsiyanoma, taqdimnoma, guvohnoma, taklifnoma, hisobot, tarjimai hol, tilxat, bildirishnoma, bayonnoma kabilar ish jarayonida juda keng qo'llanadi. Ularing har biriga alohida to'xtab o'tamiz.

Tarjimai hol

Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv. Tarjimai hol bir xil andozaga ega emas,

mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. Garchi u erkin (ixtiyoriy) tuzilsa-da, biroq tarjimai holda ayrim qismlarning bo‘lishi shart.

Tarjimai holning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tarjimai hoi).
2. Matn:
 - 1) muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi;
 - 2) tug‘ilgan yil, kun, oy va tug‘ilgan joyi;
 - 3) ota-onasi haqida qisqacha ma’lumot (familiyasi, ismi va ota ismi, ish joyi);
 - 4) ma’lumoti va ma’lumotiga ko‘ra mutaxassisligi;
 - 5) ish faoliyatining turlari;
 - 6) oxirgi ish joyi va lavozimi;
 - 7) mukofot va rag‘batlantirishlar;
 - 8) jamoat ishlarida ishtiroki;
 - 9) oilaviy ahvoli va oila a’zolari;
 - 10) turar joyi;
3. Sana.
4. Imzo.

Tarjimai hol oddiy qog‘ozga, ayrim hollarda, ya’ni ishga, o‘qishga kirishda maxsus bosma ish qog‘ozlariga qo‘lda yoziladi. Matnni bayon qilish shakli hikoya uslubida bo‘lib, birinchi shaxs tilidan yoziladi.

Barcha ma’lumotlar davriylik (xronologiya) asosida beriladi. Tarjimai hol shunday tuzilishi kerak-ki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo‘li, ishchanlik mahorati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqida tasavvurga ega bo‘lsin.

Ariza

Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Ariza ijtimoiy hayotda eng ko‘p qo‘llaniladigan va keng tarqalgan ish qog‘ozdir. Maktab o‘quvchisi va talaba ishchi va dehqon, muhandis va olim, xizmatchi va yuqori mansabdor shaxs — jamiyatning barcha a’zosi ariza yozishdan holi emas. Ariza yozuvchilarning yoshi va ijtimoiy vazifasi turlicha ekan, ariza yo‘llanayotgan muassasalar va idoralar ham xilma-xildir.

Hajm, uslub va turidan qat’iy nazar, ariza o‘zining umumiy zaruriy qismlariga ega.

Shuni eslatib o‘tmoq joizki, arizaning zaruriy qismlari barcha

arizalarda ham birday takrorlanavermaydi. Masalan, xodim o'zi ishlayotgan korxonaga yoki idora rahbariyatiga ariza yozganda uning yashash joyi haqida ma'lumot zarur bo'lmaydi.

Bunday hollarda xodim o'zi ishlaydigan bo'lim (qism, bo'lim va hokazo) va lavozimini ko'rsatsa kifoya. Shuningaek, ko'pchilik arizalar uchun ilovalarning hujjati bo'lmaydi.

Ariza bir necha so'zdan iborat bo'lishi, yoki keng jamoatchilikni o'ylantirayotgan ijtimoiy masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan xat tarzida bo'lishi ham mumkin. Shu nuqtai nazardan arizalar *sodda va murakkab* turlarga ajratiladi. *Murakkab ariza* matni katta bo'lishi bilan birga, unga ilovalar qilinadigan turlari ham uchraydi.

Arizalar aksar hollarda shaxsiy xususiyatga egadir. Shu bilan birga, xizmat arizalari ham bo'ladi. *Xizmat arizasi* — fuqarolar yoki tashkilotlarning o'z huquqlarini amalga oshirish yoki manfaatlarini himoya qilish yuzasidan yozma axborotlar hisoblanadi. Da'vo arizalari ana shunday arizalardandir. Iltimos va shikoyat mazmunidagi arizalar taklif mazmunini aks ettirgan arizalarga hamda da'vo arizalariga nisbatan ko'p qo'llaniladi.

Arizalarning navbatdagi keng tarqalgan turi o'quv yurtlariga kirish yoki muayyan jamoat tashkilotlariga a'zo bo'lish haqidadir.

Ish jarayonida ham xodimlar o'zlari ishlab turgan muassasasinning rahbariyatiga turli mavzularda arizalar yozadilar. Ular ish sharoitini yaxshilash, boshqa ishga o'tkazish, nafaqa belgilash, qo'shimcha ta'til berish, moddiy yordam ko'rsatish, yashash sharoitini yaxshilash haqida iltimos mazmunida yoki ish sharoitini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish haqida taklif mazmunida yozilishi mumkin.

Mehnatkashlar va boshqa toifadagi aholi ish joyidan tashqari ko'plab rasmiy va jamoat tashkilotlariga turli mavzudagi arizalar bilan murojaat etadilar. Bu arizalar vositasida fuqarolar davlat idoralari yoki jamoat tashkilotlari orqali o'zlariga ega bo'lgan muayyan haq-huquqlarini amalga oshiradilar, shu bilan birga shikoyat mazmunidagi arizalar fuqarolarning haq-huquqlarini, qonun yoli bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzish yoki cheklashlarni bartaraf qilish haqida murojaatlar o'z aksini topadi. Arizalar mahalliy (viloyat, tuman, shahar, qishloq) kengashlarning boshliqlariga, ijtimoiy ta'minot idoralari, sud va prokuratura idoralari, notarial

idoralarga, fuqarolik holati hujjatlarini qayd qilish va arxiv bo'limlariga, qurilish boshqarmalariga va boshqa idoralarga yozilishi mumkin.

Da'vo arizasining matni (mazmuni)da nizoning mohiyati, da'vogarning nizoni ko'ngilli ravishda hal qilish yo'lidagi chora-tadbirlari va uning natijalari, da'vogarning javobgarga qo'ygan talablari, talablarning haqqoniyligiga dalillar aniq va yaqqol bayon qilinadi.

Ilovalar — (da'vogarning talablarini asoslovchi barcha hujjatlar sanaladi).

Da'vo arizalari fuqarolar tomonidan ham yoziladi. Bunday arizalar ko'pincha sud idoralari yoziladi va xizmat arizalaridan faqat to'rtburchak muhrning bo'lmasligi bilan farqlanadi. Fuqarolarning da'vo arizalari aliment undirish, mol-mulkni bolish, bolani qaytarib olish, qo'shimcha ishlaganlik uchun haq undirish, turar joydan ko'chirish, qarzni undirish kabi mazmunda bo'lishi mumkin.

Hisob-kitob arizasi bajarilgan ishlarga haq to'lash haqidagi yozma yoki og'zaki mehnat shartnomalari asosida muayyan ishlarni bajargan ayrim ishchi (xizmatchi) lar tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Hisob-kitob arizalari ham erkin usulda yoziladi.

Ma'lumotnoma

Ma'lumotnoma o'z xususiyati va mazmuniga ko'ra ikkita: **xizmat** ma'lumotnomasi va **shaxsiy** ma'lumotnomaga bolinadi. Xizmat ma'lumotnomasi — muassasa faoliyatiga doir voqea-hodisalarni rasmiy aks ettiradi va tasdiqlaydi. Xizmat ma'lumotnomasi axborot xususiyatiga ega bo'lgan xilma-xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, zarur hollarda esa raqamli jadvallar ko'rinishida tayyorlanadi. Bunday ma'lumotnomalar muassasa faoliyatiga aloqador voqea-hodisalar haqida yuqori idora yoki mansabdor shaxsni xabardor qiladi. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar muassasa, jamoa xo'jaligi, ishlab chiqarish faoliyatining muhim masalalari bo'yicha, uning moliyaviy faoliyati, xodim (shtat) lar soni, rejalashtirilgan topshiriqlarning bajarilishi, moddiy tovar boyliklarining saqlanish holati: mehnat intizomining ahvoli haqida boshqa so'ralayotgan masalalar to'g'risida bolishi mumkin. Masalan, *Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodida 2007-yildagi mehnat intizomi haqida ma'lumotnoma.*

Xizmat ma'lumotnomasi ham o'z navbatida ikkiga: **ichki**

xizmat va tashqi xizmat ma'lumotlariga bo'linadi. **Ichki xizmat** ma'lumotnomasi: muassasaning ichki ishlari, xo'jalik faoliyati, biror tarkibiy bo'linma yoki ayrim xodim haqida tayyorlanib, shu muassasa rahbariga yo'llanadi. Bunday ma'lumotnomalar bevosita tuzuvchi (bo'linma boshlig'i, ish yurituvchi (bo'linma boshlig'i, kadrlar bo'limi boshlig'i, ish yurituvchi oddiy xodim va boshqalar) tomonidan imzolanadi va oddiy qog'oz varag'iga qo'lda yozilishi ham mumkin.

Tashqi xizmat ma'lumotnomasi — muayyan muassasa nomidan yuqori idora yoki mansabdor shaxslarga, ularning ko'rsatmasiga muvofiq tayyorlanib jo'natiladi. Bunday ma'lumotnomalar oddiy ish qog'oziga yoki maxsus bosma ish qog'oziga yoziladi va muassasa rahbari tomonidan imzolanadi.

Har qanday xizmat ma'lumotnomasi boshqa biron-bir hujjatni guvohlantirish yoki muayyan qaror qabul qilish uchun asos bo'ladi.

Xizmat ma'lumotnomasiga matn mazmunini ochib beruvchi sarlavha qo'yiladi. Masalan, "Korxonaning ma'muriy boshqaruv xodimlari soni haqida". Ma'lumotnomada qayd etilayotgan xabarlarga taalluqli sana alohida ajratib, asosiy matn oldidan yoziladi.

Shaxsiy ma'lumotnoma — muassasalar tomonidan fuqarolarning turmush va ish faoliyatiga aksar voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beradigan hamda talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjatdir. Masalan, muassasa ishchi yoki xodimga uning qayerda, kim bo'lib va qancha maosh olib ishlashi haqida o'quvchi va talabaga esa qayerda o'qishi haqida fuqarolik holati hujjatlarini qayd qilish va shaxsning tug'ilganligi va h.k. vafot etganligi to'g'risida ma'lumotnomalar beradi.

Ma'lumotnoma rahbarlar ko'rsatmasi yoki fuqaro talabiga ko'ra beriladi.

Shaxsiy ma'lumotnomaning zaruriy qismlari: tashkilot nomi, berilgan sana, tartib raqami, ma'lumotnoma berilayotgan kishining familiyasi, ismi, otasining ismi, uning mazmunini tashkil etuvchi qisqa matn, qayerga taqdim etilayotganligi, tashkilot rahbarining imzosi, familiyasi va tashkilot muhri bo'lishi kerak.

Shaxsiy ma'lumotnoma o'zining zaruriy qismlari jihatidan rasmiy xizmat ma'lumotnomasiga yaqin turadi, chunki shaxsiy ma'lumotnomalar ham aksar hollarda oddiy ish qog'oziga yoki oldindan tayyorlangan bosma ish qog'oziga yoziladi. Ushbu ish qog'ozlarida bir qancha zaruriy qismlar va takrorlanuvchi iboralar o'z

aksini topgan bo‘ladi Shaxsiy ma’lumotnomalarda u yo‘llagan idora yoki shaxs nomi bo‘lmaydi: Ish joyiga (yashash joyiga) ko‘rsatish uchun beriladi. Bosma ish qog‘ozlari bo‘lmagan hollarda ma’lumotnomalar oddiy qog‘ozga qo‘lda yoki kompyuterda yoziladi va uning chap burchagiga korxonaga yoki jamoat, tashkilotning to‘rtburchak muhri qo‘yiladi, uning qarshisiga, o‘ng tomoniga so‘zi yoziladi. Ish haqini tasdiqlash haqidagi va pul bilan bog‘liq boshqa shaxsiy ma’lumotnomalarga tegishli muassasaning bosh (katta) hisobchisi ham imzo qo‘yishi kerak. Ma’lumotnomalarning bu turi ham jo‘natma hujjatlar daftarida qayd etilib, xodim qo‘liga beriladi.

Ba‘zan ma’lumotnomalar bosma ish qog‘ozida emas, balki oddiy qog‘ozga yozilib birgina muhr va imzo bilan tasdiqlanadi.

Bildirishnoma

Bildirishnomaning zaruriy qismlari: tashkilot rahbari familiyasi, hujjat yozayotgan kishining lavozimi, familiyasi va hujjat matni, ilova hujjat hajmi va nusxasi ro‘yxati, tuzuvchilarning imzo va familiyasi hamda sana keltiriladi. Bildirishnoma tashabbus, axborot, hisobot xususiyatiga ega, korxonaga doirasida va yuqori tashkilot, mansabdor shaxslar nomiga yoziladi.

Tilxat

Tilxat — ma’lum bir shaxsdan yoki muassasadan pul, hujjat qimmatbaho buyumlar yohud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat.

Tilxat birgina nusxada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Tilxatning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tilxat),
2. Matn:
 - 1) tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va ota ismi;
 - 2) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi (zarur bo‘lganda muassasa nomi);
 - 3) pul, hujjat, buyum yoki boshqa bir narsaning nomi va ularning miqdori (zaruriyat bo‘lganda bahosi);
 - 4) olinayotgan buyumning texnik holati (agar u mashina, apparatlar va h.k. bo‘lsa).
3. Tilxat berilgan sana.
4. Tilxat muallifining imzosi.

Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, qavs ichida esa so'zlar bilan ham berilishi mumkin. Matn va imzo oralig'idagi bo'sh joylar chiziladi.

Tilxatdagi yozuvlarni o'chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda bunday hujjatning haqiqiyliги shubha ostiga olinishi mumkin.

Ba'zan tilxatda guvohlar ham ko'rsatiladi. Bunday hollarda guvohlar o'z imzolari bilan hujjatni tasdiqlashlari kerak.

Tushuntirish xati

Xizmat sohasidagi xizmatga aloqador masalani uning ayrim jihatlarini yozma holda va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo'llovchi hujjatdir.

Tushuntirish xati xuddi ma'lumotnoma va bildirishnoma singari ichki tashqi xususiyatga ega. Keyingi holatda, ya'ni tushuntirish xati yuqori tashkilotga yuborilayotganda u ko'pincha biror asosiy hujjat (rejalar, hisobotlar, loyihalar)ga ilova tarzida bo'lib mazkur hujjatni umuman yoki ba'zi o'rinlarini qisman izohlab tushuntirib beradi. Bu xildagi tushuntirish xati, shuningdek, muassasada bo'lib o'tgan voqea-hodisaga, rahbarning ba'zi xatti-harakatiga, rejalashtirilgan ishlarning bajarilmay qolishiga ham izoh beradi yoki dalillaydi. Demak, bu holda tushuntirish xati mustaqil hujjat hisoblanmaydi. Shunga qaramay u muassasa oddiy ish qog'ozida rasmiylashtiriladi va rahbar tomonidan imzolanadi.

Ichki — shaxsiy tushuntirish xatlari, asosan, xodim (ishchi, xizmatchi, talaba) tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (o'qish)jarayonida xodim (talaba) tomonidan sodir etilgan ba'zi xatti-harakatlar (*masalan, ish yoki o'qishga kech qolish, kelmay qolish reja yoki ayrim topshiriqni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik va boshqalar*) va ularni keltirib chiqargan sabablar izohlanadi, dalillanadi. Bevosita xodim (muallif) tomonidan imzolanadigan bunday tushuntirish xati oddiy varaqqa yoziladi. Shaxsiy tushuntirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasi qo'llash yoki dalillar asosli (uzrli) bo'lsa qo'llamaslik uchun asos vazifasini o'tash mumkin.

Tashqi xizmat yuzasidan korxonaga yoki muassasa nomidan yoziladigan tushuntirish xatlari oddiy ish qog'ozida rasmiylashtiriladi, tabiiyki muassasaning to'liq nomi ushbu qog'ozda aks etadi.

Zaruriy qismlari yoki yozilish shakli jihatidan tushuntirish xati arizadan deyarli farq qilmaydi, tarkibiy qismlarning joylashishi ham bir xil. Faqat shaxsiy tushuntirish xatining muallifi arizadagiday chiqish kelishigida emas, balki qaratqich kelishigida rasmiylashtirish ma'qul.

Ishonchnoma

Ishonchnoma muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolat hujjat. Ular o'z mazmuniga ko'ra, mol-mulkini boshqarish, pul va moddiy buyum boyliklarini olish, sud idoralarida ish olib borish va boshqa ishlarni amalga oshirishni ifodalaydi.

Muallifni ish-harakatni bajarishga vakolat berish kim tomondan (muassasa tomonidanmi yoki ayrim shaxs tomonidanmi) rasmiylashtirilishiga qarab, ishonchnomalar **rasmiy (xizmat)** va **shaxsiy** turlarga bo'linadi.

Rasmiy (xizmat sohasidagi) ishonchnomalar davlat muassasalari, kasaba uyushmasi, tashkilotlar tomonidan muayyan lavozimli shaxsga uning. mazkur tashkilotlar tomonidan ish yuritishga vakil qilinganini bildirish uchun beriladi. Ular muassasa rahbari tomonidan imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi kerak.

Ayrim hollarda (masalan, kooperativ yoki ijtimoiy mulkni boshqarishda) ishonchnoma qonun talabiga ko'ra notarial tasdig'idan o'tishi zarur bo'ladi.

Mazmun hamda vakolatning hajmiga ko'ra ishonchnomalar *bir gallik, maxsus va umumiy turlarga* bo'linadi. Bir gallik ishonchnoma muayyan bir ishni amalga oshirish, vazifani bajarish uchun (masalan, faqat bir martagina pul yoki qimmatbaho buyumni olish uchun) beriladi. Muayyan davr davomida bir qancha turdagi vazifalarni bajarish vakolatini beruvchi ishonchnomalar maxsus ishonchnoma hisoblanadi (masalan, yil davomida sud-hakamlik idoralarida korxonada nomidan vakillik qilish uchun berilgan ishonchnoma). Umumiy ishonchnoma mulkni boshqarish bilan aloqador turli-tuman ishlarni amalga oshirish huquqini beradigan ishonchnomadir.

Rasmiy ishonchnomalarda ularning amal qilish (o'z kuchini saqlash) muddati, albatta, ko'rsatilgan bo'ladi. Ular bir necha kundan bir necha yilgacha bo'lgan (lekin uch yildan ortiq bo'lmagan) muddat uchun berilishi mumkin. Agar ishonchnomada uning amal qilish muddati aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, bunday hollarda u berilgan

kundan boshlab bir yil davomida o'z kuchini saqlaydi.

Rasmiy ishonchnomalar, odatda namunaviy shakldagi bosma ish qog'ozida rasmiylashtiriladi. Bunday bosma ish qog'ozlarda ishonchnomaning barcha zaruriy qismlarini to'g'ri va aniq rasmiylashtirish (to'ldirish) uchun maxsus o'rin va ko'rsatmalar mavjud. Bosma ish qog'ozlari bo'lmagan chog'da ishonchnomalar oddiy qog'ozga yoziladi va uning yuqori chap tomoniga ishonchnoma beruvchi muassasaning to'rtburchak muhri qo'yiladi.

Moddiy-buyum boyliklarini olish uchun ishonchnomalarni rasmiylashtirish va berish borasida alohida qoidalar belgilangan. Bunday ishonchnomalar belgilangan shakldagi bosma ish qog'ozlarida rasmiylashtirilib faqat shu korxonada xodimlariga berilishi mumkin.

Lug'at ishi

Namunaviy hujjatlar	-образцы документов
Qolipli hujjatlar	-шаблоны документов
Xususiy hujjatlar	- частные документы
Rasmiy hujjatlar	- официальные документы
Xizmat xujjatlari	- служебные документы
Shaxsiy hujjatlar	- личные документы

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Hujjat turlari nechaga bo'linadi va ular qaysilar?
2. Hujjatlar mazmuniga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Namunaviy hujjatlar deb nimaga aytiladi?
4. Hujjatlar tegishlilik jihatiga ko'ra qaysi turlarga ajratiladi?

1-mashq. Quyida keltirilgan hujjatga oid ma'lumotlarni davom ettiring.

Tilxatning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tilxat),
2. Matn:
 - a) tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va ota ismi;
 - b) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi (zarur bo'lganda muassasa nomi);
 - c) pul, hujjat, buyum yoki boshqa bir narsaning nomi va ularning miqdori (zaruriyat bo'lganda bahosi);

d) olinayotgan buyumning texnik holati (agar u mashina, apparatlar va h.k. bo'lsa).

3. ...

4. ...

2-mashq. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

1. ... - muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolat hujjat.
2. ... - ma'lum bir shaxsdan yoki muassasadan pul, hujjat qimmatbaho buyumlar yohud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat.
3. ... - muassasalar tomonidan fuqarolarning turmush va ish faoliyatiga aksar voqea-hodisalar va holatlarni tasdiqlab beradigan hamda talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjatdir.

3-mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling va so'zlab bering.

Shaxsiy ma'lumotnoma o'zining zaruriy qismlari jihatidan rasmiy xizmat ma'lumotnomasiga yaqin turadi, chunki shaxsiy ma'lumotnomalar ham aksar hollarda oddiy ish qog'oziga yoki oldindan tayyorlangan bosma ish qog'oziga yoziladi. Ushbu ish qog'ozlarida bir qancha zaruriy qismlar va takrorlanuvchi iboralar o'z aksini topgan bo'ladi. Shaxsiy ma'lumotnomalarda u yo'llagan idora yoki shaxs nomi bo'lmaydi: Ish joyiga (yashash joyiga) ko'rsatish uchun beriladi. Bosma ish qog'ozlari bo'lmagan hollarda ma'lumotnomalar oddiy qog'ozga qo'lda yoki kompyuterda yoziladi va uning chap burchagiga korxonalar yoki jamoat, tashkilotning to'rtburchak muhri qo'yiladi, uning qarshisiga, o'ng tomoniga so'zi yoziladi. Ish haqini tasdiqlash haqidagi va pul bilan bog'liq boshqa shaxsiy ma'lumotnomalarga tegishli muassasaning bosh (katta) hisobchisi ham imzo qo'yishi kerak. Ma'lumotnomalarning bu turi ham jo'natma hujjatlar daftarida qayd etilib, xodim qo'liga beriladi.

Test

1. Matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, hamisha ham bir andozada bo'lmasligi ...ning asosiy belgilaridir. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- A. Namunaviy hujjatlar
- B. Xususiy hujjatlar

C. Tashkiliy hujjatlar

E. Qolipli hujjatlar

2. **Qaysi hujjatlar boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bog‘liq, bir-biriga o‘xshash va ko‘p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o‘z ichiga oladi?**

A. Qolipli hujjatlar

B. Xususiy hujjatlar

C. Tashkiliy hujjatlar

D. Namunaviy hujjatlar

3. **... odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog‘ozlariga yoziladi, bunday hujjatlarda ikki turli axborot aks etadi, ya‘ni o‘zgarmas (oldindan tayyor bosma matnda ifodalangan) va o‘zgaruvchi (hujjatni tuzish paytida yoziladigan) axborotlardir.**

A. Qolipli hujjatlar

B. Xususiy hujjatlar

C. Tashkiliy hujjatlar

D. Namunaviy hujjatlar

4. **Hujjatlar qaysi jihatiga ko‘ra xizmat yoki rasmiy hujjatlar va shaxsiy hujjatlarga ajratiladi?**

A. Mazmuniga ko‘ra

B. Tegishlilik jihatiga ko‘ra

C. Tuzilishiga ko‘ra

D. Bo‘ysinuv jihatiga ko‘ra

5. **Guvohnoma, yo‘riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar hujjatning qaysi turiga mansub?**

A. Namunaviy hujjatlar

B. Xususiy hujjatlar

C. Tashkiliy hujjatlar

D. Farmoyish hujjatlari

6. **Buyruq, ko‘rsatma, farmoyish kabi hujjatlar qaysi turga mansub?**

A. Namunaviy hujjatlar

B. Xususiy hujjatlar

C. Tashkiliy hujjatlar

D. Farmoyish hujjatlari

7. **Ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimai hol, tilxat, tushuntirish xati, e‘lon va boshqalar hujjatlarning qaysi turiga mansub?**

- A. Ma'lumot-axborot hujjatlari
- B. Xususiy hujjatlar
- C. Tashkiliy hujjatlar
- D. Farmoyish hujjatlari

8. **Taklifnoma, telegramma, xatlar hujjatning qaysi turiga mansub?**

- A. Namunaviy hujjatlar
- B. Xususiy hujjatlar
- C. Xizmat yozishmalari
- D. Farmoyish hujjatlari

9. **Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolat hujjat – bu...**

- A. Bildirishnoma
- B. Tilxat
- C. Ma'lumotnoma
- D. Ishonchnoma

10. **Ma'lum bir shaxsdan yoki muassasadan pul, hujjat qimmatbaho buyumlar yohud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat - ...**

- A. Bildirishnoma
- B. Tilxat
- C. Ma'lumotnoma
- D. Ishonchnoma

1-topshiriq. Hujjat turlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanib dialogga kirishing.

2-topshiriq. Hujjat turlaridan birini tanlab, mustaqil ravishda yozishga harakat qiling.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasi. -Toshkent.: "O'zbekiston".2019-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 98-moddasi. -Toshkent.: "O'zbekiston". 2019-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2019-yil

15-noyabrdagi PF-5876-sonli. “Millatlararo munosabatlar sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-noyabrdagi 4071-sonli qarori. “2019-2020-yilgi qish-bahor mavsumida respublika aholisi va ijtimoiy soha muassasalarini asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan kafolatli ta‘minlash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2019-yil.

7. Xoliqov H. “Ish yuritish”. (Uslubiy ko‘rsatmalar) – A.: AndMII, 2007-yil.

MUNDARIJA

Mavzu: O‘zbekiston - yagona vatan	3
Mavzu: O‘zbek tilida tovushlar talaffuzi	9
Mavzu: O‘zbek tili – davlat tili	13
Mavzu: O‘zbek tilining imlo qoidalari	18
Mavzu: Milliy qadriyatlar – millat iftixori	24
Mavzu: O‘zbek tilida so‘z yasalishi	29
Mavzu: Tarix va zamonamiz	36
Mavzu: Tilning leksik qatlamlari	41
Mavzu: Ulug‘ ajdodlarimiz	47
Mavzu: Atamalar va ularning vujudga kelishi	53
Mavzu: Vatan va vatanparvarlik	57
Mavzu: Ijtimoiy-siyosiy leksika	62
Mavzu: Muzeylar– o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik	69
Mavzu: Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanilishi	75
Mavzu: Kelajak – bilimli yoshlar qo‘lida	80
Mavzu: O‘zbek tilida sinonimlar	87
Mavzu: Zamonaviy dunyoda ta’lim	94
Mavzu: Til va terminologiya	99
Mavzu: Kitob mutolaasi	106
Mavzu: Erkin va turg‘un birikmalar	114
Mavzu: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi	122
Mavzu: Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari ...	131
Mavzu: Adabiyot - ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba	140
Mavzu: Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari	146
Mavzu: Ommaviy axborot vositalari	153
Mavzu: Inson va salomatlik	161
Mavzu: Davrimizning global muammolari	169
Mavzu: Hujjat turlari va xususiyatlari	1777

G.Y.Samandarova

O‘ZBEK TILI

**60230102-Filologiya va tillarni o‘qitish (rus tili) ta’lim yo‘nalishi
talabalariga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv
qo‘llanma**

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 23.03.2023. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 12,0. Adadi 100. Buyurtma №129.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45